MAXMUDOVA A.N.
RAXMONOV A.A.
USANOV SH.M.
CHORIYEV N.X.

O'QUV QO'LLANMA

# O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI







MAXMUDOVA A.N.
RAXMONOV A.A.
USANOV SH.M.
CHORIYEV N.X.

O'QUV QO'LLANMA

# O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI







**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**
**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI TERMIZ FILIALI**

**Maxmudova A.N.**
**Raxmonov A.A.**
**Usanov SH.M.**
**Choriyev N.X.**

# O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
## O'QUV QO'LLANMA

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan O'zbekistonning eng yangi tarixi fanidan asosiy qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

SamDTU
axborot-resurs markazi
320154

**Andijon – 2023**

**KBK: 63.3(5O')YA73**
**UO'K: 94(575.1)(075.8)**
**M 32**

**O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'quv qo'llanma. Andijon-2023. (160-bet).**

**Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetining 2023-yil 2-Noyabrdagi A/F 514 sonli buyrug'iga asosan ruxsat berilgan.**

**Mualliflar:**

**A.N.Maxmudova**-SamDTU falsafa fanlari bo'yicha PhD

**A.A.Raxmonov**-TTA Termiz filiali falsafa fanlari bo'yicha PhD.

**N.X.Choriyev**- TTA Termiz filiali O'zbekiston tarixi fani assistenti.

**Sh.M.Usanov**- TTA Termiz filiali O'zbekiston tarixi fani assistenti.

**Taqrizchilar:**

**Dj.B.Vafayeva**- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, professor

**Yu.M.Xalimbetov** -Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti

**Mas'ul muharrir:**

**G'afforov Sh.S.** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi professori

**ISBN: 978-9910-9617-0-0**

**KBK: 63.3(5O')YA73**
**UO'K: 94(575.1)(075.8)**

**© A.N. Maxmudova, A.A. Raxmonov, SH.M.Usanov, N.X. Choriyev, 2023**
**© „ WORLDLY KNOWLEDGE " NASHRIYOTI, 2023**

O'quv qo'llanma Oliy ta'lim Davlat Standarti asosida fanning namunaviy o'quv dasturiga mos ravishda Tibbiyot sohasida ta'lim olayotgan Davolash ishi, Pediatriya ishi, Xalq tabobati,Tibbiy profilaktika ishi, Stomatologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich bakalavrlari uchun tayyorlangan. Ushbu o'quv qo'llanmadan, barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari, magistrant va stajyor - tadqiqotchilar, fan o'qituvchilari hamda O'zbekistonning eng yangi tarixini mustaqil o'rganmoqchi bo'lgan o'quvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur o'quv qo'llanmada "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanidan mavzularga oid asosiy savollar, tayanch tushunchalar, tushuntiruvchi nazariy matn, konsultativ materiallar (sxema va tablitsalar); mavzularni mustaqil o'zlashtirish uchun savollar, mashqlar, testlar, mashhur mutafakkirlarning axloqiy qadriyat kasb etuvchi hikmatli fikrlari, glossariy, shuningdek asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berilgan.

O'quv qo'llanma fanning modul dasturiga mos holda, O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini talabalar va boshqa fanga qiziquvchilar uchun yagona tizimga keltirilgan holatda Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialining "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedralarida tayyorlandi.

# KIRISH

Ushbu fan doirasida "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining mazmuni, predmeti, uni o'rganishning maqsadi va vazifalari, mustaqillik davri rivojlanishining asosiy bosqichlari, amalga oshirilgan islohotlar, milliy qadriyatlarning tiklanishi, mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqning qadriyat va madaniyatini, tarixini bilishga va uni anglashga qiziqishi, har qaysi mamlakat, har bir xalqning o'ziga xos bo'lgan uzoq o'tmishini anglashda yordam beradi.

O'zbekistonning qadimgi o'tmishi, o'zbek xalqining ham boy va sermazmun tarixi mavjudligi, qadim o'tmishda Turon, Turkiston, Movarounnahr deb atalganini bilamiz. Mamlakatimizning Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi ko'hna shaharlarimiz bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohlarga aylanganligi, ana shunday qadimiy va buyuk mamlakat tarixini, tabarruk zaminimizda necha ming yillar mobaynida yashab, kurashib ijod qilib kelayotgan xalqimiz o'tmishini "O'zbekiston tarixi" fani o'rganadi.

Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayoni, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosi, davlatlarning tashkil topishi, ularning ichki va tashqi siyosatini o'rganadi. "O'zbekiston tarixi" fanining dolzarb muammolari, echimini kutayotgan talaygina masalalari mavjud bo'lib, jumladan Vatanimiz hududida eng qadimgi davrlardan boshlab yashayotgan aholi va ularning joylashuvi, bu aholining qo'shni qabilalar bilan turlicha munosabatlari, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yashagan qadimiy mahalliy aholi bizning ajdodlarimiz ekanligini asoslash va tadqiq etish shular jumlasidandir.

"O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanini chuqur o'rganish tegishli soha doirasidagi muammolarni anglash va hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

"O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining asosiy maqsadi – talabalarda Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayoni, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosi, davlatlarning tashkil topishi, ularning ichki va tashqi siyosatini o'rganadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur fan mamlakatimiz hamda etakchi xorijiy davlatlarning ilm-fan yutuqlari, ilg'or pedagogik texnologiyalari va ilmiy adabiyotlari asosida talabalarda Mustaqillik, suverenitet, demokratiyaning maqsadi va vazifalarini shakllantirish haqida nazariy bilimlarni, ularga uslubiy yondashuv amaliy ko'nikmalarini hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba bunda:

- XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siësiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat,

-O'zlikni anglashga intilishning kuchayishi,

- Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlashi,
- Taraqqiyotning O'zbek modeli va uning o'ziga xos xususiyatlari,
- Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi,

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati haqida bilimga ega bo'lish,
- O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlarini tahlil qila bilish,
- Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishini teran his qila olish,
- Milliy istiqlol g'oyasi va mafkuraviy masalalarni tahlil eta olish ko'nikmalariga,
- Tarixiy voqea va hodisalar natijalarini qiyosiy taqqoslash orqali ulardan xulosalar chiqarish,
- Jamiyat taraqqiyotida o'zining tutgan o'rnini anglay bilish, his etish va faol ishtirok etish,
- Tarixiy voqealar va hodisalarga nisbatan o'z nuqtai nazariga, mustaqil fikriga va munosabat bildira olish malakalariga ega bo'lishi;
- O'zbekistonning mudofaa qobiliyati,
- O'zbekistonni rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining mohiyati,
- O'zbekistonni rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining mohiyati haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

**1-mavzu. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" modulining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.**

Reja:

**1. O'zbekistonning eng yangi tarixi fani, predmeti, obekti, uning maqsadi va vazifalari.**
**2. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining nazariy-metodologik asoslari**
**3. O'zbekistonning eng yangi tarixini davrlashtirish.**
**4. Tarixiy manbalar va ularning turlari, ahamiyati.**

**Mashg'ulot maqsadi:** O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining nazariy-metodologik asoslarini, manbalari va mintaqa tarixining jahon tarixi bilan bog'liqligi to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** tarix, O'zbekiston, fan, predmet, obyekt, nazariy-metodologik asoslar, tamoyillar, xolislik, ilmiylik, tarixiylik, davr, tarixiy manba, yozma manbalar, moddiy manbalar, xalq, mamlakat, mintaqa, o'tmish, Movarounnahr, Turkiston, Gerodot, xitoy yilnomalari, Kvint Kursiy Ruf, Strabon, madaniyat, til, urf-odatlar, tarixiy o'tmish, tarixiy xotira, sivilizatsiya, arxeologiya, numizmatika, paleografiya, etnografiya, sharq va g'arb, shaharsozlik, "Avesto", Behistun yozuvlari, "Temur tuzuklari", Beruniy, Forobiy, madaniy meros, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Alisher Navoiy, komil inson, vatanparvarlik, insoniylik.

**O'zbekiston tarixi fani, predmeti, obyekti, uning maqsadi va vazifalari.**

Kishilik jamiyati qaror topganidan odamzod avlod-ajdodlari kimligini, qanday hayot kechirganligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan zaminni, Vatanining o'tmish tarixini bilishni istaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, dini, madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. O'zbekistonning ham, o'zbek xalqining ham boy va sernazmun tarixi mavjuddir. Qadim o'tmishda Turon, Turkiston, Movarounnahr deb atalgan ona zaminimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko'ra buyuk mamlakatlar qatori dunyoga mashhurdir. Vatanimiz jahon tarixining turli xalqlar, sivilizatsiyalar tutashgan eng to'lqinli, shiddatli chorrahalardan biri bo'lib, bu zaminda mahalliy aholining fors, hind, xitoy, yunon, arab, rus xalqlari bilan ma'lum darajada aralashuvi sodir bo'lib, ularning madaniyati, tili, dini, fani, san'ati, turmush tarzi bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti shu mintaqada sodir bo'lgan jamiki voqea va hodisalar, ulardagi umumiylik va aloqadorlik qonuniyatlari, tarixiy

hodisa va jarayonlar, umuman insoniyatning barcha tarixiy faoliyat jarayonlarini o'rganishdir.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining obyekti aniq tarixiy davr, makon, zamon hamda geografik va umumiy mintaqaviy chegaralar, ma'lum xalqlar, mamlakatlar tarixi bilan bog'liq jarayonlar bo'lib, ular voqea va hodisalarni bir butun va yaxlitlikda qamrab oladi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining maqsadi mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida aholining, jumladan, talaba-yoshlarning o'rnini, o'zligini anglatishdan iborat.

«O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanini o'qitishning vazifalari–mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlar mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g'ururni shakllantirishdan iborat.

**O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik, ilmiy-nazariy asoslari**

O'zbekistonning eng yangi tarixini rivojlantirishga doir davlatimiz rahbarining qarori, tarixiy-ma'naviy merosimizga tayangan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'plab dolzarb mavzulardagi ilmiy tadqiqot ishlari, darslik va qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy asarlar asos bo'ladi.

O'zbek xalqi boy va qadimiy davlatchilik tajribasi mavjuddir, hozirgi O'zbekiston hududida ilk mustaqil davlat tuzilmalari juda qadimga borib taqaladi. Dunyo davlatchiligi ravnaqiga qarasak turli davlatlar bor va ularning o'z tarixi va qadriyatlari mavjuddir. Dunyo davlatlari eng yuksak darajaga ko'tarilgan davrlarda vatanimiz tarixi ushbu davlatlardan kam bo'lmaganligi butun dunyoga ma'lumdir. Qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar va fuzalolar qolaversa olim-u ulamolar, siyosatchilar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan va topmoqda.

Boy va navqiron diyorimizning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak murakkab suv inshootlari, mahobatini yo'qotmagan osori — atiqalar, dehqonchilik maydonlari, hunarmandchilik makonlari, me'morchilik hamda shaharsozlik yuksak bo'lganligini ko'rish mumkindir.

Tarixning beshafqat davrlari ham borki bu davrlarda sinovlaridan omon qolgan, tosh yozuvlar, bitiklar, bugungi kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan juda ko'plab qo'lyozmalarda tarixiy meros yotadi.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi ko'hna shaharlarimiz bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohlarga aylangan. Muqaddas zaminimiz

orqali o'tgan "Buyuk Ipak yo'li" Sharq va G'arbdagi mamlakatlar va xalqlarni bir-biri bilan bog'lab, ularning madaniy, iqtisodiy hamkorligiga xizmat qilgan.

Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayoni, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosi, davlatlarning tashkil topishi, ularning ichki va tashqi siyosatini o'rganadi. "O'zbekiston tarixi" fanining dolzarb muammolari, echimini kutayotgan talaygina masalalari mavjud bo'lib, jumladan Vatanimiz hududida eng qadimgi davrlardan boshlab yashayotgan aholi va ularning joylashuvi, bu aholining qo'shni qabilalar bilan turlicha munosabatlari, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yashagan qadimiy mahalliy aholi bizning ajdodlarimiz ekanligini asoslash va tadqiq etish shular jumlasidandir.

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda mustaqillikkacha bo'lgan davr manbalari ham muhimdir. Bular moddiy va yozma manbalardir. Tariximizning eng qadimgi davrlarini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalarga suyaniladi. Bu manbalar turli ko'rinishlarda bo'lib, ularga qadimgi ajdodlarimiz yashagan manzilgohlar, shahar xarobalari, mozor-qo'rg'onlar qoldiqlari, kundalik turmush va xo'jalikda ishlatiladigan buyumlar, mehnat, jangovar qurollar, turli-tuman ashyolar kiradi. Yozma manbalar esa eng qadimgi yozuvlar, bitiklar, kitoblardan iboratdir. Moddiy va yozma manbalar ma'lumotlarini solishtirib, qiyoslab tarixni talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish joizki, tarix- "tadqiq etish", "tekshirish", "voqealar haqida aniq hikoya qilish" ma'nolarini anglatib, insonlar haqida, ularning uzoq o'tmish davrlardan bizgacha etib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandir.

Vatanimiz tarixi ajdodlarimizning qadimgi davrlardan buyon bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini, ilk davlat shakllarining vujudga kelishi, xalqimizning millat sifatida shakllanishi, ma'lum davrlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lib qolganligini, uning ayanchli mashaqqatlarini, ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashi, jasorat ko'rsatgan qahramonlarini, xalqimizning ma'naviyati va ma'rifatini ko'tarishda jon fido qilgan o'g'lonlarini, qatag'on davri qurbonlari, nihoyat pirovardida xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik sharoitida milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyati qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratishi sohalarida faoliyatini va nihoyat O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilish tomon borganligini o'rgatadi.

## O'zbekiston tarixi fanining nazariy-metodologik asoslari

O'zbekiston tarixini yoritishda ilmiy nazariy-metodologik asoslarni o'rganish katta ahamiyatga egadir. Ular asosan quyidagilardan iborat:

1. Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil qilish, yoritishda ularga xolisona,

haqqoniy, ilmiy yondashuv asosiy metodologik tamoyildir. Bunda tahlil qilinayotgan har xil tarixiy voqea-hodisami xolis, haqqoniy voqea-hodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha yoritish ko'zda tutiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda, o'zaro aloqada, deb o'rganish lozimdir. Xolislik talab qiladigan qoidalar shundan iboratki, turli tarixiy davrlarda tarixiy-madaniy taraqqiyotni o'rganish jarayonida bo'lib o'tgan, yoki shu taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan barcha voqea-hodisalarni hech bir o'zgartirishlarsiz, qanday bo'lsa, o'sha holatda talqin va tahlil etish, tekshirish va xulosa chiqarib, yaxlit holga keltirish muhimdir.

**Dialektika** - bu birlik yagonalik yaxlitlik, bunda bo'ladigan hodisalar, voqeliklar umumiyligi va bir biri bilan o'zaro bog'lanishda, harakatda, va albatta taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi. Bo'layotgan har bir jarayonni boshqalari bilan, hodisalarni moslab bog'lab o'rganishdangina mazkur voqea-hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o'rnini to'g'ri aniqlashimiz mumkindir.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra haqiqatdan ham o'zbek xalqining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi jahon tarixi taraqqiyotining bir o'zagi, qismidir. Eng qadimgi davrlardan boshlab yaqin o'tmishga qadar O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Eron, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston kabi hududlar orasida yagona iqtisodiy, madaniy makon mavjud edi.

Uchinchi asosiy tamoyil tarixiylik bo'lib, har bir voqea-hodisaning tarixiy muhiti, nima uchun aynan shu paytda bo'lganligini, ko'rinishining shu shaklda sodir bo'lganligini, voqea-hodisaning rivojlanishida qaysi bosqichlardan o'tganligini, keyingi davrda u qanday holatga tushganligini bilish tarixiylik tamoyilining asosiy talabidir.

Tarixiylik uslubida xalqning o'tgan umriga, odamlarning bugungi davri va kelajagiga bo'lgan jarayonlarning uyg'unligini shakllantiradi. O'tgan davrni, o'tmishdoshlarimiz tarixini mukammal o'rgansak, anglasak, yangi davrni mukammal tushunamiz, kelajakni aniq tasavvur etamiz.

To'rtinchi tamoyil ijtimoiy yondashuv tarixiy davrni aholining barcha tabaqalarining manfaatlarini hisoblab xolisona o'rganishni talab etadi. Voqelikni alohidalab bir ijtimoiy tabaqa-kambag'allarni, yoki boylarning nuqtai-nazaridan turib tahlil etishimiz, o'rganishimiz, bir taraflama qarash bo'lib, bu tarixni haqqoniylikdan uzoqlashtiradi, noto'g'ri xulosalarga olib keladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda mamlakatimiz tarixini o'rganishda Vatan manfaati, milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, din, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini yoritishda sivilizatsion nuqtai-nazardan yondashmoq kerak.

Vatanimiz O'zbekiston tarixini yaratishda, yuqorida zikr etilgan metodologik tamoyillardan tashqari faktlar orqali taqqoslash, davrlashtirish va boshqa usullardan ham foydalanish zarur.

**O'zbekiston tarixini davrlashtirish.**

Vatanimiz tarixini mukammal o'rganish, tadqiq qilishda uni to'g'ri davrlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Sobiq ittifoq davrida ittifoqning ichidagi xalqlarning tarixi, jumladan vatanimiz tarixini besh davrga bo'ldilar.

- Ibtidoiy jamoa tuzumi davri.
- Quldorlik tuzumi davri.
- Feodalizm tuzumi davri.
- Kapitalizm tuzumi davri.
- Sotsializm va Kommunizm degan edi.

Buning maqsadi jamiyatning oxirida "Kommunizm" ga taqalishini ilgari surish va o'tkazishdan iborat edi. Shuning uchun ham XX asrning oxiriga kelib insoniyat bunday fikrlarni esidan chiqardi. Vatanimizning, o'zbek xalqining boy, serko'lam, betakror tarixi, uning o'ziga xos va mos tarixiy taraqqiyot davri mavjud bo'lib, uni tarixnavis olimlarimiz fikriga ko'ra quyidagi davrlarga bo'lish joiz.

1. Ibtidoiy jamiyat, Qadimgi davr noto'g'riligini XX asrda ko'plab xalqlar taqdirida sinab ko'rildi. Pirovardida bu fojiali oqibatlarga olib keldi
2. O'rta asrlar tarixi.
3. Chorizm bosqinchiligi davri.
4. Sovetlar istibdodi davri.
5. Milliy istiqlol davri.

***O'zbekiston tarixi davrlashtirish masalasi yuzasidan 7 ta davrga bo'linadi:***

1. Ibtidoiy to'da davri.
2. Urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri.
3. Ilk o'rta asrlar davri.
4. O'rta asrlar davri.
5. Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri.
6. Sovetlar davri.
7. Milliy istiqlol, demokratik va fuqarolik jamiyati qurish davri.

Taniqli olim akademik Ahmadali Asqarovning fikricha esa, O'zbekiston tarixi jahon tarixining tarkibiy qismidir. Bu zaminda yuz bergan tarixiy jarayonlarni jahon tarixidan ajratib o'rganish mumkin emas. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining mahsulidir. Har bir xalq er kurrasining qaysi mintaqasida yashamasin, taraqqiyotning barcha bosqichlarini u yoki bu darajada bosib o'tishi shart. Ammo, jamiyat rivojlanishi hamma erda birday kechmagan.

Jamiyatning notekis rivojlanish qonuniyati esa qadimgi zamonlarda ko'proq mintaqaning tabiiy-geografik va ekologik imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan. Jamiyat hayotida yuz beradigan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, O'rta Osiyo tarixining

rivojlanish darajasi va ana shu mintaqa tarixi taqozo etgan holatdan kelib chiqib, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixini davrlashtirish mumkin. Tadqiqotchi qiyosiy tahlillar hamda tarixiy jarayonlarni obyektiv aks ettiruvchi omillarga asoslanib O'zbekiston tarixining eng qadimgi davrdan bugungacha bo'lgan davrini ettita katta xronologik davrga bo'ladi. Ammo, olimning bu davrlashtirishi biroz ixchamlashtirishni talab etadi. Bizga qadar olib borilgan tadqiqotlarning qiyosiy tahlillari hamda mavjud adabiyotlarni o'rganish asosida O'zbekiston tarixini davrlashtirish quyidagi ko'rinishda taklif etiladi:

1. O'zbekiston tarixining eng qadimgi davri. Bu davrni o'z navbatida quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

a) O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi davri – bu davr moddiy madaniyat taraqqiyotiga qarab xronologik jihatdan 1 mln. – 40 ming yil avval, ya'ni ilk va o'rta paleolit davrlarini o'z ichiga oladi;

b) urug'chilik jamoasi davri–so'nggi paleolitdan boshlab urug'chilik, jamoalarining shakllanishi va mezolit, neolit, eneolit davrlarida ularning taraqqiy etishi (12-4 m.y.). Bu davr ijtimoiy boshqaruvning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan izohlanadi.

2. Ilk davlatchilikka o'tish va davlatchilikning rivojlanishi davri. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot nuqtayi nazaridan bu davr quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

a) O'rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishi hamda dastlabki davlatchilik tizimiga o'tish davri (mil avv. III- II ming yillikning birinchi yarmi);

b) ilk davlatlarning paydo bo'lishi hamda ma'muriy-hududiy boshqaruvining rivojlanish bosqichlari (mil avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi antik davri). Bu davr dastavval bronza, keyinroq esa temirning xo'jalik sohalariga jadallik bilan kirib kelishi natijasida mehnatning dastlabki ijtimoiy taqsimoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti, siyosiy birlashmalar, Qadimgi Baqtriya va Xorazm davlatining paydo bo'lishi, O'rta Osiyoning Ahamoniylar, Makedoniyalik Aleksandr, Salavkiylar kabi polietnik davlatlar tarkibida rivojlanishi, xalqaro va o'zaro madaniy-iqtisodiy aloqalarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

3. O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davri. Bu davr o'z navbatida quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

a) ilk o'rta asrlar;

b) rivojlangan o'rta asrlar;

d) so'nggi o'rta asrlar bosqichi.

Xronologik jihatdan V asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan bu davrning birinchi bosqichida O'rta Osiyoda er egaligi munosabatlari o'zgarib, mulkchilikning turli shakllari (xususiy mulk, jamoa mulki, vaqf) paydo bo'ldi, etnomadaniy jarayonlar jadallanib, mahalliy hokimiyatchilik davlat tizimining asosiga

aylandi.

Ikkinchi bosqichda markazlashgan davlatchilik an'analari kuchayib, O'rta Osiyoda islom dini keng yoyildi, ilm-fan va madaniyat yuqori darajada rivojlanib, bu sohada uyg'onish davri yuz berdi, etnik jihatdan xalqlarning shakllanishi nihoyasiga etdi, yer egaligi va mulkchilikning turli ko'rinishlari vujudga keldi.

Uchinchi bosqichda (XV asrdan boshlab) hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj olib, O'rta Osiyo hududlari xonliklarga bo'linib ketdi.

4. O'zbekistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar hukmronligi davri. Xronologik jihatdan XIX asrning o'rtalaridan 1991 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan bu davr chor Rossiyasi va sovet mustamlakachiligi davrilarga bo'linadi.

Birinchi bosqichda chorizm bosqinchiligi tufayli O'rta Osiyo Rossiyaning xom — ashyo bazasiga aylanib, bu hududlarga rus kapitali jadallik bilan kirib keldi, mahalliy ishlab chiqarish va hunarmandchilikka putur etdi, milliy-madaniy qadriyatlarga e'tibor berilmadi, natijada milliy ozodlik harakatlari avj olib, jadid namoyondalari rahnamoligida milliy ma'rifatparvarlik g'oyalari yoyildi. Ikkinchi bosqichda, dastavval milliy mustaqillik uchun qurolli va g'oyaviy kurashlar avj olgan bo'lsa-da, ular beayov bostirilib, jamiyat taraqqiyoti kommunistik mafkuraga bo'ysundirildi, mulkchilikda davlat monopoliyasi ustunlik qildi, «o'z taqdirini o'zi belgilaydigan xalqlar» va sovet respublikalari amalda «markaz» manfaatlariga bo'ysundirildi.

5. O'zbekistonning mustaqillik va milliy istiqlol davri. Mamlakatimiz tarixining mustaqillik davrini o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan o'zgarishlar va islohotlar, ularning samaradorligiga qarab belgilash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu nuqtayi nazardan milliy-mustaqillik davrini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin bo'ladi:

Birinchi bosqich 1991-2000-yillarni o'z ichiga olib, bu davr mustaqillikning mustahkam poydevori bunyod etilib, «O'zbek modeli» asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yo'l tutildi, O'zbekiston jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi, milliy istiqlol mafkurasi jamiyat hayotida keng kirib bordi.

Ikkinchi davri 2001-2010-yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich, «fan demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi».

2010-2016-yillarni o'z ichiga olgan uchinchi bosqichda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud huquqi va axborot sohalarini isloh qilish, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik institutlarini rivojlantirish, bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish davri bo'lib qoldi.

2016-yildan to bugungi kungacha davrni o'z ichiga olgan navbatdagi bosqichi mamlakatimizda hamma sohalarda yangilanishlar davri bo'lib, O'zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yilgan Harakatlar strategiyasi va taraqqiyot strategiyasida berilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish, jamiyatimizni barcha sohalarda isloh etish uning reyting salohiyatini ko'tarish jarayonlari bilan bog'liqdir. Bu bosqich tariximizda «Yangilanayotgan O'zbekiston – yangicha dunyoqarash» davri deb baholanmoqda.

### Tarixiy manbalar va ularning turlari, ahamiyati.

O'zbekiston tarixini o'rganishda asosan moddiy va yozma manbalardan foydalanamiz. Ularni davrlashtirish nuqtai nazaridan quyidagi manbalarga ajratish mumkin.

1. Eng qadimgi davrning arxeologik ashyolar yordamida;
2. "Avesto", Behistun yozuvlari, Yunon — Rim tarixchilarining asarlari asosida;
3. Ilk o'rta asrlarni Yunon — Rim, So'g'd, Xorazm va fors tili yozma manbalari asosida;
4. Mustamlakachilik davrini esa forsiy, turkiy, rus va xorijiy mamlakatlar ilmiy asarlari yordamida;
5. Mustaqillik davri esa Vatanimiz va xorijda chop etilgan O'zbekiston tarixiga oid asarlar yordamida yoritiladi.

Demak, qadimgi ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan mehnat qurollari, kundalik turmushda ishlatgan jihozlari, tanga pullar, harbiy qurol-yarog'lar, uy-joy xarobalari, qal'alar, shaharlar, qabrlar moddiy-tarixiy manbalar deb ataladi. Arxeologik ilmiy tadqiqotlar orqali olib borilgan izlanishlar natijasida topilgan moddiy topilmalar asosiy manbalar hisoblanadi.

Yozuv paydo bo'lishi bilan savodxon kishilar o'zi yashab turgan va borib ko'rgan mamlakatlarini, ularning turmush tarzi, madaniyati haqidagi fikrlarini daraxtlarning po'stlog'iga, toshga, teriga, qog'ozga yozib qoldirganlar. Voqea- hodisalar, xalqlarning hayoti haqida, erni meros qoldirish, in'om qilish, sotish, sotib olish yozma hujjatlar orqali va podsho, hokim, amir, beklarning yozma shakldagi qonun va farmonlari orqali amalga oshirilgan va saqlab qolingan. Bunday manbalar yozma manbalar deb ataladi.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi X-III asrlardagi hayotini o'rganishda "Avesto" kitobi qimmatli manba hisoblanadi, Gerodotning "Tarix", Ksenofontning "Yunoniston tarixi" asarlarida uchraydi. Xitoy yozma manbalaridan "Tarixiy yilnomalar", "Katta Xan tarixi" va boshqa manbalarda Turkiston tarixi haqida ma'lumotlar bor.

O'zbek xalqining tarixini anglash uchun "Shajarayi turk", "O'zbek xalqi etnografiyasi" asarlarini o'rganish muhimdir.

O'zbek xalqining IX-XIV asrlardagi tarixini o'rganishda "Fozil odamlar shahri", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Qutadg'u bilig", "Devoni lug'ati turk",

"Buxoro tarixi", "Temur tuzuklari", "To'rt ulus tarixi" kabi nodir manbalar muhimdir. Turli sulolalar tarixini yoritishga bag'ishlangan Shahobiddin an-Nasaviyning Siyrat as-Sulton Jaloliddin Manguberdi", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi", Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarlari qimmatli manba hisoblanadi.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutidagi qo'lyozmalar xazinasi muhimi hisoblanadi. Bu erda 40 mingdan ortiq qo'lyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosmalar kitoblar, 10 mingdan ortiq har tillarida yozilgan hujjatlar mavjud. Ana shu qo'lyozma hujjatlar milliy tariximizni yanada to'laroq ochishga ko'maklashishi, tariximiz sahifalaridagi "oq" va "qora" dog'larni barham topishiga yordamlashadi.

Hozirgi kunda tariximizni o'rganishda mustaqillik davrida tarixchi, etnograf olimlarimiz tomonidan yaratilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari muhim hamiyatga egadir.

**O'zbekiston tarixi fanining komil inson tarbiyasidagi o'rni va roli.**

Komil insonlarni, ya'ni har tomonlama kamol topgan, aql-idrokli, mustaqil fikrlaydigan, irodali va o'zini-o'zi anglagan shaxslarni tarbiyalashda «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fani katta ahamiyatga ega. Chunki, yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradigan, ularni milliy o'zligini tanishga, Vatanni sevishga bevosita o'rgatadigan, sodiq fuqarolarni tarbiyalaydigan fan tarix fanidir. «Aynan ana shunday o'z kuchiga va irodasiga ishongan, keng fikrlaydigan bilimli va madaniyatli yoshlarimiz har qanday buzg'unchi oqimlarga berilmasdan, hayotda o'z yo'lini topib olishi muqarrar» , - deb yozgan edi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoschisi I.A.Karimov.

Davlatning tarixi yosh avlodga xalqning o'tmishini, tarixini o'rgatib qolmasdan balki ularning vatanparvarligini, insonparvarligini, ma'naviy barkamollik jihatdan komillikka etishishlarida dastur-amaldir. Vatanimizni keyingi avlodlarga yanada obod, qudratli, har tomonlama rivojlangan holatda etkazish davrimizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi. Bu mas'uliyatli va sharafli vazifani ado etish yoshlarga, ularning ma'naviy barkamolligiga bog'liqdir.

"...Tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga albatta tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson". Insonda tarixiy xotira o'z Vatani tarixini, o'z xalqi, avlodlari hayotini o'rganish orqali shakllanadi. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday insonlarni yo'ldan urush, xar-xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonlarni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi" - deb uqtiradi I. A. Karimov.

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixini o'qitish barcha o'quv maskanlarida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston tarixida 2016-yildan boshlab juda katta O'zgarishlar boshlandi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida qator ishlar qilindi jumladan:

2021-yil 19-yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o'rgatish, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ta'kidlandi. Ushbu yig'ilishda – «Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur», – dedi Shavkat Mirziyoyev. Mutasaddilarga O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

## Texnologik usullar: «FSMU» texnologiyasi

- O'qituvchi har bir talabaga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa: O'zbekistonning eng yangi tarixi fani maqsad vazifalari haqida.

Mavzusi bo'yicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting

F - fikringizni bayon eting:

S - fikringizning bayoniga biron sabab ko'rsating

M - ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring

U - fikringizni umumlashtiring.

Talabalar o'z maqsadlariga erishishga bo'lgan ishonchini bayon etadilar.

Mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

## Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Eng yangi O'zbekiston tarixi fanining maqsadi nimalardan iborat?
2. Tarixiylik tamoyilining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
3. Tarixni tadqiq etishda xolislik tamoyilining ahamiyati nimada?
4. Ilmiylik tamoyili nimalarga asoslanadi?
5. Qadimgi va o'rta asrlarga oid qanday manbalar mavjud? Misollar keltiring.
6. Sovetlar davrida tariximiz qanday davrlashtirilgan?
7. O'zbekiston hududida ibtidoiy jamiyat bo'lganmi? Qaysi manbalarni bilasiz?
8. O'zbekiston hududida sun'iy sug'orish qaysi vaqtda boshlangan?
9. Xitoy manbalarining vatanimiz tarixini o'rganishda ahamiyati nimadan iborat?

10. Tariximizni o'rganishda va keyingi avlodlarga etkazishda tarixiy xotiraning ahamiyati?
11. "Tarix- xalq ma'naviyatining asosidir" iborasini qanday tushunasiz?
12. Sovetlar davrida tariximiz qanday davrlashtirilgan?

***Mustaqil ta'lim uchun vazifalar***

1. Taqdim etilgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining maqsadi va vazifalari mavzusida esse tayyorlang va taqdimot qiling.
3. Mavzuga oid maxsus kompleks ish tayyorlang, 15 blitst savol, 10 test va 12 so'zli krossvorddan iborat.
4. Mavzu bo'yicha mustaqil ish tayyorlang.
5. Rasmda (diagrammada) vizualizatsiya usulidan foydalanib, "O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining maqsadi va vazifalari" mavzusida taqdim qiling.
6. "Tarix, Mustaqillik, Suverenitet" so'zini izohlang. Seminarda aqliy hujum metodi vositasida tahlil qiling.

## 2- mavzu. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo'li.

**Reja:**

1. **"Qayta qurish" siyosati va uning mohiyati. "Paxta ishi".**
2. **90-yillar boshida O'zbekistondagi iqtisodiy inqiroz. Farg'ona voqealari**
3. **Mustaqillikka qo'yilgan ilk qadamlar.**
4. **O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi e'lon qilinishi va uning olamshumul ahamiyati. "Mustaqillik" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.**
5. **O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li: "O'zbek modeli".**

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga mustaqillik qanday qilib qo'lga kiritilganligini, u xalqimizning asrlar davomidagi asriy orzusi ekanligini, har birimiz uning qadriga etishimiz va mustaqillikni mustahkamlashga o'z hissamizni qo'shishimiz lozimligini tushuntirish.

**Tayanch tushunchalar:** "Qayta qurish", Kadrlar desanti, "Paxta ishi", "O'zbek ishi", tanazzul, qatag'on, parchalanish, Davlat tili to'g'risidagi qonun, suverenitet, Mustaqillik Deklaratsiyasi, mustaqillik, saylov, referendum, prezidentlik boshqaruvi.

### "Qayta qurish" siyosati va uning mohiyati.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar bo'lishiga umidning so'nishi 80 - yillarning boshlarida ayniqsa kuchaydi. Buning oqibatida, bir tomondan, ma'muriy-siyosiy biqiqlik kuchaygan bo'lsa, boshqa tomondan, jamiyat a'zolari mehnat intizomining pasayishi, ijtimoiy loqaydlik, befarqlik kuchayib bordi. Jahonning rivojlangan va demokratiya tarkib topgan mamlakatlaridagi ijobiy o'zgarishlar, demokratiya va inson huquqlarini himoya qilishdagi olg'a siljishlar, xalq turmushi sharoitidagi yangi imkoniyatlar sovet jamiyatidan nafratlanish, jiddiy tub o'zgarishlarni amalga oshirishga moyillik hissini paydo qildi.

1985 yil aprel plenumida SSSR MK Bosh kotibi M.S.Gorbachyov tomonidan Ittifoqda "qayta qurish" siyosati e'lon qildi. Qayta qurishning asosiy mohiyati jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida to'planib qolgan inqirozli holatlarni bartaraf etish rejasidagi siyosat edi. Aslida qayta qurishni amalga oshirish ikki bosqichga bo'lingan edi.

Ulardan birinchisi 1985 - 1987 yillar bo'lib, ikkinchi bosqichi 1987 - 1990 yillarni o'z ichiga olgan. Biroq qayta qurish o'zining birinchi bosqichidayoq inqirozga yuz tutdi. Buning sabablari quyidagilardan iborat edi:

1. Qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan aniq dasturi yo'q edi.

SamDTU
axborot-resurs markazi
320154

2. Mamlakatdagi partokratik rahbariyat "nomenklatura"ni saqlab qolishdan manfaatdor edi, chunki mamlakatni boshqarish ma'muriy-buyruqbozlik usuli orqali oson kechardi.

3. M.Gorbachyov g'oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkin emasdi.

Sotsializmga xos mulkiy munosabatlar, ijtimoiy sohadagi siyosat, yakka partiyaviy rahbarlik, mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya bilan kelisha olmas edi. Bir so'z bilan aytganda, qayta qurish mustaqillikka intilishni yanada tezlashtiruvchi omil bo'ldi.

**"Paxta ishi"ning mazmun mohiyati.**

"O'zbek ishi, - deb yozadi O'tkir Hoshimov o'tgan asrning 30-50-yillardagi qatag'onlarning mantiqiy davomidir. Sovet siyosati har 10-15-yilda kalla olib turmasa ko'ngli joyiga tushmagan. To'g'ri, o'sha paytlar O'zbekistonda qo'shib yozishlar, poraxo'rliklar bo'lgan. Buni inkor qilmaymiz. Ammo bunday harakatlar butun sobiq Ittifoqda avj olgan edi. Unday bo'lsa, nima uchun markaz ayni O'zbekistonni tanladi, degan savol tug'iladi. Buning sababi oddiy. Biz anchagina loqaydmiz, darrov qovusha qolmaymiz".

Ha, juda adolatli va to'g'ri aytilgan gaplar. Aslida "O'zbek ishi" degani nima o'zi va qachon paydo bo'ldi. Bu "ish" aslida 80-yillarda O'zbekiston Davlat Havfsizlik Qo'mitasi (DHQ) ning raisi bo'lib ishlagan Melkumov (millati arman) bilan O'zbekiston KP MQning birinchi kotibi Sh.Rashidov o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklardan boshlangan. O'sha kezlarda Buxoro viloyati BXSS boshlig'i Muzaffarov va Buxoro shahar savdo idorasining direktori Qudratovlarning poraxo'rligiga taalluqli ma'lumotlar DXQda bo'lgan. Bu shaxslar Buxoro viloyati firqa qo'mitasining birinchi kotibi A.Karimov himoyasida bo'lgan va unga "oshirib" turishgan. A.Karimov esa o'z navbatida Sh.Rashidov bilan yaqin aloqada bo'lgan. Shu bois Melkumov va uning gumashtalari o'z oldilariga Muzaffarov va Qudratovni fosh qilish orqali A.Karimovga chiqish va so'ngra u orqali Sh.Rashidovni "nishonga" olishni mo'ljallab harakat qilganlar. 1983-yilda Buxoroda ilgaridan o'ylab rejalashtirilgan va amalga oshirilgan "operatsiya" tufayli Muzaffarov va Qudratovlar qamoqqa olindilar. Ular xalqqa ma'lum bo'lgan birinchi o'zbek millionerlari bo'lib chiqdi. Bu ish darhol Moskvaga oshirildi va markazda ana shu tariqa "o'zbek ishi" paydo bo'ldi.

SSSR Prokuraturasining tergov qismi boshlig'i G.P.Karakozov darhol tergov guruhi tuzib, unga boshqa bir armani - T.X.Gdlyanni rahbar qilib tayinladi. Tergovchilar guruhiga kiritilgan vakillarining deyarlik hammasi Gdlyan bilan yaqin va hamtovoq bo'lgan shaxslar edi.

O'zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. Bu "kadrlar desanti" tarkibida o'zbek xalqi, turkiylar va musulmonlarga qalbida nafrat va shovinizm g'oyalari burqsib turgan jallod-fashistlar ko'p edi. Bular Anishev, Ogaryuk, Klepikov, Satin, Nesterenko, Buturlin, O.Gaydanov, Ye.Didorenko, Lyubimov, Ivanov, Galkin, Kartashyan va boshqalardir. "Paxta ishi" bo'yicha juda ko'p guruhlar tashkil qilindi. "Barcha Konstitutsiyaga ko'ra O'zbekiston suveren davlat sanalsa ham uning prokurori, respublika rahbariyati bilan maslahatlashilmagan holda SSSR Bosh prokurori tomonidan tayinlanardi".

Qisqa muddat ichida O'zbekiston SSR prokuraturasining eng yuqori, eng muhim lavozimlaridan tortib, oblast, rayon prokurorlarigacha Markazdan doimiy ishlashga yuborilgan vakillar bilan almashtirildi. O'zbekistonga tashlangan bu «sotsialistik desant»ning soni esa yuzdan ortiq edi.

1984-yilda O'zbekiston SSR prokurori, uning muovinlaridan uchtasi, eng katta boshqarmalarning boshliqlari lavozimlariga Markazdan kelgan odamlar qo'yildi. Bu bilan cheklanilmasdan, asta-sekin oblast darajasidagi prokurorlar - Buxoro oblasti prokurori (Matyushov G.N) Samarqand oblasti prokurori (Yeremenko V.I.), Xorazm oblasti prokurori (Titarenko A.D.), Navoiy oblasti prokurori (Suxarev A.P.) Surxandaryo oblasti prokurori (Jetkov V.M), Qoraqalpog'iston ASSR prokurori (Donsov V.V.) va Toshkent shahar prokurori (Fillipenkov G.P) ham Moskva tomonidan yuborildi. Keyingi bosqichda esa rayon prokurorlari lavozimi ham «mehmonlar» uchun bo'shatildi.

Ana shunday "mehmonlar" Respublika Ichki ishlariga ham joylashtiriladi. O'sha paytdagi Ichki ishlar vazirining o'rinbosari general G'afur Rahimovnnig dalillariga ko'ra, vazirlik tarkibidagi 27 boshqarma va bo'limdan bor-yo'g'i ikkitasinigina o'zbek millatiga mansub kishilar boshqargan. U ham bo'lsa, xo'jalik va tibbiyot boshqarmalari edi .

Mahalliy xalqning "xarakter va psixologiyasi"ni yaxshi bilganligi uchun bu guruhlarga tub xalqlarning prokurorlari, tergovchilarning etakchi qilib, ularga "yaxshi konsultatsiya"lar berganlar. Yuqoridan "maslahat va konsultatsiya" olgan guruhning tarkibi ishga tushib ketdilar. Shu yillarda paxta, chorva va boshqa sohalar bo'yicha qo'shib yozishlarning davlat rejalaridan sun'iy ravishda bajarish usuli bo'libgina qolmay, million so'mlab davlat va jamoat mablag'larini suiste'mol qilish va talon-taroj etish bilan bog'liq bo'lib, hamma erda poraxo'rlik avjiga mingan edi.

"O'zbeklar ishi" ayni quturgan va avjiga chiqqan paytda O'zKP MQning birinchi kotibi I.Usmonxo'jayev, yozuvchilar bilan uchrashuvda respublikada qo'shib yozish va poraxo'rlik avj olib ketgani tufayli yigirma uch ming kishi qamoqqa olinganini aytgan edi. Shu damlarda Kompartiya fidoyisi o'zining ham taqdiri yaqin kelajakda ne ahvollarga tushishini albatta tasavvur ham qila olmagan, albatta. Chunki

I.Usmonxo'jayev qo'mitaning so'zsiz itotkor qo'g'irchoq rahbari sifatida O'zKP MQning XV plenumida so'zlab "1986-yilda rahbar xodimlardan salkam 750 kishi, shu jumladan: 8 obkom sekretari, shahar, rayon partiya komitetlarining 10 sekretari, shahar rayon partiya komitetlarining 10 sekretari, shahar va rayon ijroiya komitetlarining 40 raisi, ministrliklar va idoralarning 18 rahbari..."ni almashtirganligi bilan ko'krak kergan edi. Xullas necha ming odam qamoqqa olinganligidan qat'i nazar o'zbek xalqi boshiga 80-yillarda ommaviy kulfat tushgan edi. Gdlyan va Ivanovlar guruhi O'zbekistonda bilgan va bilmagan barcha noma'qulchiliklarni qildilar. 70-80-yillarda O'zbekistonda Kompartiya va sovetlar hukumatining I.Usmonxo'jayev, Xudoyberdiev, Aytmurotov, Salimov, R.Abdullayeva, Tursunov, Musaxonov, Yahyoyev, Norov, Sattorov, B.Rahimov. A.Karimov, X.Norbo'tayev singari rahbarlari qamoqxonalarda mislsiz qiynoq va azoblarga solindilar.

Insoniylik qiyofasini yo'qotgan Gdlyan boshliq vahshiylar guruhi mahbuslarni so'roq qilish davomida hatto fashistlar ham etti uxlab tushiga kirmagan dahshatli, eng qaltis va ta'sirli usullarni ishga solganlar: "Hozir bolalaringni qamoqqa tiqamiz, retsidivistlar xotiningni zo'rlaydi, qizingni badnom qiladi, sen esa eshikdan tomosha qilib turasan" kabi. Yaxshisi mahbuslarning ba'zi bir deganlariga e'tibor qarataylik. Sobiq militsiya general-mayori (u Nijniy Tagil qamoqxonasida saqlangan) Xushvaqt Norbo'tayevning: "Hech natija chiqmaganidan keyin meni 3-hibsxonaga - o'ta xavfli jinoyatchi Sayfulin Shavkat, muttaham G'afurov Oqil (laqabi "Doktor"), qartaboz Igorlar ichiga qo'shib qo'yishdi. Odamiy qiyofani yo'qotgan bu unsurlar odam bolasi bardosh bera olmaydigan azob-uqubatli usullarni o'ylab topishardi, bu haqorat, kaltaklashlar, hatto fashistlar o'ylab topmagan odamga o'z axlatini edirish, erkaklik nomusiga zo'rlik qilish, og'zingdagi ovqatni tortib olish... Kimga nola qilasan, kimdan yordam so'raysan, xudodan boshqa. Bu aytganlarimga, ehtimol, ishonishmas, lekin baribir hammasi rost, hammasi shunday bo'lgan, 90 yoshga kirgan otam bolalarim haqqi-hurmati, hammasi rost...".

Yana bir kuni Gdlyan ovi baroridan kelgan yirtqichdek xursand bo'lib, ikki qo'lini ishqalar ekan: "Bilishimcha qizing juda ketvorgan emish, Qarshilik bezorilarga "hadya" etsam mendan xursand bo'lishar-a, nima deysan" dedi. Bunday tahqirlarga qanday ota bardosh bera oladi!" . Birgina Inomjon Buzrukovichning ishi yuzasidan uning qarindosh-urug'laridan 23 kishi qamoqqa olingan. U bunday deydi: "Urishganda mayli edi. Lekin, qarindosh-urug', xotin, bola-chaqaga azob berishsa qiyin bo'lar ekan".

Inomjon Usmonxo'jayev sovetlar sudlov organlari ishining naqadar chirkin, adolatsiz va dahshatli ekanligini fosh etib, quyidagilarni yozadi: "Tergov ham, sud ham nohaqlikdan iborat bo'ldi. Odam qiyofasidagi vahshiy tergovchilar tirik jonni emas, balki temirni ham eritishga va singdirishga qodir ekanliklarini o'z boshimdan

kechirdim. Men mana shunda birinchi bor sovet tuzumi naqadar aldoqchi ekanligini, uning tergov organlari o'z muddaosi uchun har qanday vahshiylik ham qilishi mumkinligini his qildim. His qildim-u, butun umr mana shu tuzum, mana shu jamiyat, mana shu partiya uchun e'tiqod qo'yganimga, bor hayotimni shu yo'lda baxshida qilganimga achinib o'kinib-o'kinib yig'ladim. Kaltakdan bir joyingiz sinsa, buning azobi o'tib ketadi. Lekin bir umrlik e'tiqodingiz sinsa, bunga chidab bo'lmas ekan... Ular bilan uchrashib suhbatdosh bo'lmagan odam buni tasavvur eta olmaydi".

Mahbuslarni tergov chog'ida ko'z ko'rib quloq eshitmagan qiynoq usullariga solish va vahshiyliklar qilishda SSSR prokuraturasining mas'ul xodimi Viktor Ilyuxinning yozishicha Kardashyan va Pirsxalava kabi tergovchilariga teng keladigani bo'lmagan. Pirsxalava ayniqsa dahshatli bo'lgan ekan. U Gdlyanning eng suyukli shogirdi bo'lgan va qilgan "xizmatlari" evaziga uning yordamida amal pillapoyasidan shiddat bilan ko'tarilib borgan. Ammo SSSR prokuraturasi "o'zbeklar ishi" masalasini qaytadan ko'rib, Pirsxalavani qamoqqa olish haqida hukm chiqarganida Gurjistondan xat va telegrammalar yog'ilib ketgan. Hatto Gdlyan va Pirsxalavalarni himoya qiluvchi maxsus guruhlar tuzilgan. Oxir-oqibatda Gruziya prokurori ham SSSR Prokuraturasiga norozilik maktubi yo'llagan. Xatda prokuraturada xodimlarning majlisi bo'lganligi va bu majlisda quyidagi qaror qabul qilinganligi aytilgan edi:

1. "SSSR Bosh Prokurori oldiga SSSR Bosh Prokurori o'rinbosari I.I.Abramovni va boshqarma boshlig'i V.I.Ilyuxinni Gruziya SSR Prokuraturasi jamoasi bilan uchrashish uchun xizmat safariga yuborish masalasi qo'yilsin.

2. K.A.Pirsxalava zudlik bilan qamoqdan ozod qilinsin, unga nisbatan qilinayotgan jinoiy ta'qiblar to'xtatilsin.

3. SSSR Prokuraturasi kollegiyasidan Gruziya SSR Prokuraturasining ushbu talablarini muhokama etish so'ralsin. Bunda keltirilgan talablarning rad etilishi respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni jiddiylashtiribgina qolmasdan, balki Gruziya SSR Prokuraturasi jamoasi yig'ilishida ta'kidlanganidek, bu hol respublika huquqni himoya qilish organlari tomonidan SSSR Prokuraturasi rahbarligiga qarshi bir qator norozilik harakatlarining boshlanishiga sabab bo'lishi ham nazarda tutilsin".

V.Ilyuxin ushbu ma'lumotni keltirar ekan, qonuniy va haqli savolni qo'yadi. Gurji xalq bo'lganida o'zbek xalqi xalq emasmi? Nima sababdan o'n minglab, o'ttiz, qirq minglab o'zbekni qamoqqa olishsalar-da, bu xalqning nafasi chiqmaydi? Buning sababi shundaki, sovetlar saltanati yillarida o'zbeklarda millat, milliy ong, milliy vijdon, milliy birlik tushunchalari so'nib ketdi. "Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun" degan tushunchalardan begonalashdik, "o'zingni bil o'zgani qo'y" asosiy shiorimiz bo'ldi. Faqat jig'ildonni, o'z cho'ntagimizni o'ylaydigan bo'lib qoldik. O'zbekiston hukumatchi, fuqarolarning insoniy haq-huquqlarini himoya qilish lozim bo'lgan davlat organlari, ularning rahbarlarichi? Nega ular ham Gurjiston

Prokuraturasi xodimlari singari o'z fuqarolari to'g'risida o'ylamadilar. Albatta O'zbekiston rahbarlari ham o'yladilar. Faqat ular o'z shaxsiy manfaatlarini o'yladilar, o'zlarining mansablari va lavozimlaridan ketib qolishdan qo'rqib, Gdlyan va Ivanovlar singari gazandalarning ko'nglini olishni o'yladilar. Ularga baribir edi. Necha ming odam hibsga olinib, qirilib qatag'on qilinsa-da, ularning o'zlari mansab kursisida omon qolsalar bo'lgani. Chunki rahbar ham o'z xalqiga munosib bo'ladi. "Qozi muttaham bo'lsa, o'g'ri peshgir bo'ladi", degan xalq maqoli juda to'g'ri aytilgan. "Аргументы и факты" haftanomasining 1988-yil 30-sentyabr sonida bosilgan O'zbekiston KP MQning birinchi kotibi R.N.Nishonovning quyidagi qarorini o'qigan har bir kimsa yuqorida qo'yilgan qonuniy savollarga aniq javob topa oladi.

O'zbekiston taqdiri, millat va xalq taqdiri uning qo'liga ishonib topshirilgan mamlakatning birinchi odami nimalar bilan "faxrlangan" ekan? "Respublikada jamiyat hayotining barcha jabhalarini sog'lomlashtirish uchun turg'unlik davri merosiga qarshi qattiq, og'ir kurash ketmoqda. KPSS Markaziy Komiteti keyingi to'rt yilda O'zbekistonga yuzlab tajribali kadrlar yubordi... Avvalo respublikaga shunday ko'lamli yordam keyingi 30 yil mobaynida birinchi marta amalga oshirilganini ta'kidlamoqchiman. Yangi xodimlarning kelishi bizning chinakam baxtimiz bo'ldi... Respublikada so'nggi to'rt yil ichida 58 ming mas'ul xodim vazifasidan bo'shatildi. Men o'zim shaxsan Telman Xoreonovich Gdlyan gruppasining ishini g'oyatda ijobiy baholayman. Biz SSSR Prokuraturasining xodimlari bilan qo'lni qo'lga berib ish olib bormoqdamiz, ular Respublikada adolat o'rnatish, Rashidov atrofidagi yaqin odamlarni javobgarlikka tortishda jon kuydirib ishlamoqdalar. Keskin kurash ketmoqda. Shuni ro'y-rost aytishim kerakki, Gdlyan gruppasi respublika partiya organlari tomonidan qattiq qo'llab-quvvatlanmaganida va har tomonlama yordam ko'rsatmaganida edi, ular bu qadar samarali ishlay olmasdilar, albatta".

Bu misol "O'zbeklar ishi" Moskvaning topshirig'i va ko'rgazmasi bilan amalga oshirilgan bo'lsada, uning asosiy jaholat izi va o'zagi O'zbekistonning o'zida bo'lganligini aniq isbotladi.

"O'zbeklar ishi" kampaniyasi davrida O'zbekistonda xalqni talab olib ketilgan summa miqdori to'g'risida ham turlicha raqamlar tilga olingan. Jumladan Gdlyanning o'zi O'zbekistondan 140 million so'm topdik, deb maqtangan. Keyinchalik "100" raqami noma'lum sabablarga ko'ra 40 millionga tushirilgan. Biroq bu pullar sinchiklab tekshirilganda xalqdan o'marilgan pul atigi 15 million so'm chiqqan, xolos. Qolgan pullar O'zbekistonda "samarali" ishlaganlarning o'pqonlariga tushib ketgan bo'lsa ne ajab? 80-yillarda "desantchilar guruhi" O'zbekistonda "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" bahonasida ijtimoiy hayotning deyarlik barcha sohalariga o'z burunlarini tiqib "poklik" va "adolat" o'rnatmoqchi bo'ldilar. Hatto ular O'zbekiston fani rivojiga ham "munosib hissa" qo'shganlar. Akademik Vosil Kobulov ma'lumotlariga qaraganda

O'zbekiston birinchi rahbarlarining yo'l qo'yib berganligidan foydalangan «desantchilar» respublika Markaziy Qo'mitasida «pinhona kabinet» tuzib olgan edilar va shu kabinet tavsiyasi bilan FAning «Kibernetika birlashmasi»ni 80-yillarda tekshiraverib ilma-teshik qilib yubordilar. Tekshirish uchun esa birlashmada «iqtisodiy samara», «qoloq loyiha» va «yemakxona» (kormushka) kabi masalalar asos qilib olindi. Birinchi va ikkinchi masalalardan ish chiqmadi. «yemakxona»ning asosi ham topildi. Bu tekshirish boshlanganga qadar «Kibernetika birlashmasi»da 628 kishining doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilganliklari va ular aksariyatining erli millat vakillari bo'lganida edi. Shovinist Anishyev bilan Ogaryok akademik V.Kobulovning bunday «shakkokligi» uchun uning «ko'zini ochib» qo'ymoqchi bo'lganlar.

Qatag'onlik yillarida O'zbekistonda sodir etilgan bunday dahshatli yovuzliklar, adolatsizlik va bedodliklarni o'z ko'zi bilan ko'rib, unga guvoh bo'lgan jurnalist va publitsist Komil Holmuhammad faryod soladi, qalamidan o't chaqnab mamlakatda bo'layotgan voqealarga o'z munosabatini izhor etib yozadi: "tarixchilar o'n yillardan keyin 1980-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston jumhuriyatida yana 30-50-yillarning sovuq dahshatli qora ko'lankasi kezib yurganligini jur'at etib yozishar, lekin shu narsa aniqki, 1983-yilning sentyabridan O'zbekistonda ish boshlagan va haq-huquqsiz vakolat bilan SSSR Bosh Prokurori nomidan kelgan Gdlyan va Ivanovlar o'zbek xalqi farzandlarini, milliy kadrlarimizni qirib tashlashni asosiy maqsad qilib olishgan. Xo'sh, butun bir xalqning taqdirini belgilashga ularga kim bunchalik huquq berdi. Axir, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi "mustaqil suveren" respublikami o'zi? Ha, hamma gap, balo va fojia yolg'onchi Konstitutsiyada O'zbekistonning mustaqil, suveren respublika, amalda esa u ilgarigidek Rossiyaning hech qanday huquqqa ega bo'lmagan mustamlaka o'lkasi bo'lib qolayotganligida edi. Bu nohaq berilgan qurbonlar, ona xalqimizning gunohsiz farzandlari boshlari uzra o'ynagan azob va jahannam gurzilari uchun tarix oldida, Allohu Karim oldida kimlardir ertadir-kechdir javob berishlari kerak-ku. O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov: "O'zbekiston jamoatchiligi o'zining eng yaqin tarixidagi Gorbachyov, Ligachyov komandasi xalqni jilovda tutib turish, uning o'sib kelayotgan milliy va siyosiy ongini bo'g'ish niyatida "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" deb atalmish tuhmatlarni to'qib chiqargan, biz o'zbeklarga turli-tuman sharmandali tamg'alar yopishtirilgan fojiali sahifalarni hech qachon unutmaydi", degan edi. Xullas, ona tariximiz o'tmishining sovetlar saltanati davri, xususan 80-yillardagi qatag'onlik yillari dardli, alam va motamsaro voqealarga to'la xalqimizning millat sifatida qaddi bukilgan, xo'rlangan va oyoqosti qilingan davridir. Kelajakdan umidi bo'lgan inson va millat sifatida yashayman degan avlodlarimiz tariximizning yaqin o'tmishdagi achchiq saboqlaridan hayotiy xulosalar chiqarmoqlari ham qarz ham farzdir.

**O'zbekistondagi ekologik vaziyat.** Mustamlakachilik siyosati, boylik orqasidan quvish, ishlab chiqarishning ekstensiv yo'ldan rivojlantirilishi, paxta yakkahokimligi, turli xildagi ximiyaviy zaharli moddalarning ishlab chiqarilishi va ularning qishloq xo'jaligida haddan ziyod ishlatilishi mamlakatimizda ayniqsa 80-yillarda halokatli tus olgan ekologik buhronni keltirib chiqardi. Nafaqat O'zbekistonda, balki butun Turkiston o'lkasida ekologik qabohatning dastlabki tamal toshini V.I.Lenin qo'ygan edi. Biz bu erda 1918-yil, 18-mayda V.I.Lenin imzolagan RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining "Turkistonda sug'orish ishlariga 50 million so'm mablag' ajratish to'g'risidagi" dekretini nazarda tutmoqdamiz. Aslida shu pul berilmagan edi. "Inqilob dohiysi" bu ajratilgan summani Mirzacho'l erlarini o'zlashtirishga sarflashni nazarda tutib, o'tgan asrning 70-yillarda bu hududlarni "ilmiy tadqiqot" qilgan rus olimi N.F.Ulyanov, P.P.Semyonov-Tyanshanskiy xulosalariga suyangan. V.I.Lenin boshlagan bu "tashabbus"ni Sovetlar hukumati Kommunistik firqa rahnamoligida rivojlantirdi. "SSSRda paxta mustaqilligi uchun kurash" amalda O'zbekiston xalq xo'jaligining ekstensiv yo'l bilan bir tomonlama rivojlanishining bosh omili bo'ldi va turg'unlik yillarida ekologik buhronni kuchaytirdi. Ayni paytda Markaziy Osiyo sharoitidagi tog' relyefi, dasht zonalarining yaqinligi, yuqori quyosh harorati va boshqa shuning singari geografik va iqlimiy xususiyatlar yildan yilga ortib bordi. Urbanizatsiya jarayoni kuchayib sug'orma qishloq xo'jalik ekinlari maydonlari kengaydi, kommunikatsiyalar o'tkazildi, o'rmonlar kesib yuborildi, suv resurslaridan oqilona foydalanilmadi, erosti qazilma boyliklari ochiq usulda qazib olindi. Bu ishlar amalda tabiatga nisbatan shafqatsizlik, zug'um edi. Tabiat ham albatta insondan o'ch olishi tabiiy bir holdir. O'zbekiston ekologiyasining buzilishini quyidagi tabiiy holatlar belgilaydi:

*Birinchidan,* atmosfera havosining haddan tashqari bulg'anayotganligidandir. O'zbekistondagi barcha hududlarda havoning ifloslanish darajasi sanitariya talablari darajasidan ancha yomonlashdi. Bu ayniqsa O'zbekistonning sanoat markazlarida xavfli tus oldi. Jumladan olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda havoga chiqarilayotgan zaharli gazlar Olmaliq shahri aholisining har biriga 1374 kg, Farg'onada 676, Navoiyda 606, Angrenda 509 kilogrammdan to'g'ri kelar ekan. Andijon, Guliston, Qo'qon, Qarshi, Toshkent, Chirchiq va boshqa shaharlar havosi eng ifloslangan shaharlardan hisoblanadi. 1980-1990-yilda mamlakat aholisining hammasiga hisoblaganda zaharli moddalar chiqiti 203 kilogrammni tashkil etgan. Bu zaharli moddalarning asosiy manbalari sanoat korxonalari va transport vositalaridir.

Birgina Toshkent shahri transporti yiliga 360 ming tonnadan ortiq turli chiqindi gazlarni atrofga purkadi. Ular tarkibida 100 xildan ortiq zaharli moddalar mavjud edi. Zaharlanish faqat shaharlargagina xos bo'lmasdan O'zbekiston qishloqlarida ham xavfli tus oldi. Ayniqsa qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan zaharli ximikatlar tabiatni

xarob qildi. 1987-1990-yillarda dehqonchilik maydonlarida pestitsidlardan foydalanish har gektar erga 19,5-24 kilogrammdan bo'lgani holda 79-84 ming tonnani tashkil etdi. Jami bo'lib qishloq xo'jaligida 70 xilga yaqin turli zaharli kimyoviy moddalar ishlatildi.

Ahvol shu darajada fojiali tus oldiki, g'o'zalarni defoliatsiya qilish bahonasida ming-ming tonnalab zaharli ximikatlarni odamlar boshi uzra samolyotlarda sepildi. Bu har qanday fashizmdan ham dahshatliroq fojia edi.

O'zbekiston ekologiyasi buzilishining ikkinchi sababi bu suvga bo'lgan munosabat bilan bog'liqdir. Sovetlar hukumatining ochko'zligi, Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon daryolari suvlaridan hisob-kitobsiz foydalanish oxir-oqibatda Orol fojiasini keltirib chiqardi. Ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryoga keyingi 20-30-yil davomida kollektor-zovur, sanoat va kommunal xo'jaliklarning tashlandiq va zaharlangan suvlarning oqizishlari bu fojiani yanada kuchaytirdi. Shu davrda Orolning suv hajmi 60 foizdan ortiq kamaydi, uning quruqlikka aylangan sathi 2 million gektarni tashkil etadi.

Havoga, erga sochilayotgan tonnalab qum-tuzlar Orolbo'yi atrofida ham jonli va ham jonsiz tabiatni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Aholi dengiz atroflaridagi o'z makonlarini tashlab ketishga majbur bO'ldilar. Masalan, Mo'ynoq tumanida aholi 50-yillarga nisbatan ikki barobar kamaygan. Orol fojiasi tufayli o'simlik va hayvonot dunyosi ham halokat yoqasiga kelib qoldi. 1970-yillardan keyingi davrda faqat Amudaryo mansabida qamishzorlar maydoni 7 barobar kamaydi, 50 dan ortiq ko'l qurib bitdi.

Ekologik qabohatning uchinchi sababi tuproq tarkibining o'zgarishi bo'ldi. Tuproq tarkibining o'zgarishiga hisob-kitobsiz ishlatilgan mineral o'g'itlarning halokatli ta'siri ham katta bo'ldi. Chunki mutaxassis olimlarning xulosalariga ko'ra fosfor o'g'iti bilan birgalikda tuproqqa ftor, uran, toriy, og'ir metall tuzlar ham o'tar ekan. Ekologiya buzilishining to'rtinchi sababi, respublika hayvonot va nabotot olamining o'zgarishi bo'ldi. O'zbekistonda yovvoyi hayvonlarning - 99, parrandalarning - 410, baliqlarning - 79 turi mavjud. 1990-yilga kelib 32 hayvon, 31 parranda, 5 baliq respublika "Qizil kitobi"ga kiritilgan. "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simliklarning soni esa 163 taga etdi.

Xotin-qizlarda kamqonlik kasalligi avjiga mindi, bolalar o'limi ko'paydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat og'ir bo'lgan mintaqalar - Orolbo'yi, Toshkent viloyati, ayniqsa Angren, Olmaliq, Chirchiq va Toshkent shahrida, Farg'ona vodiysining ko'pgina shaharlarida turli kasalliklarga chalinish yuqori darajadadir. "Orol-88" ekspeditsiyasi a'zolarining bergan ma'lumotlariga qaraganda Qoraqalpog'istonning Bo'zatov tumanida har 1000 go'dakdan 260 tasi nobud bo'lgan.

Xullas, 90-yillarda mamlakat boshiga tushgan ekologik qabohat uzoq davom etishi mumkin emas edi. Vujudga kelgan og'ir vaziyat vanihoyat ijtimoiy-adolatli ekologik siyosat yuritishni talab qilayotgan edi.

**90- yillar boshida O'zbekistondagi iqtisodiy inqiroz. Farg'ona voqealari.** Sovet mustamlakachiligi istibdodi, milliy adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik va milliy istiqlol uchun olib borilgan kurashning eng yuksak cho'qqisi 1989-yilning yoz oylarida Farg'onada boshlangan qonli fojialar bo'ldi. Dastlab Farg'onada boshlanib, so'ngra O'zbekistonning boshqa shaharlariga ham keng tarqalgan to'qnashuv qizil saltanat mustamlakachiligi zulmining mahsuli edi.

Bu qo'zg'olon natijasida qancha odam qurbon bo'lganligi va aziyat chekkanligi to'g'risida turlicha ma'lumotlar berilgan. Manbalarga qaraganda: "Nohaq fitna natijasida Farg'onaning o'zida 100 dan oshiq kishi vafot etgan. Ming kishida tan jarohati". Bu darajada katta fojiaga olib kelgan Farg'ona isyonining bosh sababi nimada? - degan qonuniy savol tug'iladi. Bu haqda Ittifoqning markaziy matbuot organlari va O'zbekistondagi juda ko'plab gazeta va jurnallarda har xil xulosalar bildirildi. Kimdir uni o'zbeklar bilan mesxeti turklari o'rtasidagi milliy nizo dedi, boshqa biri allaqanday mafiyaning ishi, ba'zilar SSSR Davlat Xavfsizlik Qo'mitasining tashkil etgan fitnasi deb baholadi.

Butun boshli O'zbekiston va uning xalqi taqdiri ishonib topshirilgan R.Nishonov esa SSSR Oliy Kengashi minbaridan turib Farg'ona isyoniga noto'g'ri yondashuvda bo'lgan. Bu xususda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida 1992-yil 14-fevralda e'lon qilingan yozuvchi Alisher Ibodinovning "Zanjirband sher tug'ilganda" maqolasi o'zining xolisona va hayotiy yondoshganligi bilan ajralib turadi. Rahbariyatga topshirilgan talabnomada vodiyda ishsizlikni tugatish choralarini ko'rish, uy-joysizlar uchun tomorqa uchastkalari berish, paxta, pillaning xarid narxlarini oshirish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, Orol dengizini qutqarib qolish tadbirlarini tezlatish, o'zidan zaharli moddalar tarqatayotgan Yangiqo'rg'on ximiya kombinatini yopish, oylik ish haqlarini oshirish, 7 iyunda tinch aholiga o'q uzganlarni javobgarlikka tortish kabi talablar qo'yilgan edi. Hamma talab haqqoniy va odilona bo'lib, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga borib taqalardi. Birgina ishsizlik muammosini oladigan bo'lsak vodiyda ularning soni yiliga 23 ming kishiga ko'payib borardi. Alisher Ibodinov Bog'dod - Qo'qon yo'lida shaharga shoshilib ketayotgan odamlar orasida bir oqsoqol bilan qilgan suhbatini eslab yozadi: "oqsoqol mesxeti turklari bilan hech qanday ishi yo'qligi, o'z dardi bilan shaharda bo'ladigan mitingga otlanganligini so'zladi. Uning o'n farzandi bor ekan. To'rt kelin, nabiralar, olti farzand bilan katalakdek xonadonda tiqilib yashayotganliklari, tirikchilik og'irligidan hasrat qildi. "Negadir biz o'zbeklar o'z yurtimizda boshqalarga qaraganda nochor yashaymiz, aybimiz qishloqda tug'ilganimizmi?" deya nola qilgan edi, u. Chol Qo'qonga kelgan

kattalarga shu dardlarini aytmoqchi ekan". O'sha olovli damlarda mantiqan qiziq bir jumboq hosil bo'lgan edi. Aslini olganda o'sha mash'um kunda O'zbekistonning mustaqilligi o'qqa tutilgan edi. Sovetlar va uning mahalliy malaylari o'zbek xalqini qo'rqitish, milliy uyg'onish davriga kirgan fidoyi vatanparvarlarni tiz cho'ktirish maqsadida bunday vahshiyona tadbirni qo'llagan edilar. Ammo xalqimizning to'kilgan qonlari zoye ketmadi. Bosqinchilarga qarshi erkinlik uchun kurashlar davom etdi. Farg'onadan boshqa viloyatlarida ham xalq g'alayonlari bo'ldi. Ammo bu g'alayonlarning oldi olinadi. Farg'ona voqealari xalqimizga katta va achchiq hayotiy saboq berdi.

*Birinchidan,* xalqimizning ongi sovet va chorizm o'rtasidagi farq yo'qligini, ular xalqimizning do'sti emasligini tushundi.

*Ikkinchidan,* g'animga qarshilik qilishda milliy istiqlolchilar tajribasizlik qildilar. Janglar asosan uyushmagan holda tashkil etildi.

Aholi orasida ham mustamlakachilarga ishonadiganlar hamon topilgan. Milliy birlikni ta'minlay olmadi. Umumiy dushmanga qarshi kurashda birlasholmadi.

*Uchinchidan,* dushman bilan kurashda aholini o'z orqasidan tortishga qodir bo'lgan siyosiy tashkilot topilmadi.

*To'rtinchidan,* 80-yillar oxirlaridagi voqealar mamlakatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda zudlik bilan sifat o'zgarishlarini amalga oshirish lozimligini ko'rsatdi.

**O'zbekiston bilan Markaziy hukumat o'rtasidagi keskinlashuvlar.**

1991-yilga kelib sobiq Ittifoqda millatlararo munosabatlar shu darajada keskin tus oldiki, SSSRning batamom parchalanish xavfi ko'zga yaqqol tashlanib qoldi. Bu davrda Litva, Latviya, Estoniyadan so'ng Gruziya va Ozarbayjon xalqi o'z davlat mustaqilligini e'lon qilgan edi. Mana shunday og'ir bir paytda markaz SSSRni saqlab qolish niyatida ayyorlik bilan turli xildagi tuzoqlarni ishlab chiqqan edi. Ana shunday tuzoqlardan biri 1991-yil aprelida Moskvaga yaqin Novo - Ogorova degan joyda SSSR Prezidenti va 9 ta ittifoqchi jumhuriyatlar rahbarlari imzolagan bitim edi. Bu bitim «mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va inqirozni engishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choratadbirlar to'g'risida qo'shma bayonot» deb ataladi. Bu bayonot «9+1» (to'qqizta respublika va markaz) degan nom oldi. Ammo bu bayonot ham bajarilmadi va quruq qog'ozda qolib ketdi. "O'zbeklar ishi", "paxta ishi" deb nomlangan qora dog'lar 1991-yil martiga qadar 2 ming kishining oqlanishi, Stalincha qatag'onliklar tufayli tuhmat bilan ayblanganlardan gardanidagi tavqi-la'nat gunohlarning olib tashlanganligi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy muhitning sog'lomlanishiga albatta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston hukumati kadrlarni tanlashda, tarbiyalashda o'z mustaqil yo'lini belgilab oldi. Bunda asosiy masala tub xalq vakillariga qaratildi. Bu hol xalqning ruhiy kayfiyatini ko'tarishiga sabab bo'ldi.

Xalqimizning eng qadimiy tarixiy an'analaridan biri va doimo e'zozlab kelgan bayrami "Navro'z" qaytadan tiklandi va dam olish kuni deb e'lon qilindi. Ro'za hayit va Qurbon hayitlariga yangi hayot baxsh etildi. O'zbekistondan harbiy xizmatga chaqiriladigan yigitlar, respublika hududida o'z burchlarini o'taydigan bo'ldilar. Albatta bu tadbirlar O'zbekiston hukumatiga xalqning munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirdi va mamlakatda ijtimoiy-siyosiy muhitni barqarorlashtirdi.

**Mustaqillikka qo'yilgan ilk qadamlar. Davlat tili to'g'risida qonunning qabul qilinishi.**

O'zbek xalqining milliy ozodlik kurashi 30-yillarning o'rtalariga kelib sovetlar saltanati kuchlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgan bo'lsa-da, xalqimizning qalbida, uning ongi shuurida istiqlol uchun, mustaqillik uchun mustamlakachi kelgindi zolimlarga qarshi kurash g'oyasi zarracha bo'lsa-da, so'ngan emas. Bu kurash dahshatli jahon urushi yillari (1939-1945)da ham, urushdan keyingi davrda ham turli ko'rinish, shakl va usullarda, goh ochiqchasiga, goh yashirincha olib borildi. Ayniqsa bu kurash 80-yillarda o'zining yangi bosqichiga kirdi.

O'zbekiston tarixining bosib o'tgan o'tmishi dalolat beradiki, mustaqillik uchun kurash ham ikki yo'nalishda olib borilgan.

Birinchisi: diniy taraflama bo'lsa, ikkinchisi demokratik islohotlar yo'li edi. Bularning ikkisida ham maqsad bitta edi ya'ni mustaqillikka erishish edi.

Sovetlar va kommunistik firqa Islom diniga qarshi "din xalq uchun afyundir" degan qoidani asos qilib oldi, milliy qadriyatlarimizga qarshi tinimsiz kurashdi. I.B.Usmonxo'jayev O'zKP XXII s'ezdida hisobot ma'ruzasida bunday degan edi: «Namangan viloyatida noxush diniy vaziyat hamon davom etib kelmoqda. Shu viloyatning shahar va rayonlarida ro'yxatga olinmagan diniy birlashmalar qonunga xilof ravishda ish ko'rib kelmoqda, o'smirlar va ayollarga gruppa-gruppa qilib diniy aqidalarni o'rgatish faktlari aniqlandi...

O'zbekiston milliy mustaqilligi uchun kurashning ikkinchi yo'nalishi - umumma'rifiy harakat, siyosiy va demokratik erkinliklar uchun kurash tarafdorlaridir. Bu yo'nalishning asosini O'zbekiston ziyolilarining ilg'or taraqqiyparvar so'l qanoti tashkil etadi.

Xullas ijodkor ziyolilar o'zlarining to'laqonli ijod durdonalari, badiiy-publitsistik asarlari, she'rlari va maqolalari bilan keng xalq ommasining qalblariga etib bordilar, ularni razolat va g'aflat uyqusidan uyg'otdilar.

O'zbekistonning birinchi rahbari Islom Karimov hokimiyat tepasiga kelgach, uning siyosiy jasorati va kuchli vatanparvarlik, millatparvarlik his-tuyg'ulari tufayli bir qator ijobiy o'zgarishlar ro'yobga chiqarildi va bu mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy tanglikni ma'lum darajada bo'lsa-da yumshatdi.

Xalq - bu til, demak, qancha yillar mobaynida o'zbek tili o'z erida ikkinchi toifadagi, iste'molchi uchun majburiy hisoblanmagan til bo'lib keldi, necha yillar davomida o'zbek rusning yonida o'zining tengsizligini, "katta og'a"ga qaramligini his etib keldi. Nima uchun bunga chidash kerak? Biz davlat tili to'g'risidagi qonunni qabul qildik, bu esa ko'z o'ngimizda o'zbeklarning milliy o'zini o'zi anglashini yaxshiladi".

1989-yil 21-oktyabrda "O'zbekiston SSRning davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi va o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamlakatdagi barcha demokratik va vatanparvar kuchlarning uzoq yillardan beri orziqib kutgan tarixiy g'alabasi bo'ldi.

Qonunning o'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish to'g'risidagi qoidalari keyinroq, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, bu ko'pchilik aholining, respublikada yashovchi barcha millat va elatlarning namoyandalari tomonidan ma'qullandi va qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik boshqaruvi joriy etilishi. 1990-yil fevral-aprel oylarida O'zbekiston Oliy Kengashi va Mahalliy Kengashlariga saylovlar bo'lib o'tdi. Bu saylovlarning ilgarigi davrdagi saylovlardan farqi shunda ediki, mamlakat tarixida birinchi marta ko'pgina okruglarda saylovlar bir necha nomzodlar da'vogarligida o'tkazildi. Ammo O'zbekiston Oliy Kengashiga nomzod ko'rsatgan 500 okrugdan 174 tasida muqobil nomzodlar ko'rsatilmadi. Saylovni tashkil etish va o'tkazish jarayoni demokratik talablar darajasida bo'ldi, deb aytolmaymiz, nomzodi ko'rsatilgan vakillarning hammasiga bir xil sharoit va imkoniyatlar yaratilmadi. Bu va bosha sabablar taqozosiga ko'ra saylangan nomzodlarning 95 foizini kommunistik firqa a'zolari tashkil etdilar.

1990-yil 24-martda respublika kompartiyasining birinchi kotibi Islom Karimov O'zbekistonning birinchi Prezidenti etib saylandi.

Islom Karimov - davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentidir. U 1938-yilda Samarqandda tug'ilgan. O'rta Osiyo Politexnika instituti va Toshkent Xalq xo'jaligi institutlarini tamomlagan. 1960-yildan "Tashselmash" zavodida avval master yordamchisi, so'ngra master, texnolog bo'lib ishlagan. 1961-yildan V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, etakchi muhandis konstruktorlik qildi. 1966-yildan O'zbekiston Davlat Plan Qo'mitasida fan va yangi texnikani joriy etish bo'limining bosh mutaxassisi, so'ngra

Respublika Davlat Plan qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari lavozimlarida ishladi. 1983-yildan O'zbekiston Moliya vaziri, 1986-yildan O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining o'rinbosari, Respublika Davlat Plan Qo'mitasining raisi vazifasini bajardi. 1986-yil dekabrdan Qashqadaryo viloyati partiya qo'mitasining birinchi kotibi, 1989-yil iyunidan O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi, 1990-yil 24-martdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. Islom Karimov 1991-yil 29-dekabrda birinchi bor muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga muvofiq u ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining raisi hamdir. I.A.Karimov 1991-yil 31-avgustda Toshkentda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va xalqaro maydonda erishgan muvaffaqiyatlari va yutuqlari Islom Karimov nomi bilan bog'liq.

I.A.Karimovning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov Oliy Kengashda O'zbekiston xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolar huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmaga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyodini bayon etdi.

O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi tasodifiy emasdi. Chunki O'zbekistonda va o'sha davrdagi Ittifoqning boshqa jumhuriyatlarida 80-yillarning oxirlarida kuchayib ketgan milliy uyg'onish oxir-oqibatda dunyoning eng yirik va so'nggi mustamlakachi saltanatlaridan biri SSSRning parchalanish jarayonini boshlab berdi. Bu borada Boltiqbo'yi jumhuriyatlari yalovbardorlik qildi. Bu jumhuriyatlarda mustaqillik masalasida kompartiya rahbariyati bilan xalq ommasi o'rtasida mushtarak birlik qaror topdi. Bu hol albatta boshqa jumhuriyatlarga ham ta'sir ko'rsatdi va ular birin-ketin o'z mustaqilliklarini e'lon qila boshladilar.

1990-yil 20-iyunda Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qilindi. Bu tarixiy hujjatda shunday yozilgan edi: "O'zbekistonning bugundan boshlab o'z hududiga mutlaq ega va unda yagona hukmron emasligini tan olib, tashqi muloqotlarda mustaqillik huquqidan mahrum ekanligini e'tirof etib, jumhuriyat xalqining asl manfaatlari, uning erkinligi va ozodligini ifodalab, hokimiyatning asosi xalq ekanligini e'tirof etib, xalqning taqdirini va mulkiga egalik huquqi faqat uning o'zigagina berilganligini qayd etib taraqqiyot yo'lining tanlashida xalqning ixtiyorida ekanligini ta'kidlaymiz - O'zbekistonni suveren davlat deb e'lon qiladi.

- ✓ O'zbekiston suveren davlati;
- ✓ o'z hududining barcha tarkibiy qismlari - yer, suv, havo, yer usti, yer osti boyliklariga va ulardan olinadigan barcha mahsulotlariga mutlaq egadir;

- ✓ o'z hududining barcha tarkibiy qismlarida - yer osti va yer ustida, suvda, havoda mutlaq hukmrondir;
- ✓ siyosiy va iqtisodiy sistemalarining tarkibi va tuzilishini xalq manfaati va ehtiyojidan kelib chiqib - o'zi belgilaydi;
- ✓ suveren huquqlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha qonun va farmonlarni o'zi ishlab chiqadi va ularning ijrosini o'zi tashkil qiladi;
- ✓ barcha tashqi aloqalarni o'zi o'rnatadi;
- ✓ fuqarolik masalalariga oid qonunchilikni o'zi aniqlaydi;
- ✓ aholisi tarkibidagi millatlar va elatlar bilan munosabatda ularning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsipiga amal qiladi".

Albatta, O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik boshqaruvi joriy qilinishi, Mustaqillik Deklaratsiyasi e'lon qilinishi mamlakat hayotida katta voqealar edi, bu ma'naviy mustaqillikning berilishi edi. O'zbekistondagi voqealarga Markaz albatta, befarq emas edi. Ular "o'zboshimchalik"lardan tashvishda edi, shuning uchun uni "jilovlab" qo'yish chorasini izladi.

## O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi e'lon qilinishi va uning olamshumul ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligi e'lon qilinganidan keyingi vaziyat shunday ediki, endi davlat, xalq o'z taqdirini o'zi belgilaydi, deb e'lon qilish etarli emas edi. O'zbekistonda qonunlar tizimini shakllantirish zarur edi.

O'zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlashda xalq tomonidan uning ma'qullanishini hisobga olib, mamlakatda referendum o'tkazishga qaror qilindi. 1991-yil 18-noyabridagi Oliy Kengashning VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaroriga ko'ra 29-dekabrda: "Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'qullaysizmi?" - degan masalada referendum o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rildi, 13 okrug, 7 ming uchastka saylov komissiyalarini tuzdi. Ushbu jarayonda 10 millionga yaqin kishi, yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi va 98,2 foizi O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat, deb e'lon qilinishini yoqlab ovoz berdi. Ushbu referendumda AQSh, Turkiya, Malayziya va boshqa mamlakatlardan kelgan betaraf kuzatuvchilar ham tasdiqladilar.

O'zbekistonning mustaqil davlat, deb e'lon qilinganligi davlat ramzlarining joriy qilishini taqozo etdi. O'zbekiston Respublikasining bayrog'i, gerbining nusxasi, madhiyasining musiqiy bayoni haqida qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, o'zining xalqaro qiyofasini ko'rsatmog'i, bunda butun imkoniyatlarini, o'ziga xos jihatlarini ifodalovchi davlat ramzlariga ega bo'lishi kerak edi.

**Mustaqillik tushunchasi.** Mustaqillik tushunchasi o'zida azaldan insoniyatning orzu-umidlarini, armon va iztiroblarini mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o'zini erkin his qilishga, ozod yashashga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Kishilik tarixi turli davrlarda yer sharining barcha mintaqalarida erk uchun kurashni, shaklan har xil, mohiyatini o'xshash bo'lgan intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

XX asr intihosida dunyoning qariyb uchdan bir qismida misli ko'rilmagan hodisalar sodir bo'ldi. Sotsializm deb atalgan totalitar tuzum, zo'ravonlik va tazyiqqa asoslangan kommunistik mafkura tanazzulga uchradi. Jahonga, yer yuziga hokimi mutlaqlikni da'vo etgan SSSR jamiyat sifatida ham, davlat sifatida ham quladi. Uning tarkibidagi respublikalar mustaqil davlat maqomini oldilar.

Mustaqillik g'oyasi xalqimizga azaldan meros. Bu orzu avloddan avlodga o'tib, ming yilliklar qa'ridan bizgacha etib kelmoqda.

Birinchi Prezident I. Karimov "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolasida "O'zbek millati azaldan o'z fikr-zikri, o'z istiqloli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoyi, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo'lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz", - deganda xalqimiz tarixiy qismatidan saboq olishni, otalar tajribasini o'rganishni nazarda tutadi. Zotan, xalqimizning uzoq tarixi ozodlik, istiqlol uchun tinimsiz kurash davridir.

Turkiston o'zining keyingi bir yarim ming yillik tarixida bor-yo'g'i 376 yil hur mamlakat rutbasida bo'lgan (B.Ahmedov). Boshqa paytlar esa bosqinchilar zulmi ostida kun kechirgan. Shundan ham ko'rinib turibdiki, Turkiston tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida turli shaklda bo'linishlarga, uning xalqi o'zgalar tomonidan tahqirlanishga, kamsitilishlarga duchor bo'lgan. Xalqimizning grek, makedoniyaliklar zulmiga, arablar istilosiga, mo'g'ul bosqinchiligiga va nihoyat Chorizm mustamlakachiligiga qarshi olib borgan milliy-ozodlik harakatlari tarix sahifalarida abadiy qolgan. Ayni chog'da yaqin tariximizda, sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonning markazga tobeligiga qarshi, aniqrog'i, shu davrda O'zbekistonning milliy Mustaqillikka erishishi uchun tarixiy vaziyatga qarab kurashlar olib borilgan.

Xo'sh, Mustaqillikning o'zi nima? U nimalarga asoslanadi va uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

Eng avvalo shuni aytish kerakki, Mustaqillik tenglik sari qo'yilgan birinchi qadam. Chunki, tenglik bo'lmagan joyda kimdir kimgadir tobe bo'ladi. Mutelik bor joyda hukmronlik, o'zgalar hisobiga yashash kabi illatlar paydo bo'ladi. Natijada biz so'nggi bir yarim asr mobaynida boshimizdan o'tkazgan mustamlakachilik dunyoga keladi.

«Tenglik» so'zining qudrati shundaki, u odamlarning o'zaro munosabatlaridan tortib, davlatlararo munosabatlargacha hamma narsani me'yor-mezonga soladi, turli kamsitishlar yoki mantiqsiz ta'zim-tavozega chek qo'yadi.

**Istiqlol** - o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini e'zozlash orqali inson qadr-u qimmatini asrashdir. Demak, mustaqil har bir shaxs, har bir inson mohiyatidan kelib chiqadigan butun jamiyat va insoniyatni baholaydigan umuminsoniy qadriyat!

**Mustaqillik** - jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir.

**Istiqlol** - erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir. Mustaqil yashashga, Mustaqil fikrlashga, o'z taqdirini o'zi belgilashga, o'z hayotini o'zi izga solishga qodir odam ziddiyatlarni osonlik bilan engadi, dunyoning shiddatli muammolar buhronida dovdirab qolmaydi. Har bir inson ruhiyati, fe'l-atvori jihatidan qaraganda ana shu oddiy hayotiy haqiqatni keng ma'noda davlat mustaqilligiga ham qiyoslash mumkin.

Mustaqillik mustamlakachilikning har qanday shaklini, u taqozo etadigan tazyiqlar, kamsitishlar va zo'ravonliklarni inkor etadi. Ayni paytda mustaqillik jahon taraqqiyotining ilg'or tajribalari asosida o'z ravnaqining o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqish bilan birga yagona zamin, yagona makon taqdirini belgilashda o'zaro hamkorlikning yangi, sifat jihatidan yuqori bo'lgan, umuminsoniy manfaatlarga mos keladigan andozasi asosida yashash demakdir. Agar u hamkorlik, o'zaro hamjihatlik, davlatlararo va mintaqalararo siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirmasa o'z qobig'ida qolib ketishi, milliy mahdudlik doirasidan chiqolmasligi mumkin. Shuning uchun ham istiqlolning g'oyatda zalvorli tajribasidan o'tgan tamoyillari hamma vaqt dolzarb bo'lib qolaveradi.

**Mustaqillik** - tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirish mezoni. Ayni paytda u harakatlarning, intilishlar va qobiliyatlarning kuchayishini, doimiy kamolotni taqozo etadigan ma'naviy-ruhiy, ma'rifiy-axloqiy hodisa. Bu, ayniqsa, sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan, mustamlakachilik azobini ko'rgan mustaqil mamlakatlar, xususan O'zbekiston hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Texnologik usullar: B.B.B. jadvali**

**Bunda:**

1. Yangi materialni o'qitishga tayyorlash.
2. Yangi o'quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.
3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil mashqlarni hosil qilish.
4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va tizimlashtirish.
5. Bilim va malakalarini tekshirish bo'yicha bilgan ma'lumotlaringizni bilaman jadvaliga to'ldiring

| Bilaman | Bilmoqchiman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| Yangi materialni o'qitishga tayyorlash | Oldingi o'tilgan mavzuni takrorlash orqali yoki yangi mavzuga dastlabki tushunchalar berish orqali amalga oshiriladi | Yangi materialni o'qitishga tayyorlash |
| Yangi o'quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish | Ko'rgazmali vositalar orqali yangi mavzuni o'zlashtiradi | Yangi o'quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish |
| Bilimlarni mustahkamlash va turli xil savollarga javob berishda hozirjavoblikni shakllantirish | Darslikdagi mavzuni muhokama qilish | Bilimlarni mustahkamlash va turli xil savollarga javob berishda hozirjavoblikni shakllantirish |
| Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish | Didaktik o'yinlar orqali tarixiy sanalarni eslab qolish | Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish |
| Bilim va malakalarini tekshirish | Bergan javoblar | Bilim va malakalarini tekshirish |

### *Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar*

1. Davlat tili to'g'risida qonunning qabul qilinishining tarixiy ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Kadrlar desantini tushirishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima edi?
3. Paxta ishi va o'zbek ishi o'rtasida nima farq bor edi?
4. 1989-yil iyun. Farg'onadagi qonli fojialarning asl mohiyati nimada edi?
5. Ekologik qabohat asl sababi nimada deb o'ylaysiz?
6. Orolni asl xoliga qaytarish mumkinmi, nima deb o'laysiz?
7. O'zbekiston bilan Markaz munosabatlarining keskinlashuviga sabab nimada?
8. O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi joriy etilishi tarixiy ahamiyatini tushuntirib bering
9. I.A. Karimovning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi jarayoni xronologik yuritib bering
10. "Mustaqillik Deklaratsiyasi" ning qabul qilinishining tarixiy ahamiyatini tushuntiring.

### *Mustaqil ta'lim uchun vazifalar*

1. Taqdim etilgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. "Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati" mavzusi bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
3. Mavzuga oid maxsus kompleks ish tayyorlang:15 blits savol,10 test va 12 so'zli krossvorddan iborat.
4. Ushbu mavzu bo'yicha kategorik-konseptual jadvalni ishlab chiqing.

## 3-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda fan, ta'lim, sport, san'at, adabiyot va sog'liqni saqlash tizimi rivoji.

**Reja:**

1. O'zbekistonda kadrlar siyosati. Mustaqillik yillarida fan va ta'lim.
2. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati. Jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirishdagi islohotlar.
3. San'at, adabiyot va madaniyatni takomillashtirishdagi chora-tadbirlar.
4. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi va uni rivojlantirishning konseptual asoslari.

**Mashg'ulot maqsadi:** Mustaqillik yillarida fan va ta'limga e'tibor, bu borada olib borilgan islohotlar mazmuni, Yoshlarga oid davlat siyosati mohiyati, sportdagi yutuq va muammolar, sog'liqni saqlash tizimi va uni rivojlantirishning konseptual asoslarini tushuntirishdan iborat.

**Tayanch iboralar:** Kadrlar siyosati, Ta'lim to'g'risidagi qonun, sport, jismoniy tarbiya, fan, madaniyat, san'at, inson salomatligi, sog'liqni saqlash.

### O'zbekistonda kadrlar siyosati, Mustaqillik yillarida fan va ta'lim.

XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet sharofati bilan globallashuv va chegaralarni yo'q qilish asriga, jahon makoni va jahon bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanmoqda. Bunday sharoitda inson, uning ehtiyojlari va manfaatlari siyosat markazida turgan holda, inson kapitaliga hissa qo'shish, bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tayyorlash asosiy ustuvor yo'nalishlar bo'lgan davlatgina o'zini o'zi mustahkam qilishi mumkin.

Har qanday davlat mamlakatning intellektual va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lishi kerak. Globallashuv davrida ta'lim va fan mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va milliy boyliklarini to'plashning eng muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda hamda aholining yuksak ma'naviy saviyasi, huquqiy madaniyatni, odamlarning yashash va yashash qobiliyatini organik ravishda shakllantirishga imkon beradi. Ilm-fan erkin, demokratik huquqiy davlatda mehnat qilish, o'z huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida foydalana olishni ta'minlaydi.

Malakali kadrlar ijtimoiy-iqtisodiy toifa bo'lib, u davlatning mehnat salohiyatini tavsiflaydi, lekin butun mehnatga layoqatli aholini birlashtirgan ishchi kuchidan farqli o'laroq, bu tushuncha davlat bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan doimiy sonli ishchilarni o'z ichiga oladi. Xodimlar deganda, odatda, dastlabki kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan va tanlagan faoliyat sohasida bilim, ish ko'nikmalari va ish tajribasiga ega bo'lgan malakali ishchilar tushuniladi.

O'zbekistonda olib borilayotgan kadrlar siyosati respublikamiz jamiyat hayoti va iqtisodiyotining barcha jabhalarida faol ishtirok etayotgan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi yurtimizda ilm-fan rivojini ta'minlashdagi eng asosiy muassasalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 1943 yil 4 noyabrda O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi sifatida tashkil etilgan. Uning birinchi prezidenti matematik olim Toshmuhammad Qori Niyoziy bo'lgan. Bu akademiya tarkibida 22 ta ilmiy muassasa mavjud bo'lib, ularda 818 nafar ilmiy va ilmiy - texnik xodimlar faoliyat ko'rsatardi.

O'zbekiston FA - davlatning eng yirik ilmiy tashkiloti hisoblangan edi. Akademik olimlar va xorijiy a'zolarini hamda, o'z qamrovidagi ilmiy muassasalar va ilmiy xodimlari va mutaxassislarini birlashtirgan edi. Eng muhim vazifa fan-texnika, texnologiya sohasidagi davlat islohotining olib borilishini ta'minlash, davlat, xalq va jamiyat rivojini ta'minlovchi istiqbolli sohalar bo'yicha fundamental ilmiy tekshirish va ilg'or texnologiyalarni jadallashtirish strategiyasini belgilash, atrof muhit, texnikaviy, tibbiy, ijtimoiy-iqtisodiy gumanitar fanlar sohasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy texnikaviy va ma'naviy ma'rifiy taraqqiyotiga yordamlashuvchi fundamental kashfiyotlar olib borish asosiy maqsad qilib belgilangan. O'zbekiston FA fan, texnika, madaniyat va ma'rifat, iqtisodiyot sohalarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarni muvofiqlashtiradi va ularga samarali rahbarlikni ta'minlab kelmoqda, davlatning intellektual, iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini ko'tarishga yo'naltirilgan fan va keng miqyosli ilmiy texnologiya kashfiyotlarini o'z vaqtida ishlab chiqarishga joriy etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi FA har yili qo'lga kiritgan yutuqlari va yangiliklari to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga hisobot taqsim etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpoq mintaqaviy bo'limi Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti Ionplazma va lazer texnologiyalari instituti Akademik S.A.Azimov nomidagi "Fizika-quyosh" IIChB materialshunoslik instituti Inshootlar seysmik mustahkamligi instituti RT-70 Radio rasadxonasi Umumiy va noorganik kimyo instituti Akademik S.Yu. Yunusov nomidagi o'simlik moddalari kimyosi instituti Akademik O.S.Sodiqov nomidagi bioorganik kimyo instituti Mikrobiologiya instituti O'simlik va hayvonot olami genofondi instituti Immunologiya instituti Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti H.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti G'.O. Mavlonov nomidagi seysmologiya instituti Genomika va bioinformatika markazi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti Tarix instituti San'atshunoslik instituti Yahyo G'ulomov nomidagi arxeologiya instituti O'zbek tili va adabiyoti muzeyi O'zbekiston FA 1943-yil 4-noyabrda O'zSSR FA tashkil etilgan. Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan yilda uning

tarkibida 11 ta haqiqiy a'zosi, 18 ta muxbir a'zosi, 3 ta faxriy a'zosi bor edi, 10 ta ilmiy tekshirish - tadqiqot institutini jamlagan. 210 ta ilmiy mutaxassis, shu bilan birga, 28ta fan doktori va 80 ta fan nomzodi ishlab kelishgan.

Fanlar Akademiyasi barpo etilgan davrdan boshlab, uning ilmiy tekshirish muassasa va tashkilotlari xodimlarining soni, ilmiy tekshirish ishlarining hajmi hamda salmog'i jihatidan ulkan tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. O'zbekiston FA olimlari tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti, millat, xalq, milliy madaniyatlar va an'analari, jamiyat, davlat va milliy munosabatlarning istiqboli muammolari, ta'lim va madaniyat masalalari, erkinlashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotni yuksaltirish hamda, raqobatbardoshliligini oshirishning metodologik asoslari, mulkiy munosabatdagi islohotlar, mehnatni qo'llab quvvatlash va xalqni ijtimoiy-iqtisodiy himoyalash masalalari, moliya kredit, soliq va sug'urta mexanizmini soddalashtirish, fuqarolik jamiyati va kuchli demokratik respublikani barpo etish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar ishlarini olib borganlar. O'zbekiston FA olimlari O'zbekiston o'troq tabiiy va sun'iy sug'orma dehqonchilik madaniyatiga asoslanganligi va ilk sivilizatsiya markazi bo'lganligi, Respublika hududida davlatchilikning ilk qadamjolari miloddan avvalgi 2-ming yilliklardan boshlanganligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlar katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. FA olimlari fundamental tadqiqotlar ustida izlanish bilan kifoyalanibgina qolmay, O'zbekiston taraqqiyoti uchun kerak bo'lgan eng so'ngi zamonaviy asbob uskunalar, tibbiy jihozlar, dori darmon, shifobaxsh o'simlik turlarining yangi turlari, qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunandalariga qarshi dorilar va yer osti tabiiy boyliklarni qazib olishning so'ngi texnologiyalarini ishlab chiqarmoqdalar.

O'zbekiston FA ko'pgina xorijiy davlatlarning ilmiy muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy tajribalar ustida ish olib bormoqdalar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi FAning Yadro fizikasi, Elektronika, Fizika, texnika, Mikrobiologiya, Biokimyo, Suv muammolari va resurslari, Umumiy va noorganik kimyo instituti bilan AQSh, Xitoy, Germaniya, Italiya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Malayziya. Singapur, Janubiy Koreya Respublikasi, Hindiston, Turkiyadagi yirik ilmiy muassasalar o'rtasida manfaatli do'stona aloqalar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ilmiy tadqiqot muassasalari ilmiy-tashkiliy ishlarini asosan quyidagi fan yo'nalishlari (fizika-matematika va texnika fanlari; kimyo, biologiya va er haqidagi fanlar; ijtimoiy-gumanitar fanlar) bo'yicha vitse-prezident xizmati bilan birgalikda olib boradi. Akademiyaning "Akadem asbob" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, "Algoritminjiniring" instituti, Arxeologiya instituti, Biokimyo instituti, Bioorganik kimyo instituti, "Botanika" ilmiy ishlab chiqarish markazi, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Geologiya va geofizika instituti, "Zamonaviy informatsion texnologiya" ilmiy texnika

markazi qoshidagi Kibernetika instituti, Zoologiya instituti, Immunologiya instituti, Iqtisodiyot instituti, Kosmik asbobsozlik instituti, Kosmik tadqiqotlar markazi va uning tarkibidagi Astronomiya instituti, Matematika instituti, Mikrobiologiya instituti, Mexanika va inshootlarning seysmik mustahkamligi instituti, Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti, Seysmologiya instituti, Suv muammolari instituti, Tarix instituti, Til va adabiyot instituti, Umumiy va noorganik kimyo instituti va Falsafa va huquq instituti, „Fizika-Quyosh" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tarkibidagi Fizika texnika instituti va Materialshunoslik instituti, Fiziologiya va biofizika instituti, Sharqshunoslik instituti, Elektronika instituti, Yadro fizikasi instituti, O'simlik moddalari kimyosi instituti, Qoraqalpog'iston bo'limi va Xorazm Mamun Akademiyasi, Samarqand mintaqaviy bo'limi, Buxoro ilmiy markazi, Ilmiy-o'quv markazi, Asosiy kutubxonasi, Issiqlik fizikasi bo'limi, Adabiyot muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi, Botanika bog'i, Avtomatlashtirish va hisoblash texnikasi bo'yicha ixtisoslashgan loyiha konstruktorlik byurosi, "Radiopreparat", "Tezlatgich" korxonalari, Chirchiq shahridagi "Kompozit" tajriba eksperimental zavodi, RT70 radio rasadxonasi va bir qancha muassasalari faoliyat olib bormoqdalar.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining oliy organi - FA akademiklari va ilmiy tekshirish muassasalari direktorlaridan iborat. Umumiy majlis. FA umumiy majlisi ilm-fanni taraqqiy ettirish va Fanlar Akademiyasi ish faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib o'rganib chiqish maqsadi uning Hay'ati tomonidan har yili kamida 1-marta yig'ilish o'tkaziladi. Umumiy majlisda ilm-fanni taraqqiy ettirishning dolzarb, samarali hamda, ilg'or yo'nalishlari va ularga tegishli ilmiy dasturlar loyihalari muhokama etiladi hamda, dolzarb bo'lgan zarur qarorlar qabul qilinadi, FA faoliyatining muhim tashkiliy masalalari hal qilinib kelinmoqda va uning haqiqiy va xorijiy a'zolarini saylash ishlari olib boriladi.

FAning 122 a'zosi mavjud (2005). Fanlar Akademiyasi muassasalarida 5259 ta ilmiy xodimlar, ayniqsa, 360 ta fan doktori va 860 ta fan nomzodi ishlab kelmoqda. O'zbekiston FA da ilm-fan yo'nalishida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan olim va olimalar uchun Al-Xorazmiy (1992-yil ta'sis etilgan), Zahiriddin Muhammad Bobur (1993), H.M. Abdullayev (1993) nomida medallar ta'sis etilgan. Akademiklar H. Fozilov, Yo.To'raqulov, prof. F. Abdullayev Al-Xorazmiy nomidagi, akademik U. Karimov va tarixchi olim R.Sulaymonov Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi, akademiklar I.Hamroboyev, F.Usmonov va prof. NM.Kucherskiy H.M.Abdullayev nomidagi medalga sazovor bo'lishgan.

O'zbekiston FA matbuotchilik ishini, asosan, "Fan" nashriyoti orqali amalga oshirilmoqda. O'zbekiston FA da "Geliotexnika", "Informatika va energetika muammolari O'zbekiston jurnali", "Mexanika muammolari O'zbekiston jurnali",

"O'zbek tili va adabiyoti", "O'zbekiston biologiya jurnali", "O'zbekiston kimyo jurnali", "O'zbekiston matematika jurnali", "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ma'ruzalari", "O'zbekiston tarixi", "O'zbekiston fizika jurnali", "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" ilmiy jurnallari, "Fan va turmush" ilmiy-ommabop jurnallari nashr etilib kelinmoqda. Shu bilan birga, ilm-fan bo'yicha turli tanlov va loyihalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ham mas'ul hisoblanadi.

## Ta'lim tizimidagi islohotlar: "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi.

Ma'lumki ta'lim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-madaniy hayotining muhim tarmog'idir. Ta'lim asoslari O'zbekistonda uning Konstitutsiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyuldagi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasining Qonuni amalga kirdi. Ta'lim sohasidagi mazkur qonunda respublikada ta'limning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor yo'nalish ekanligi e'tirof etilgani holda ta'lim yo'nalishida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va boshqaruvi tartibi, ta'lim-tarbiya xodimlari huquqlari, burchlari, vazifalari, mas'uliyatlari, maqsadlari alohida taqsimlab ko'rsatilgan.

Xalq ta'limi xodimlari hayotida muhim ahamiyatga molik ushbu qonun xalq ta'limi sohasini barcha yo'nalishlarda takomillashtirish, yuksaltirish rivojlantirish ishlariga ulkan imkoniyatlar yo'llari ochilmoqda.

Oliy o'quv yurtlari davlatimiz ta'lim tizimida ustuvor soha hisoblanadi. Chunki oliy maktab O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlovchi milliy boylikning o'sishiga imkon yaratuvchi, kuchli, qat'iyatli mutaxassislar shu bo'g'inda tayyorlanadi.

Ma'lumki, sho'rolar hukumati davrida hukmron tuzum o'zining jahonda eng insoniy, eng odil va eng insonparvar, eng bilimdon davlat bunyod etgani bilan g'ururlanib, butun dunyoga ovoza qilgan edilar. "Dunyodagi eng savodli mamlakat", "oliy ma'lumotli insonlar miqdoriga ko'ra dunyodagi etakchi davlat" degan qalbaki ta'riflar rasmiy va maqtanchoq mafkura orqali keng targ'ibot ishlari olib borilgan.

Tashqaridan nazar solganda, haqiqatan ham shunday degan xulosaga kelar edik. Aslini olganda esa, sobiq ittifoqda minglab universitet va institutlar, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari, minglab ilmiy-tadqiqot muassasalari ishlab turar edi. Ammo ular, son va miqdor jihatidan ko'p bo'lgani bilan jahon standartlari darajasida emas edi. Bularning muhim sabablaridan biri kommunistik jamiyatda barcha narsa, jumladan, ilm-fan, maktab-maorif sohasining ham o'sha puch va o'lik g'oyalarga qurbon qilinganligini ko'rar edik. Sobiq Sovet Ittifoqini inqirozga olib kelgan muhim sabablardan biri ham shunda ekani shubhasizdir.

Shuning uchun O'zbekiston davlati o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari singari ta'lim sohasini ham tubdan isloh qilish vazifasi jamiyat oldida ko'ndalang bo'ldi. Chunki sho'ro hukumati boshqa sohalar singari milliy kadrlar tayyorlash masalasida ham riyokorona siyosat olib borardi. Eng nufuzli, jahon mezonlariga javob beradigan mutaxassislar etishtiradigan o'quv muassasalari aksariyat Markazda - Rossiyada joylashgan bo'lib, ittifoqdosh respublikalar, xususan O'rta Osiyo mintaqasidan bu dargohlarga kamgina vakillargina qabul qilinar, bunday imkoniyatga hamma ham ega emas edi. Buning oqibatida milliy respublikalarda noyob ixtisosga ega mutaxassislar etishmas edi, degan muammo sun'iy ravishda vujudga to'qib chiqilib, bu milliy respublikalarga ming-minglab «o'z odamlari»ni jo'natishga harakat qilishgan.

Davlat mustaqilligimizning birinchi kunlaridanoq xalq ta'limi tizimini tezlik bilan isloh qilish ishlari olib borildi. Ayrim o'quv yurtlarining maqomi, dasturlari va ta'lim uslublari sharoitdan kelib chiqqan holda butunlay o'zgartirish ishlari olib borildi. Shu davr uchun zamonaviy, shu vaqtgacha bo'lmagan eng zarur ixtisosliklar bo'yicha maxsus universitet va institutlar, hamda, Mudofaa vaziri qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti kabi yangi o'quv muassasalari tashkil etilganligini misollar asosida ko'rsatishimiz mumkin.

Har bir viloyatda ham yangidan-yangi o'quv yurtlari tashkil etilmoqda. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimovning 1992-yil 28-fevral Farmoni bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Buning barchasi respublika hukumatining izchil madaniy-ma'rifiy siyosatining yana bir isboti bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Bunday o'zgarishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad birinchidan, viloyatlarda oliy universitet ta'limini tashkil etish, bu joylarda ilmiy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga, eng uzoq va olis va chekka shaharlarni madaniy-ma'rifiy markazga aylantirishga sabab bo'ldi. Ilmiy va ma'rifiy ishlar xalq tomonidan juda yaxshi kutib olindi. Bu Respublikamiz aholisi ongi va dunyoqarashini kengaytirishda muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga mehnat jarayoni bilan bog'liq odamlar endi ilmiy yangiliklardan doimo va o'z vaqtida xabardor bo'lib kelishmoqda. Qanchadan qancha yangi ilmiy-texnikaviy ishlanmalar, ixtirolar, kashfiyotlar yaratilgan joyida tezroq ishlab chiqarishga joriy etilish imkonlari vujudga keldi.

Ikkinchidan, O'zbekiston tarixiy-jug'rofiy jihatdan xilma-xil sharoit va iqlimga ega bo'lgan mamlakat. Buning ustiga, turli hudud xalqlari umumiy tarixga ega bo'lgani bilan ruhiyati, yashash tarzi, voqelikka munosabati, uni idrok etish jihatidan ozmi-ko'pmi farqlanadi. Bu hol bir viloyatning o'zida ham turli ko'rinishlarda ko'zga

tashlanadi. Ana shunday mamlakatda har bir hududning o'ziga xos jihatlarini hisobga olmaslik mumkin emas edi.

Xususan, qadimiy Xorazm mashhur matematiklari, astronomlari, tarixchilari va davlat arboblari bilan, Farg'ona vodiysi esa dunyo tan olgan shoir-u, adiblari bilan mashhurdir. Ancha yillar davom etgan mustamlakachilik zulmi, o'ta darajada markazlashtirish oqibatida markazdan uzoqda istiqomat qiladigan xalqlarning ijtimoiy-madaniy dunyoqarashi ancha pasligicha qolaverdi. Buning barchasi mamlakat ishlab chiqarishiga, iqtisod va umuman kelajakdagi hayotiga ta'sir qilibgina qolmay, hattoki uning ayanchli oqibatlarini eslash ham insonlar uchun og'ir edi.

Bunday salbiy zararli oqibatlarni tezlik bilan yo'qotish uchun ham viloyatlarda universal ta'lim tizimini joriy etish zarurligi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri edi.

Uchinchidan, Har bir viloyat universitetlarining barpo etilishi hayot bilan ilmning, nazariya bilan amaliyotning yaqinlashuviga o'zining samarasini ko'rsatdi.

Hozirgi vaqtda ilm-u fan sohasida ham raqobat muhiti hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Busiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. Ilm-fandagi raqobat, adolat uchun kurashish yangi-yangi fikr va g'oyalarga turtki beradi, kishi dunyoqarashini kengaytiradi. Qaysi universitet o'z ixtirolari, ilmiy xulosa va ishlanmalari bilan nom chiqarsa, o'sha universitetning nufuz va e'tibori osha boradi, buni albatta hayot ko'rsatmoqda.

To'rtinchidan, Har bir viloyatlarning kelajakdagi taraqqiyoti o'z hududlardagi oliy ta'lim markazlari bilan alohida bog'liqdir. Viloyatlarda ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish va yuqori natijalarga erishish uchun yangi sohalarni egallash, yangi ixtisosliklarni tashkil etish, zarur kadrlarni shu joyning o'zda tayyorlash dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Oldinlari respublika markazida o'qigan mutaxassislarni viloyatlarga yuborish masalasi ancha-muncha qiyin vazifalardan biri edi. Har bir viloyatda universitetlar tashkil etilishi bilan bu masalaga ham oydinlik kiritildi.

Beshinchidan, viloyatlardagi ochilgan universitetlar yordamida jahonning eng etakchi, mashhur o'quv yurtlari bilan hamkorlik qilish ishlari imkoniyati ochildi. Qilingan ijobiy ishlar orqali dunyoda bo'layotgan yangiliklarni, eng so'ngi texnologiyalari bilan tanishish va mamlakatimizga olib kirish eshiklari ochildi.

Respublikamiz hududlarida oliy ta'limni tashkil etishda ilg'or davlatlar tajribasi o'rganilib, O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga ham joriy etildi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarining Kembrij shahridagi Garvard, Stenford, Priston, Buyuk Britaniyaning Oksford, Lid, Fransiyaning Strasburg, Lion, Dijon, Grenobl shaharlari nomi bilan ataluvchi universitetlari bu mamlakatlarning poytaxtlarida emas, turli

viloyatlarida joylashgan bo'lishiga qaramasdan, o'zining yuksak malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatlari bilan jahonda nom qozongan.

Davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach O'zbekiston yoshlarga hozirgi zamonning eng zamonaviy bilimlarini berish, yoshlarni davr talabiga mos mutaxassis qilib shakllantirish uchun barcha chora va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan iste'dodli va iqtidorli yoshlarni chet el universitetlarida o'qitish masalasi hal qilindi. Davlatimizning xalqaro nufuzi ortishi bilan har yili dunyoning mashhur oliygohlariga borib o'qishlari uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

Mustaqilligimizdan so'ng O'zbekistondagi umumiy ta'lim maktablarining test sinovlaridan o'tgan 50 dan ziyod o'quvchisi AQShdagi nufuzli universitetlarga borib o'qishlari uchun imkoniyat yaratildi. Respublikamizda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda talabalarning xorijda o'tadigan amaliyotlariga va qo'shma korxonalar, firmalar, auditorlik kompaniyalarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tishlariga barcha sharoitlar yaratilmoqda. Ayni kunlarda yurtimizdan 700 nafar talaba chet mamlakat oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy ixtisoslar bo'yicha tahsil olib kelishmoqda. Bir necha ming talaba 3 oydan bir yilgacha xorijiy o'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan mulkchilikning barcha xususiy shakllari uchun sharoitlar yaratildi. Bu muammo, ayniqsa, qishloq joylarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qishloqda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, qishloq sharoitida yashayotgan yoshlarini faol ishbilarmonlik faoliyatiga yo'naltirish uchun 1995-yil boshidan qishloq joylarida joylashgan kasb - hunar bilim dargohlari va o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash va qayta isloh qilish ishlari amalga oshirilib kelindi.

Respublikamizdagi viloyat va tumanlarda tadbirkorlik va ishbilarmonlik o'quv yurtlari, kasb litseylari, biznes maktablar kichik va o'rta biznes, fermerlik xo'jaliklari, aholiga xizmat ko'rsatish va boshqa sohalar uchun kollejlar tashkil etilgan edi.

O'sha vaqtlarda 160 ta kasb-hunar litseylari, biznes-maktablari va 41 ta kollej faoliyat ko'rsatib kelgan. Bu o'quv maskanlarida 112,3 ming yigit-qizlar tahsil olishgan. Respublikamizda xalq xo'jaligi talablari uchun 466 hunar-texnika bilim yurti kadr tayyorlab berishgan. Shu bilan birgalikda mustaqillik yillarida Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Umumiy ta'lim uzluksiz davlat ta'limi tizimida asosiy soha bo'lib, ta'lim oluvchilarga ilmiy bilim berishni, mehnat ta'limi, boshlang'ich kasb ko'nikmalari, tadbirkorlik sirlarini o'rgatish, shuningdek, o'z ijodiy qobiliyatlari va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishlarini ta'minlaydi.

**Umumiy ta'lim "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-bandiga muvofiq uch bosqichdan iborat:**

- boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);
- tayanch ta'lim (V-IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X-XI sinflar).
- Ta'lim haqidagi davlat siyosatining asosiy mohiyati tayanch ta'limining (to'qqiz yillik) majburiyligidir.

Oliy Majlisning 1997-yil 29-avgust kuni bo'lib o'tgan IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunga binoan ta'limning yangi tizimi yaratildi. Aynan qonunning 10-moddasida belgilab qo'yilganidek O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:
- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.
- Shuningdek, mazkur qonunning 12-moddasida umumiy o'rta ta'limning quyidagi bosqichlari ko'rsatilgan:
- boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);
- umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar).

Oliy Majlisning 1997-yil 29-avgust kuni bo'lib o'tgan IX sessiyasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ham qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti sifatida maktab ta'limining orqada qolishiga barham berish hamda maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va uzluksiz ta'limning yagona tizimini shakllantirish bilan bog'liq mavjud jiddiy muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 19-fevraldagi F-1910-sonli Farmoyishi bilan tuzilgan Maxsus komissiya va ishchi guruhlar tomonidan respublika mintaqalaridagi barcha umumiy ta'lim maktablari to'liq ro'yxatdan o'tkazildi. Ularning moddiy-texnika bazasining hozirgi holati tanqidiy va batafsil o'rganib chiqildi. Shuningdek, farmonda "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"ni amalga oshirish mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichidagi eng muhim vazifa, deb hisoblandi va maktab ta'lim tizimini tubdan yaxshilashni; eng yuqori zamonaviy talablarga mos keladigan o'quv-moddiy bazasi va ta'lim standartlari shakllantirilishini; yashash joyidan qat'i nazar, qishloq va shahar maktablarining moddiy bazasi hamda ta'minlanish darajasidagi tafovutlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish asosida bolalarning ta'lim olishi uchun teng shart-sharoitlar yaratilishini; o'qituvchilar mehnati har tomonlama rag'batlantirilishini ko'zda tutuvchi Davlat

umummilliy dasturining asosiy tamoyillari va maqsadli vazifalari ma'qullandi. Mustaqillik yillarida mamlakatda Oliy ta'limni rivojlantirishga ham katta e'tibor berildi. Shu maqsadda 2006-yili 26-fevralda mamlakatimiz Prezidentining "M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Tibbiy xizmat sohasida zamon talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash maqsadida 2005-yili poytaxtimizdagi ikkita tibbiyot oliy o'quv yurti negizida Toshkent Tibbiyot Akademiyasi tashkil etildi. Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari huzurida tashkil etilgan akademik litseylar yoshlarga o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumot olish uchun yanada chuqur bilim egallash, kollejlar esa maxsus fanlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan har bir bitiruvchi yigit-qizga o'z qobiliyatini yuzaga chiqarish va jamiyatda munosib o'rin topish uchun 2-3 mutaxassislik bo'yicha o'rta malakali kasb egallash imkonini beradi. Oliy ta'lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi, bakalavr va magistrlar tayyorlashning Yevropa tizimiga o'tildi. Bugungi kunda mamlakatimizning 100 tadan ortiq oliy o'quv yurtida turli yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha ko'plab talaba bilim olmoqda. O'tgan yillar mobaynida zamonaviy, har tomonlama jihozlangan o'quv yurtlarini barpo etish uchun 5 milliard dollardan ortiq byudjetdan tashqari mablag'lar yo'naltirildi. Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida 12 foizdan ortadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi. Hech shubhasiz, bugun ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasiga sarflanayotgan mablag'lar mamlakatimiz kelajagining egasi bo'lgan yosh avlodni, yuksak intellektual salohiyatli jamiyatni shakllantirish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tarix - xalq ma'naviyatining asosi. Ta'lim va tarbiya berishning asosiy maqsadlaridan biri O'zbekistondagi barcha fuqarolarni, asosan O'zbekiston fuqarolarining 65 foizini tashkil qilgan yosh avlodni O'zbekistonga mehr-muhabbatli qilib voyaga etkazishdir. Ayni vaqtda eng so'ngi bilimlar orqali o'sib kelayotgan yoshlarda Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otish davr talabiga aylanmoqda. "O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi", - deb aytgan edi Birinchi Prezident I.A. Karimov. Bu muhim vazifaning kun tartibiga qo'yilishi albatta bejiz emas. Istiqlolning ilk kunlaridan boshlab yoshlar dunyoqarashida eskicha dunyoqarash, jahon taraqqiyotidan orqada qolib kelayotgan bilimlar, o'z ahamiyatini yo'qotgan qarashlar hali ham saqlanib qolmoqda edi. Masalan, shu kungacha oliy ta'limning birinchi vazifasi muayyan miqdorda zamonaviy bilim va dunyoqarashga ega bo'lgan, ongida mafkuraviy yo'l-yo'riqlarni singdirgan kadrlarni shakllantirishdan iborat qilib qo'yilgan edi. Hammamiz bilamizki, KPSS tarixi, ilmiy kommunizm, dialektik va tarixiy materializm, siyosiy iqtisod, tarix, huquq, adabiyot va boshqa

fanlar siyosiy jihatdan cheklab qo'yilgan bo'lib, maqsad yoshlarda yuzaki, maddohlik yo'nalishida fikrlaydigan qilib qo'ygan edi. Ta'limni insonparvarlashtirish, ta'limni siyosiy mafkuradan xoli qilish borasidagi muhim vazifalardan biri yurt tarixini o'rganishga alohida ahamiyat qaratilishi bo'ldi. Yoshlarni mehr-oqibatli qilib voyaga etkazish uchun, oliy bilim maskanlarida sobiq KPSS tarixi kafedralari o'rnida O'zbekiston Respublikasi xalqlari tarixi kafedralari tashkil etildi. Umumta'lim maktablarda Vatanimiz tarixi o'tgan yillarga qaraganda 3 barobar chuqurroq ta'lim berila boshladi. Xulosa qiladigan bo'lsak, Vatanimiz tarixini bilish keng qamrov olib, o'zining samarasini ko'rsata boshladi. O'tmish haqidagi bilimlar o'sib kelayotgan yoshlarni ko'p narsaga ongli ravishda qarashga undamoqda. Yoshlarning har birining qalbida Vatanga mehr tuyg'ularini, bugungi kun qadriga etish hissini shakllana boshlaganini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, Respublikamiz Oliy Soveti XI sessiyasida Mustaqillik kuniga tayyorgarlik ko'rish haqida qaror qabul qilingan edi. 1992-yil 22-avgustda "O'zbekiston o'quv yurtlarida har yili 1-sentyabrda "Mustaqillik kuni"ni o'tkazish to'g'risida" Prezident Farmoni e'lon qilindi.

**2020-yil 23-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni mazmuni.** Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun loyihasining ikkinchi o'qishdagi muhokamasi qizg'in kechdi. Deputatlar 2020 yil 5-6 may kunlari bo'lib o'tgan palata majlisida qonun loyihasini moddama-modda, bobma-bob muhokama qildilar. Muhokama davomida bir necha moddalar yuzasidan bir fikrga kelinmaganligi sababli ular ustida ishlarni davom ettirish hamda kelgusi majlisda ana shu moddalar atrofida to'xtalib o'tishga qaror qilingan edi albatta.

Shundan so'ng mas'ul qo'mita barcha fraksiyalar, deputatlardan tushgan taklif va mulohazalarni jamlab, mutaxassis va ekspertlar ishtirokida qonun loyihasi ustidagi ishlarni davom ettirdi. 2020 yil 23 sentyabrda esa O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun 11 bob, 75 moddani qamrab olgan. Ahamiyatli tomoni shundaki, yangi qabul qilingan Qonunda "ta'lim", "tarbiya", "ta'lim kampusi", "malaka", "davlat ta'lim muassasalar"iga ta'rif berilgan. Bu har bir moddaning mazmun va mohiyatan boyitilganining dalolatidir. Qonunda ta'lim shakllari va turlari kengaytirilib, ayniqsa professional, inklyuziv, dual ta'lim turi hamda shakllariga keng e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati. Jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirishdagi islohotlar. Tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, yurtning ravnaq topishi va obod bo'lishi maqsad qilib qo'yilgan davlatda birinchi o'rinda yoshlarni tarbiyalashga, ularga zarur shart-sharoit yaratib berishga ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim. Mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridanoq yoshlar masalasiga keng e'tibor qaratildi. 1991 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni qabul

qilindi. Bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan. Davlat va jamiyat taraqqiyotida yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, ularning xohish istaklarini ro'yobga chiqarish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuniga 2016 yil 14 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev Qonunga imzo chekdi. 15 sentyabrdan Qonun haqidagi hujjat "Narodnoe slovo" va "Xalq so'zi"da nashr etildi va shu kundan kuchga kirdi. Qonun 4 bob, 33 moddadan iborat bo'lib, ushbu Qonunning maqsadi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, bilim olish imkoniyatlarni kengaytirish, biznes bilan shug'ullanish va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Sport madaniyatning ajralmas qismidir, bundan tashqari, sport barkamol shaxsni tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganining dastlabki yillaridayoq "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun (1992-yil 5-fevral) qabul qilindi va bu ommaviy sportni rivojlantirishning muhim institutsional asosi hisoblandi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda yoshlarni sportga keng jalb etish muhim o'rin tutadi, buning yaqqol isboti sifatida byudjet, homiylik va xayriya mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

Mustaqil O'zbekistonda dastlabki yillarda 6 mingdan ortiq sport-sog'lomlashtirish majmualari qurildi va rekonstruksiya qilindi, shundan 2003-2011-yillarda 1480 tasi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. Bunyod etilgan sport inshootlari orasida bular, asosan, tennis kortlari, futbol maydonlari va stadionlar, suzish havzalari va sport zallari. Agar 1991 yilda O'zbekistonda 4400 ga yaqin sport zali, 114 ta suzish havzasi va 185 ta stadion mavjud bo'lsa, 2014 yilga kelib 8900 ta sport zali, 230 ta suzish havzasi va 390 ta stadion mavjud bo'ldi.

Har yili o'tkaziladigan sport musobaqalarining uch bosqichli yaxlit tizimi shakllantirildi – maktab o'quvchilari uchun alohida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quvchilari uchun, universitet talabalari uchun Universiada o'yinlari. Bu yuz minglab bolalar, o'g'il-qizlarni ommaviy jismoniy tarbiya, dam olish va sport harakatlariga jalb etish imkonini bermoqda. 1992-yil yanvar oyida Milliy olimpiya qo'mitasi tuzildi, u XOQning 1993-yil sentyabr oyida XOQning 101-sessiyasida xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi.

O'zbekistonlik sportchilar boksdagi izchil yuqori natijalarga ega bo'ldi. Xullas, 1999-yil avgust oyida boks bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi Xyuston shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha X jahon chempionatida 83 davlatdan kelgan jamoalar AQSh va Kuba terma jamoalariga imkoniyatni boy berib, faxrli 3-o'rinni egalladi.

1996-yil 14-avgust Poytaxtimizda Olimpiya shon-shuhrati muzeyi ochildi, unda O'zbekistonlik Olimpiya qahramonlarining nomlari bitilgan edi.

Mustaqillik yillarida respublikada tennis keng rivojlandi. 168 ta tennis korti qurildi, ularning bir qismi ta'lim muassasalari hududida. 1994-2002-yillarda O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun nufuzli xalqaro turnirlarga mezbonlik qilgan Toshkentdagi Yunusobod tennis korti jahon andozalariga javob beradigan eng yiriklaridan biri bo'ldi.

O'zbekiston sportining yangi tarixida eng muhim yutuq milliy kurash kurashining qayta tiklanishi bo'ldi. 1992 yilda Termiz va Shahrisabzda kurash bo'yicha xalqaro musobaqalar bo'lib o'tdi. 1999 yil may Poytaxtimizda kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi va unda 50 davlatdan sportchilar ishtirok etdi.

2002-yilning oktyabr oyida Kurash xalqaro assotsiatsiyasi Xalqaro sport tashkilotiga a'zolikka qabul qilingani milliy kurashning xalqaro sport turi sifatida e'tirof etilishini anglatadi. Mamlakatimiz poytaxtida har ikki yilda bir marta Amir Temur va Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqalar bo'lib o'tadi. Respublikada futbolning nufuzi ortib bormoqda. O'zbekiston Futbol Federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami Ravshan Yermatov o'zbek futbolini ulug'lash, jahon miqyosida e'tirofini oshirishga faol hissa qo'shdi.

**San'at, adabiyot va madaniyatni takomillashtirishdagi chora-tadbirlar.**

"Madaniyat" kategoriyasi zamonaviy qo'llanishda keng va tor ma'noga ega. Tor ma'noda, odatda, san'at bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyat sohalarini anglatadi. Keng ma'noda madaniyatni ijtimoiy amaliyotda mustahkamlangan va ma'lum belgilar tizimlari (lingvistik va nolingvistik) yordamida avloddan-avlodga o'tadigan inson faoliyati shakllari va natijalari to'plami deb atash odatiy holdir.

O'zbekistonda 8 mingdan ortiq tarixiy, madaniy, me'moriy, arxeologik ahamiyatga ega obyektlar mavjud bo'lib, ulardan 545 tasi me'moriy, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi san'at yodgorliklari, 5500 dan ortiq arxeologik yodgorliklardir. Bu tizimga 300 dan ortiq muzey va 1200 dan ortiq xalq amaliy san'ati korxonalari kiradi.

Mamlakatimizda san'atni rivojlantirishga keng e'tibor qaratilgan. Barcha viloyatlarda musiqa maktablari, gimnaziyalar faoliyat ko'rsatadi. Bu borada yangi oliy o'quv yurtlari ochildi. Shahrisabz shahrida xalqaro "Maqom festivali" o'tkazib kelinadi. Iqtidorli yoshlar uchun "Nihol" milliy mukofoti ta'sis etilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusda ham yoshlarni san'at, milliy musiqaga qiziqtirish va jalb qilish ko'zda tutilgan.

Jamiyatni ma'naviy yangilashni amalga oshirishdan kelib chiqib, Samarqand shahrida har ikki yilda "Sharq taronalari" musiqa festivali o'tkazilib, uning geografiyasi, ishtirokchilar soni yildan-yilga kengaymoqda va oshmoqda.

Respublikamizda adabiyotni rivojlantirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish borasida keng amaliy sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Yaqin yillar ichida poytaxt markazida "Adiblar xiyoboni" majmuasi qad rostladi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Zulfiyaxonim kabi adiblar ijodiy maktablari ochildi. Kitobxonlik keng targ'ib qilayotgan yoshlar uchun maxsus Prezident sovg'asi berib borilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning to'rtinchisi kitobxonlikni targ'ib qilish qilib belgilangan. Eng yaxshi sara asarlar, matbuot chiqishlari uchun har yili "Oltin qalam" tanlovi e'lon qilinadi.

## O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi va uni rivojlantirishning konseptual asoslari.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng boshqa sohalarda bo'lganidek, tibbiyot sohasiga ham alohida e'tibor berildi. Sog'liqni saqlash ishini tubdan yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirila boshladi. Bu masalada birinchi bo'lib, 1992-yilning 3-iyulida O'zbekiston Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida" qonuni qabul qilindi. Mazkur qonundan asosiy maqsad sanitariya epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini va radiatsiya xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, odamni qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini hamda u bilan bog'liq boshqa huquqlarni va ularni amalga oshirish kafolatlarni mustahkamlashdan iborat. Shuningdek sanitariya qonunlarni buzilishini oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yishga qaratilgan sanitariya epidemiologiya xizmatining faoliyatini takomillashtirishdan iborat bo'lgan. 1996-yil 29 avgustda "O'zbekiston fuqarolarining sog'lig'ini saqlash to'g'risida" maxsus Davlat qonuni qabul qilindi. Bu hujjatda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan quyidagi uchta muhim masala qonunlashtirib qo'yildi:

- Fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga doir huquqlarining davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash.
- Fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish.
- Mamlakatdagi barcha davlat va ommaviy jamoa tashkilotlarning fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Mazkur Qonunda fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy tamoyillari belgilab qo'yildi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;
- aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamidan bahramand bo'la olishi;
- profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;
- sog'lig'ini yo'qotgan fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;
- tibbiy fanlarning amaliyot bilan birligi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ikkinchi muhim tadbir sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'ldi. Bu haqda mamlakat prezidenti 1998 yilning 10 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida" maxsus farmon chiqardi. Bu farmonga muvofiq, sog'liqni saqlash tizimida xizmat qiluvchi mutaxassislar, olimlar, huquqshunoslar va bu ishga daxldor tashkilotlar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi sog'lig'ini saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini ishlab chiqdilar. Bu dastur Respublika Sog'liqni saqlash vazirligining kollegiyasi va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasida muhokama qilinib, sog'liqni saqlash tizimini isloh. qilishning asosiy dasturi sifatida tavsiya etilgan edi.

Farmonda ta'kidlanishicha, aholining malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va ijtimoiy himoyaga doir Konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, shuningdek, tibbiy xizmatning sifatini yaxshilash uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, sog'lom avlodni tarbiyalash, sog'liqni saqlash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq holga keltirishga qaratilgan.

1998-2005 yillarda O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini amalga oshirishga doir asosiy chora-tadbirlar tasdiqlandi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini amalga oshirilishini nazorat qilib turish uchun maxsus Respublika Komissiyasi tuzildi. 1999-yil 14 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi va uning joylardagi organlarining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Bu vazifalar quyidagilardan iborat: sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturiga muvofiq sog'liqni saqlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish; aholiga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning davlat tomonidan kafolatlangan darajasi va sifatini ta'minlash; aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini tashkil etish va mustahkamlash; davolash-profilaktika muassasalarining bosqichma-bosqich pullik xizmat ko'rsatishga o'tkazish; jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy klinikalarni barpo etish. Shuningdek, qarorga muvofiq sog'liqni saqlash vazirligi tizimida Nazorat inspeksiyasi tashkil etilgan edi.

O'zbekistonda Onalik va bolalikni muhofaza qilish muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy - gigiyenik masala hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2000 yilni "Sog'lom avlod", 2001-yilni "Onalar va bolalar", 2005-yilni "Salomatlik yili", 2008-yilni esa "Yoshlar" yili deb e'lon qilinishi, "Sog'lom avlodni shakllantirish, onalar va bolalar salomatligini muhofazalashning qo'shimcha chora - tadbirlari haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (№ PQ-1096, 2009 yil 13 aprel) buning isbotidir.

Istiqlolimizning ilk yillarida sog'liqni saqlash tizimida respublikamiz qo'lga kiritgan yutuqlarga xalqaro hamjamiyat tomonidan alohida e'tibor berildi. Aholining umr ko'rishi 4,6 yoshga – 1995-yildagi 69,1 yoshdan 2017-yilda 73,7 yoshga yetdi. Tug'ruq vaqtida onalar o'limi ko'rsatkichi 3,1 baravarga kamayib, 100 ming nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 21 ta holatni tashkil etdi, chaqaloqlar o'limi esa 3,1 baravarga kamayib, 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 11,5 ta holatni tashkil etdi. Tug'ilgan chaqaloqlarda ko'p uchraydigan kasalliklarga qarshi emlash va profilaktika tadbirlari bilan qamrab olish darajasi 96 - 98 foizda qat'iy saqlanib kelmoqda.

Respublikamizda fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligini tubdan yaxshilashni kafolatlaydigan sog'liqni saqlash sohasini barpo etish va moliyalashtirishning konseptual jihatdan yangi usullarini shakllantirish, tibbiyot fani va texnologiyalarining zamonaviy yutuqlarini amaliyotda qo'llash, shu bilan birga, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha ***Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq:***

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari deb hisoblansin:

- sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni uni unifikatsiyalash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, tibbiyot xodimlarining mas'uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunlarni qabul qilish orqali takomillashtirish;
- jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etishni ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini va hududlarda sog'liqni saqlashni tashkil etishning "klaster" modelini shakllantirish, tibbiyot va farmatsevtika muassasalarini akkreditatsiya qilish, shifokorlik va farmatsevtik faoliyatni litsenziyalash tizimini joriy etish;
- tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini belgilash, tibbiy xizmatlar uchun klinik-xarajat guruhlari bo'yicha "har bir davolangan holat" uchun to'lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish;
- tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish;
- tibbiy genetikani, ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida, zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, "Ona va bola"

hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot majmualari va ma'lumotlar tizimlarini shakllantirish asosida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

- xususiy sog'liqni saqlash tizimi, davlat-xususiy sherikligini va tibbiy turizmni rivojlantirish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va raqobat muhitini yaxshilash;
- farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish;
- tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot fanini rivojlantirish, shu jumladan, tibbiyot ilmiy va ta'lim muassasalarini xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiyadan o'tkazish) zamonaviy ta'lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etish asosida;
- "elektron sog'liqni saqlash" tizimini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi majmuasini yaratish. 2018 yil 7 dekabrda 2019-2025 yillarda Respublikamizda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiya 4 ta bo'limdan iborat bo'lib. Shu konsepsiyaning mohiyatiga asosan, 2019 yil 1 apreldan boshlab O'zbekistonning barcha qishloq tumanlarida tibbiyot muassasalarini "har bir davolangan holat" uchun klinik-xarajat guruhlari bo'yicha va kishi boshiga moliyalashtirish tizimini eksperiment tartibida joriy etish;
- eksperiment natijalarini tanqidiy tahlil qilish asosida moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini 2020 yil 1 apreldan boshlab respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- 2019 yil 1 iyuldan boshlab viloyat va tuman (shahar) darajasidagi statsionar sog'liqni saqlash muassasalarida aralash moliyalashtirish tizimini joriy etish, bunda kafolatlangan bepul tibbiy xizmat hajmiga kirmaydigan davolash turlari pullik asosda amalga oshiriladi;
- 2019 yil 1 iyuldan boshlab ayrim davolash-profilaktika muassasalarini ishlab chiqilgan investitsiya loyihalari asosida belgilangan tartibda investorlarga ishonchli boshqaruvga berish;
- 2021 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasida majburiy tibbiy sug'urtalashni bosqichma-bosqich joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tarkibida Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligini tashkil etish ham konsepsiyada belgilandi.

Xalqaro hamkorlik. Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarni profilaktika va nazorat qilish" texnik hamkorlik loyihasi bo'yicha fikrlashuv bayonnomasini

imzolashdi. Ushbu hujjatning imzolanishi JIKA'ning 2017–2021 yillarda O'zbekistonda yangi loyihani ishga tushirishini anglatadi. Muloqotlar yakuniga ko'ra, ikki tomon Jamoatchilik salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil etish ilmiy-tadqiqot instituti JICA bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihani tashkillashtirish uchun mas'ul etib belgilashga kelishishdi.

Qayd etish joizki, loyihani amalga oshirish 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasiga, xususan, fuqarolar sog'lig'ini himoya qilish tizimini takomillashtirish va aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirishni qamrab olgan 4 ustuvor yo'nalishga to'liq mos keladi.

Kutilishicha, "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarni profilaktika va nazorat qilish" texnik hamkorlik loyihasi Sog'liqni saqlash vazirligining loyihaning maqsadli hududlarda, xususan, respublikamizning Toshkent va Navoiy viloyatlarida yuqumsiz (ko'proq, yurak-qon tomir va diabet) kasalliklar xavfi omillari ko'rsatkichlarini pasaytirish borasidagi sa'y-harakatlariga ko'mak beradi. Shu bilan bir qatorda, loyihaning maqsadi hududlarida yuqumli bo'lmagan kasalliklarning ba'zi ko'rinishlariga qarshi kurashishda pirovard natijada yukini baholash va dastlabki zveno tibbiyot muassasalari darajasida sog'liqni saqlash tizimi e'tiborini qaratish uchun ma'lumotlarni samarali to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash va taqsimlash ishlarini amalga oshirish vositasida loyiha kelgusida Sog'liqni saqlash vazirligi va Jamoatchilik salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil etish ilmiy-tadqiqot instituti filiallari salohiyatini oshirishga o'z hissasini qo'shadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Kipr Respublikasi Hukumati o'rtasida sog'liqni saqlash va tibbiyot fani sohasida hamkorlik to'g'risidagi Bitim kuchga kirdi va hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda Yagona elektron ro'yxatga olish va internet tarmoq orqali shifokor qabuliga yozilishni ta'minlab beruvchi "Elektron poliklinika" avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishga tushirilishi natijasida hududlarda yashovchi fuqarolarning yagona tibbiy kartasi yaratilmoqda. Bunday tizim orqali fuqarolarimiz respublikamizning barcha tibbiyot muassasalaridan o'zining kasallik varaqalaridan elektron tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

**Texnologik usullar:**

SWOT- tahlil. Bu organayzer talabalarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi
SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi.
Weakness-kuchsiz jihatlari; Opportunities- tashqi imkoniyatlari;

Threas- tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S W O T yozib yoniga obyektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. 2020 yil 23 sentyabrda Prezident Sh. Mirziyoyev BMTning 75 yubileyida Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga oid fikrlari.
2. Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yo'lida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
3. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.
4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish uchun nimalar qilinmoqda?
5. Bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'atga jalb qilish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

**Vazifalar:**

Ta'lim, sport, madaniyat, sog'liqni saqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmun-mohiyati haqida referat tayyorlash.

**Mustaqil ta'lim uchun vazifalar**

1. Taqdim etilgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. " Sog'liqni saqlash " va "Sport " mavzularida SWOT tahlil jadvalini tuzing.
3. Mavzuga oid maxsus kompleks ish tayyorlang: 15 blitst savol,10 test va 12 ta so'zli krossvorddan iborat.
4. Mavzu bo'yicha mustaqil ish tayyorlang (slayd-prezentatsiya).

**4- mavzu. Buyuk Ipak yo'li va hozirgi zamon. O'zbekistonning turizm salohiyati.**

**Reja.**

1. Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Buyuk ipak yo'lining turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati.
3. O'zbekistonning turizm imkoniyatlari

**Mashg'ulot maqsadi:** buyuk ipak yo'lining shakllanishi, qadimgi nomlari, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rnini tushuntirib berish.

**Tayanch tushunchalar:** Oltin yo'l, Lojuvard yo'li, buyuk ipak yo'li, buyuk ipak yo'lining tarmoqlari, tranzit yo'li, YUNESKO, strategik yo'l.

**Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi.**

Insoniyat mavjud ekan, xalqlar o'rtasida aloqalar bo'lib kelgan. Odam, urug' jamoa, qabila, elat keyinchalik ularni hududiy, iqtisodiy va siyosiy birlashmalari paydo bo'lgan, davlatlar o'rtasida o'zaro madaniy-iqtisodiy, siyosiy qarashlar qaror topib borgan. Buning barchasi muloqot yo'llarini paydo bo'lishiga olib kelgan.

Miloddan avvalgi VI-I asrlarda Eron Ahamoniylari hukmronligi o'rnatilgandan so'ng, bu erlarda "shox yo'li" shakllangan. Ilk bor Markaziy Osiyo hamda Yaqin Sharqda Badaxshon lojuvardiga bo'lgan talab "lojuvard yo'li"ning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Lojuvorddan Mesopotamiya va Misr podsholarining saroy va ibodatxonalarini bezashda, ayollar bezaklarini ishlashda keng foydalanilgan. Bu yo'llar asta sekinlik bilan "Ipak yo'li" nomini olib, G'arbni Sharq bilan bog'lagan. Buyuk ipak yo'li XIX asrning 70-yillarida olmon olimi F.Rixtgofen tomonidan "Ipak yo'li" deb ilk bor tilga olinsa-da, ungacha "g'arbiy meridional yo'l" nomi bilan shuhrat topgan.

Tarixchilar ipakning vatani deb Xitoyni tan olishadi. Xitoy ipagi miloddan avval 3 ming yillikdayoq mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Xitoyda olimlar tomonidan olib borilgan arxeologik tekshiruvlar natijasida aniqlangan qo'lyozmalarda "Ipak", "Tut daraxti" degan nomlar uchraydi. Hozirgi kunda Xitoyning Shandun va Xonan viloyatlarida yovvoyi tut daraxtlari borligi va unda pilla qurtlar boqib kelinayotganligi hammaga ma'lum. "G'arbiy meridional yo'l" Xitoyning Sian shaxridan boshlanib, Dunxuanga keladi va ikki yo'nalishga bo'linadi.

1-yo'l: Janubi-g'arbiy yo'nalish hisoblanib, Taklo-Makon cho'li orqali Xotanga, keyin esa, Yorkentga etib kelib, Pomir tog'lari orqali Vaxonga, va Baqtriyaning poytaxti Zariaspga (Balx) kelgan. Balxda yo'l uch tarmoqqa: Marv,. Hindiston, Termiz tomonga yo'nalgan. Termiz orqali o'tadigan yo'l Darband, Nautaka, Samarqandga olib borgan.

2-yo'l: Shimoliy-g'arbiy yo'nalish bo'lib, Dunxuandan Balx, Kuchi, Turfon orqali Tarim vohasiga — Qashqarga etib kelgan. Bu yo'l keyin Toshqo'rg'on orqali O'zgan, Osh, Quva, Axsikent, Popga, undan Asht yo'nalishi orqali Xo'jand, Zomin, Jizzaxga etib kelib, so'ng Samarqandda Nautak yo'li bilan qo'shilgan. Yo'l Samarqanddan g'arbga — Dabusiyaga, Malik cho'llari orqali Buxoro va Romitonga, keyin esa Varaxsha orqali Poykent va Forobga etib kelib, Omul shahriga o'tgan. Marvdan Urganchga qarab ketgan. Marvdan g'arbga qarab ketgan katta karvon yo'li Tabriz, Parfiyaning poytaxtiga Nisa shahriga, keyin esa Erondagi Gekotompil, Apaliya va Yekbatana (Xamadan) shaharlariga, undan o'tib Mesopotamiyadagi Ktesefon, Bog'dod va Dajla bo'ylab shimoldagi Antioxiya, Damashq, undan Tir va Quddus shaharlari orqali Misrgacha etib borgan. Marvdan boshlangan shimoliy yo'l Omul orqali Urganchga, keyin Shimoliy Kaspiy orqali Shimoliy Kavkazga, so'ngra Qora dengizning shimolidan Konstantinopolga etib, Bosfor va Dardanel bo'g'ozi orqali Vizantiya shaharlariga borilgan. Xitoy imperatorlari ipak yo'li orqali o'zidan g'arbda joylashgan davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatishgan. G'arb va Sharq davlatlarining o'zaro aloqalari bir xil tekis davom etmaganligi tarixchi olimlar tomonidan aniqlangan. Masalan, Hindiston davlati bilan aloqa qilishni hohlamagan. Sababi shuki, bu harakat ostida "ulkan iqtisodiy siyosat turar edi". Qolaversa, "ipak yo'li" uchun kurash III-asrdan boshlab Eron va Markaziy Osiyo o'rtasida o'zaro urushlar bo'lib turgan.

O'rta Osiyo orqali o'tgan ipak yo'llari ustidan so'g'dlar nazoratni o'rnatishgan. Shu maqsadda Kaspiydan to Xitoygacha cho'zilgan yo'llar atrofida qo'riqlash inshootlari qurilgan. Bu joylarda so'g'dlarning qo'riqlovchi va savdo bilan shug'ullanuvchi vakillari turishgan.

III-VII asrlarda Markaziy Osiyo va O'rta Sharq yo'nalishi orqali o'tgan savdo yo'lining nazorati so'g'dlar qo'lida bo'lsa, VIII asrning o'rtalariga kelib bu o'zgandi. Sharqiy Turkistonda xam "ipak yo'li" nazorati Tan dinastiyasi o'z ta'sirini o'tkazolmay qoldi. Bularning barchasi quyidagi xulosaga olib keladi:

1. Ipak yo'li Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim rol o'ynaydi. O'rta Osiyo xalqlari G'arb va Sharq dunyosi va ularning xo'jalik kashfiyotlaridan bahramand bo'lishgan.

2. Ipak yo'lida O'rta Osiyo Sharq bilan G'arb o'rtasida bog'lovchi vazifani bajargan. Bu esa O'rta Osiyoda migratsiya jarayonini kuchaytirdi. Hamda turkiyzabon xalqlarni keng yoyilishiga sababchi bo'ldi.

3. Ipak qurtining ilk markazi Xitoydagi Shandun viloyati hisoblanadi. III-asrga kelib ipakchilik markazi Sharqiy Turkistonga, keyin esa Farg'ona vodiysiga, So'g'd, Eron va Vizantiyada keng yoyildi.

4. VI-asr ikkinchi yarmiga kelib turk imperiyasi O'rta Osiyo, Yaqin Sharq, Sharqiy Turkistonda ipak yo'li nazoratini o'z qo'llariga olishadi, IX-X asrlarda somoniylar, XI-XII asrlardan qoraxoniylar, saljuqiylar, XIII asrdan mo'g'ullar, XIV asr 70-yillarda Temur davlati o'z qo'liga oladi.

5. Savdo yo'llari savdosida So'g'dlar asosiy o'rinda turishgan. IX asrgacha so'g'd tili jahon tili sifatida keng ishlatilgan. Buni asoslovchi arxeologik manbalarda topilgan so'g'd yozma manbalar Kaspiydan to Xitoydagi Dunxuangacha bo'lgan joylardan ham topib o'rganilgan.

6. Savdo yo'llarini taraqqiy ettirishda Parfiya, Eron, turk, kushon, toxar, uyg'ur, Tibet, baqtriyaliklarning o'rni alohida e'tiborga loyiqdir.

Ipak yo'lining paydo bo'lishi, uning taraqqiy etish davrlarini aniqlar ekanmiz, yuqoridagi fikrlarimizni akademik A.Asqarov ham o'zining qator ilmiy risolalarida asoslab bergan. Masalan, Hindistonda tut daraxtlari va yovvoyi ipak qurtlari mavjudligi, bu haqida xalq orasida qator afsonalar saqlanib qolganligini aytib o'tgan. Markaziy Osiyoning hozirgi Surxon vohasida o'rganilgan, hamda arxeologik jihatdan o'rganilgan bronza davriga oid Sopollitepa yodgorligidan topilgan ipak mato qoldiqlari, tut daraxtidan qilingan buyumlar va jihozlar ipak qurtini etishtirishda bu hudud xam yuqoridagilardan qolishmasligini bildirib o'tgan.

"Xalqimiz tarixi va madaniyati qadimiydir, - deydi birinchi Prezident I.Karimov o'zining Shveysariyaning Altendorf shahrida O'zbekiston Savdo uyini ochish chog'ida so'zlagan nutqida, — Bizning mamlakatimiz, xususan uning Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg'ona kabi go'zal shaharlari orqali Buyuk ipak yo'li o'tgan. Bu yo'l Osiyo bilan Yevropa o'rtasida ishonchli madaniy va savdo ko'prigi bo'lib xizmat qilgan. Hozir biz shu qadimiy Ipak yo'lini tiklash va uni zamonaviy mazmun bilan to'ldirish uchun butun kuch-g'ayratimizni sarflaymiz".

Akademik A.Asqarov "Ipak yo'li"ni baholar ekan: "Bugungi kunning asosiy vazifasi bobokalonlarimiz qadimlardan ipak yo'li tufayli G'arb va Sharqqa, Janub va Shimolga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritar ekanlar, savdo madaniyati bobida, ishbilarmon sifatida jahonga mashhur bo'lgan ekanlar, bu ibratli tarixiy merosni tiklash va rivojlantirish kerak" deb aytib o'tganlar.

O'rta Osiyodan qadimgi dehqonchilik, chorvachilik sohasining taraqqiy etganligiga e'tibor beriladigan bo'lsa, shuni aniqlash mumkinki, madaniyat va savdo yo'llari bu tranzit sohada muhim rol o'ynagan. Ilk o'rta asrlarda qo'shni xalqlarning o'zaro iqtisodiy va tarixiy-madaniy munosabatlari daryolar atrofida va unda aholi joylashgan vohalari asosiy rol o'ynagan.

Savdo yo'llarini o'rganish borasida olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, qabilalarning turmushida zarur bo'lgan xomashyolarning joylashgan manzillarini xam aniqlash imkoniyatini bergan. Umuman, tosh qurollarini

yasash uchun ishlatiladigan chaqmoq tosh ustaxonalari, lazuritga boy makonlar aniqlangan. Qadimgi fors yozuvlarida Baqtriya va Sug'ddan Old Osiyoga lazurit toshlar olib borilganligi isbotlangan yozma manbalar topilgan. Yunon tarixchisi Kitesiy o'z esdaliklarida Baqtriyada kumush va oltin konlari ko'pligi haqida qimmatbaho ma'lumotlar berib o'tgan.

Baqtriyaning yer osti boyliklari oltin, kumush, temir, mis, qalay, lazuritlar so'nggi feodal davrlargacha qazib olinganligi haqida manbalar mavjud.

Miloddan avvalgi IV-III ming yillikka kelib Yaqin Sharqda lazurit zeb-u ziynat yasashda keng foydalanila boshladi. Miloddan avvalgi IV-II ming yillikda Afg'onistonning Badaxshon viloyatlaridan Eronga, Mesopotamiyaga, Misrga qarab lazurit yo'lini vujudga keladi.

XIX asr va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda eng qadimgi aloqa yo'llari to'g'risida qator tadqiqotlar ishlari boshlandi. Ayniqsa Balx, Kesh va Samarqandgacha xamda boshqa aloqa yo'llar to'g'risida o'rta asr yilnoma hamda ilmiy asarlar vujudga keldi.

Arxeologik va yozma manbalarga tayangan holda, Markaziy Osiyodagi vohalar So'g'd - Xorazm orasidagi aloqa yo'llari atrofidagi qishloqlar, ularning vujudga kelishi va gullab-yashnashini, sardobalar, karvonsaroylarning qurilishi to'g'risidagi boy ilmiy xulosalar vujudga kelgan edi.

Antik davrdagi aloqa yo'llarining joylashuvini o'rgangan, shu asosda harbiy yurishni O'rta Osiyoga qaratgan sarkardalardan biri Iskandardir (Aleksandr Makedonskiy). Bu harbiy yurish yo'nalishi haqida Yunon Rim tarixchilaridan Arrian va Kursiylar ma'lumot berib, unda Nautaka, Maroqanda, Branxid kabi shaharlarni Baqtriyadan to Oks (Amudaryo)gacha bo'lgan oraliqda joylashganligi ko'rsatilgan. Iskandar qo'shinlari Amudaryoning qaysi joyidan kesib o'tganligi aniq ko'rsatilmasdan, balki Kalif orqali Ko'hitang va Hisorni aylanib o'tgan degan xulosalar ham keltirib o'tilgan.

Bu yo'l hozirgi Kalifdan G'uzor yoki Qarshiga boruvchi dasht yo'nalishiga to'g'ri keladi. Olingan ma'lumotlar shu tranzit yo'nalishi atrofida joylashgan sardobalar xam tasdiqlaydi.

O'rta Osiyoning janubida bronza va ilk temir davrida amalda bo'lgan bo'lgan muloqat yo'llari haqidagi ma'lumotlarni Surxondaryodagi Sopollitepa, Jarqo'rg'on, Kuchuktepa, Bo'ston, Mo'lali yodgorliklarini o'rganish natijasida to'plangan boy topilmalar xam tasdiqlaydi. Ammo bu davrga oid bizgacha etib kelgan yozma manbalar yo'qdir.

Ahamoniylar davridagi Efes va Saprdan to Suzagacha yoki Efestdan Baqtriya va Hindistongacha bo'lgan aloqa yo'llari haqida Gerodot va Ktesiylar yozma ma'lumot bergan. Ahamoniylar hukmronligiga bo'ysungan joylarning g'arbi va sharqini bog'lab

turuvchi "Shox karvon yo'li" bo'lib, uning har besh farsax oraligida qo'rg'onlar va dam oluvchi makonlar barpo etilgandir. Yozma ma'lumotlarda tilga olinmasa-da, amma Baqtriyadan O'rta Osiyoning shimoligacha aloqa yo'llari bo'lgan, degan taxminlar haqiqatga yaqindir. Makedoniyalik Iskandarning qo'shinlari Ahmoniylar davridagi aloqa yo'llari orqali So'g'd va Farg'onaga kirib kelganligi ayni haqiqatdir.

Hozirgi davrda olib borilgan tarixiy-arxeologik tadqiqotlar tufayli Ahamoniylar davridan boshlab o'troq vohalar va ularni bog'lovchi yo'llar, madaniy, iqtisodiy aloqalarga sabab bo'lgan deyish mumkin.

Arxeologik tadqiqotlar miloddan avvalgi bir ming yilliklar davrida quyidagi aloqa yo'llarini aniqlash imkoniyatini beradi:

1. Yoztepa – Odoytepa - Xorazm - Zarafshonning quyi va o'rta oqimi. Ushbu yo'nalishda joylashgan yodgorliklarni o'rgangan M.E.Masson qabilalararo iqtisodiy aloqalarni savdo birligi sifatida Hind okeani chig'anoqlari, Badaxshon lazuriti bo'lganligini aniqlaydi.

2. Yoztepa - Tillatepa - Kuchuktepa - Bandixon - Qiziltepa - Tojikistonning janubidan topilgan arxeologik ashyolar cho'l bronzasi va Ahamoniylar davriga to'g'ri keladi.

3. Quyi Balxob - Odoytepa - Xorazm - Balxob vodiysi - Kerki - Yerqo'rg'on - Buxoro vohasi. Bu aloqa yo'li Amudaryoning cho'l qirg'og'i bo'ylab joylashgan va so'ngi davrlardagi yo'larga yaqindir. Makdisiy bu savdo yo'li to'g'risida ma'lumot bergan bo'lsa, Mirzabekalla, Kerkichi, Chopilidishtepalarda arxeologik tadqiqotlar Ahamoniylar davriga oid ma'lumotlarni beradi.

4. Balxob vodiysi - Shurob - Akrobod yo'nalishi Qashqadaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab borgan. Bu savdo yo'lining atrofida miloddan avvalgi VI-IV asrdan to miloddan avvalgi o'n bir ming yil avval mavjud bo'lgan yodgorliklar o'rganilgan. Bularga Shortepa, Sopolli, Jarqo'ton, Kuchuktepa va boshqalar kiradi.

5. Balxob vodiysi - Kofirnihon - Vaxshi - Panj yo'nalishi bo'lib, janubiy Tojikistonni bog'laydi. Bu savdo yo'li atrofidagi yodgorliklar miloddan avvalgi VII-IV asrlarga oid bo'lib, vohalarni gullab-yashnaganligidan, obod shaharlar mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi aloqa yo'llari shuni ko'rsatib turibdiki, qadimdan boshlab janub bilan shimoldagi xalqlar doimiy savdo va madaniy sohalarda hamkorlik qilib kelgan. Buni, ularda ishlatib kelingan tosh, yog'och, lojuvard, mis, bronza, temir, oltindan yasalgan xo'jalik ashyoviy buyumlarining o'xshashligidan ko'rishimiz mumkin.

Ahmoniylar davrida savdo yo'llaridan foydalanish yanada kuchayib, savdogarlar uzoq Sibir oltinlarini Yaqin sharq shaharlariga olib kelganligini, Shimolga esa, noyob hunarmandchilik buyumlarini jo'natilganligini tasdiqlovchi dalillarni Oltoyda joylashgan Pozirik mozor qo'rg'onlaridan topilgan ashyolar tasdiqlaydi.

**Buyuk ipak yo'lining turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati.**

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida tashkil topgach, Markaziy Osiyo va shu qatorda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan teng asosda iqtisodiy-madaniy aloqalarni olib bormoqda. Buning barchasi qadimda xalqlar o'rtasida katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan, keyinchalik o'z qimmatini yo'qotgan "Ipak yo'li"ni qayta tiklashni ishlari olib borilmoqda. 90-yillarda Birinchi Prezident I.Karimov boshchiligida "Ipak yo'li"ni qayta tiklash uchun uchrashuvlar olib borildi.

Savdo yo'llari atrofida joylashgan davlatlar bilan aloqalarini tiklashga harakatlar qilindi. 1990-yil oktyabr oyida Samarqandda YuNESKO ishtirokida "Qadim va o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda buyuk ipak yo'lining vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida xalqaro seminar o'tdi. Keyingi yillarda turli mavzularda "Ipak yo'li"ga bag'ishlangan xalqaro uchrashuvlar, konferensiyalar o'tkazilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi tomonidan qaror qabul qilinishi va shu asosda qo'shni xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun qadimgi "ipak yo'li"ni qayta tiklanishi uchun keng miqyosda ishlar boshlanishga olib keldi.

Jahonda turizm sohasi barcha infratuzilmalarni rivojlantirishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida gavdalanadi. Zamonaviy turizm transport, ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslangan bo'lib, bu oxir-oqibat uni iqtisodiyotning yuqori rentabelli sohasiga aylantiradi. O'zbekiston Respublikasida mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash, mazkur soha bilan shug'ullanuvchi korxonalarga imtiyozlar yaratib berish, shuningdek, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi ishlar jadal sur'atlar bilan davom ettirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston 1993 yil 4 oktyabrda Butunjahon turizm tashkilotiga Markazi Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib a'zo bo'ldi. Bu o'z navbatida O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish ishlariga katta ijobiy turtki berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF 5611 sonli qarorida "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi"ga muvofiq Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi, tashiladigan yo'lovchilar soni va investitsiyalarni ko'paytirish uchun respublikadagi transport aloqa tizimini tubdan yaxshilash maqsadida xorijiy aloqalarni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda.

**O'zbekistonning turizm imkoniyatlari**

Respublikamizda turizmni rivojlantirish juda katta iqtisodiy samara berishi hammamizga ayon, chunki u xorijga resurs chiqarmay (paxta, gaz, neft) valyuta olib

kirish imkonini beradi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turizmdan keladigan daromad boshqa sohalarga qaraganda ancha ko'proq valyuta tushumlarini keltiradi. Masalan: Turkiya yiliga 4-5 mlrd. dollarlik tovar eksport qilsa, turizm faoliyatidan 10 mlrd. dollardan ortiq daromad oladi. Avstriya, Angliya, Italiya, Fransiya, Ispaniyalarda ham xuddi shunday yuqori ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin. Mazkur soha kuzatuvchilari sayyohlik va turizm iqtisodiy rivojlanishning mamlakatimizda ham turizmni rivojlantirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning mintaqaviy tuzilmalari shtat birliklarining oshirilgani, hududlarda turizm departamentlari va boshqarmalari, hokim o'rinbosarlari lavozimlari tashkil etilgani mazkur tashkilotlarning imkoniyatlarini kengaytirishda katta rol o'ynamoqda. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni 2019 yil 18 iyulda qabul qilingan, unda sohaning hozirgi rivojlanish bosqichidan kelib chiqqan holda yangi tushunchalar kiritildi, turizm bo'yicha davlat siyosatining prinsiplari va asosiy yo'nalishlari belgilandi. Shuningdek, turistik faoliyat subyektlari toifalarga ajratildi. 47 ta davlat fuqarolari uchun viza rejimi bekor qilindi hamda vizasiz rejimga ega mamlakatlar soni 86 taga etdi. Bundan tashqari viza jarayonlarini soddalashtirish maqsadida elektron viza olish imkoniyatiga ega mamlakatlar soni 57 ni tashkil etdi. Qo'shimcha ravishda, "Vatandosh", "Talaba", "Akademik", "Ziyoratchi" va "Tibbiyot" viza turlari joriy etildi. Qilingan ishlar natijasi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan davr bilan solishtirganda 2019 yilda mamlakatimizga kelgan sayyohlar soni 26,2 foizga ko'paydi. Vizasiz rejim joriy etilgan davlatlardan tashrif buyurgan sayyohlar sonida esa 58 foiz o'sish kuzatildi. Natijada, sayyohlarni joylashtirish maskanlarining yuklanish darajasi 62 foizdan 84 foizga ko'paydi. Oxirgi yillarda turizm sohasidagi yangi tendensiyalarga mos va keng segment talablariga javob beradigan xostellar bozorini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda 2019 yilda mamlakatda kam byudjetli turizm infratuzilmasi va xostellar biznesini yanada rag'batlantirish uchun xostellarni majburiy sertifikatlashtirish tartibi bekor qilindi va boshqa bir qator talablar soddalashtirildi. 2019 yilning o'zida respublikada 161 ta yangi xostellar qurib foydalanishga topshirildi. Ular tomonidan bir vaqtning o'zida 5666 nafar sayyohga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Olingan natijalar muhokamasi Turizmni rivojlantirish omillariga chiptalarining narxi arzon bo'lgan aviakompaniyalar - loukosterlar (lowcosters) ham ta'sir ko'rsatadi.

**Texnologik usullar: aqliy hujum – olib borish qoidalari**

- O'zaro hech qanday baholash va tanqid bo'lmasligi.
- Jo'n va nihoyatda oddiy fikrlashga baho berishdan tiyilish.

- Barcha fikr-mulohaza qimmatli va bir o'rinda bo'lganligi bois fikrlovchiga nisbatan bosim o'tkazmaslik va uni faqat tanqidiy tarzda qabul qilmaslik.
- O'z fikrini bildirmoqchi bo'lganlarga imkon berish.
- Fikrlar xilma xilligi asosiy maqsad
- Fikr – mulohazalar qaytarilishini xotirjam qabul qilish.
- Qiziqarli va asosli fikrlarni rivojlantirish lozim.
- O'zini vazmin va xotirjam tutish, o'zaro mulohazalarni bildirayotganlarga muomala madaniyati asosida munosabat bildirish.
- Barchani o'zaro hurmat, boshqalar fikriga qanoatli bo'lishga chaqirish.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar**

1. Buyuk ipak yo'li tarixini o'rganishning zaruriyati nimalardan iborat?
2. Qachondan boshlab "Buyuk ipak yo'li" deb atala boshlagan?
3. "Buyuk ipak yo'li" qaysi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan?
4. «Buyuk ipak yo'li»ning inqirozga uchrash sabablari
5. Nima uchun hozirgi kunda "Buyuk ipak yo'li" an'analarini tiklashga e'tibor kuchaydi?
6. Ipak yo'li yo'nalishlaridagi "Oltin yo'l" tushunchasi nimani anglatadi?
7. Ipak yo'lida tashilgan mahsulotlar.
8. A.Temur va Temuriylar davrida buyuk ipak yo'lini obodonlashtirish borasida olib borilgan amaliy harakatlar.
9. Buyuk ipak yo'lining qadimgi nomlarini sanang.
10. Buyuk ipak yo'lining madaniyat almashuvchanlik vazifasi nimalarda namoyon bo'ladi?

**Mustaqil ta'lim uchun vazifalar**

1. Taqdim etilgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. Mavzuni konspektlashtiring
3. Mavzuga oid maxsus kompleks ish tayyorlang,15 blits savol,10 test va 12 so'zli krossvorddan iborat.
4. Mavzu bo'yicha mustaqil ish tayyorlang (slayd- shou, videodoklad).
5. "Buyuk Ipak Yo'li" o'quv faniga bag'ishlangan seminar uchun innovatsion usullardan foydalangan holda ssenariy ishlab chiqing (T- diagramma, Venn diagrammasi, SWOT tahlil jadvali, "baliq skeleti", "aqliy hujum" va boshqalar).
6. Mavzu bo'yicha konseptual jadvalini yarating.

## 5- mavzu. O'zbekiston tarixida renessans davrlari.

Reja:

1. "Renessans" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Markaziy Osiyoda ilk uyg'onish davri, uning vujudga kelish sharoitlari va omillari.
2. IX-XII asrlarda o'lkamizda ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san'atning yuksalishi. Islom madaniyatining tarkib topishi.
3. XIV-XV asrlardagi ikkinchi renessans davri. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivoji.
4. Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans.

**Mashg'ulot maqsadi:** Sharq xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davrining asosiy omillari, Markaziy Osiyolik allomalarning hayoti va ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini o'rganish, shuningdek bu davrda tarkib topgan islom madaniyati haqida ma'lumotga ega bo'lish. Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans mazmun-mohiyatini tushuntirish. Talabalarda ona Vatanga muhabbat, ajdodlar xotirasiga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** Renessans, Uyg'onish davri, Bayt-ul hikmat, Algoritm, Alfraganus, qomusiy olim, turkiy adabiyot, Islom madaniyati, fiqh. Hadis. Yangi O'zbekiston, Uchinchi renessans.

### "Renessans" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.

Markaziy Osiyoda ilk uyg'onish davri, uning vujudga kelish sharoitlari va omillari. Uyg'onish davri, ilm-fan taraqqiyoti (Renessans) - O'rta Osiyo, Eron, Xitoy, Hindiston (9-12 va 14-15-asrlar) davomida G'arbiy Yevropada yuzaga kelgan ilm-fan va madaniyat ravnaqi davri. "Renessans-uyg'onish" atamasi ilk bor Italiyada ilm-fanning taraqqiy etishi (15-16-asrlar)ga nisbatan ishlatilgan, ilm-fan o'rta asrlik tanazzulidan yangi bosqichga o'tish davri deya izohlangan. Renessansning asosiy belgilari: dunyoqarashda hamda ilmiy ijodda dogmatizm, yovuzlik va qabohatni engib o'tib, insoniyatni qadrlash (Insonparvarlik), insonning iste'dodi, aqliy-mantiqiy imkoniyatlarini namoyon etish; qadimgi davr (grekrim) madaniyatiga qaytib, uni qayta namoyon etish, rivojlantirish; cherkov xayoliy tasavvuridan qutqarib, adabiyot va san'atda dunyoviy go'zallik, hayot go'zalliklarini tarannum etish; inson erkinligi, adolat uchun kurashish. Bu ishlarning barchasi, fidoiylik hamda aql qudratini namoyon etadigan unutilmas badiiy asarlar, betakror inshootlar barpo etildi, ilm va falsafiy tafakkur taraqqiy etdi. Rimda shoir Petrarka hamda Dante, rassom Jotto, yozuvchi va allomalar Bokkachcho, Ariosto, Tasso, Byome renessans g'oyalarini yoygan mutafakkirlar edi. Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropaga tegishli emas edi.

Jahon madaniyatini to'liq o'rgangan allomalar ijodi shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda G'arbiy Yevropa aynan: Italiyaga nisbatan bir necha asr ilgari ulkan madaniy uyg'onish namoyon bo'lganligi, ilm-fan, falsafa, adabiyot, tarix sohalari yuksalib, ilg'or insoniy g'oyalar jamiyat dunyoqarashini yuksaltirgan, aqliy hamda amaliy ijod rivojlangan. Uyg'onish davri jahon ilm-u ijodida „Musulmon Renessansi" (A. Mes) yoki „Sharq Uyg'onishi" (N. I. Konrad) nomi bilan ulug'lanib kelingan. Markaziy Osiyo Uyg'onish davri Yevropa uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: shijoatli ijodiy faoliyat, betakror me'morchilik obidalarining barpo etilganligi, inson aqlini shoshiradigan ulkan va betakror asarlarning vujudga kelganligi buning isbotidir. Osiyo Uyg'onish davri ham allomalar, huquqshunos olimlar, buyuk mutafakkirlarni etishtirib chiqardi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'beklar betakror asarlar yaratdilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy qo'lyozmalari insoniyat dunyoqarashini rivojlantirdi, dunyo, inson hamda jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, adolatli jamiyat va barkamol inson g'oyasi yaratildi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abul-a'lo al-Maarriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi buyuk ijodkorlar etishib, betakror asarlar yaratdilar, sevgi- muhabbat, qahramonlik, go'zallik hamda vatanga muhabbat g'oyasini ilgari surdilar. Miniatyura rassomchiligi maktabi ham shakllanib bordi, Masalan, Kamoliddin Behzod ijodida yangi kompozitsiyalar yaratildi. Uyg'onish davrining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri xalq g'ururini tasvirlaydigan "To'tinoma", "Sindbodnoma", "Jome'ul hikoyot" nomli sermazmun g'oyalarga boy, insonni jasoratga etaklaydigan qo'lyozmalarning dunyo yuzini ko'rishi, shu bilan birga "Xamsa" larda bayon etilganiday, insoniy ideallarni namoyon etuvchi, nasihat va hikmatlarga boy fikrlarning tahlilini ko'rishimiz mumkin.

Eron va O'rta Osiyo xalqlari bir necha ming yillik taraqqiyot tarixiga ega zamindir. Masalan, qadimiy tarixiga ega bo'lmagan davlatda Uyg'onish davri ham bo'lishi mumkin emas. O'rta Osiyoda 9-13-asrlarda o'z yurtining qadimiyatiga qaytish, Avesto g'oyalarini Qur'on Karim ma'rifati bilan umumlashtirish, qayta tiklanishiga urinish, tasavvuf ta'limoti, "Shiroq" falsafasida namoyon bo'lgan. Bularning barchasi yangi g'oyalar, mafkuralarning yuzaga kelishiga sabab bo'lib, turli tuman fikrlar shakllandi. Tasavvuf ta'limotning yuzaga kelishi, tariqatlar ham, aslida, erkin fikrlilik hamda insoniyat kelajagiga ishonchning isboti edi. Uyg'onish davrida insonlar dinga emas, aynan dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirgan kishilarga qarshi kurashganlar va ma'rifat yoyganlar.

Tafakkurdagi ikki: aqliy (ratsionalizm) va vajdi (irratsionalizm) yo'nalish vakillari zohiran o'zaro kelishmay kelgan bo'lsalar-da, amalda Yevropa Uyg'onish davrida bo'lganidek, inson ongini bedor etish, uni aqidaparastlik (taqlidchilik) g'uboridan tozalashda hamkorlik qilganlar. Shunga binoan erkin tafakkur yurituvchi allomalar o'rtasida ratsionalist mutafakkirlar bilan bir vaqtda, orif sufiylar ham borligi bizni quvontiradi.

Sharq Uyg'onish davri namoyondalari o'z yurtining vakillari qadimiy madaniyati bilan birga, yunon hamda hind xalqlari merosidan ham keng foydalanishgan. Yunon olimlarining asarlari 8—9-asrlarda arab tiliga tarjima qilina boshlandi va targ'ib etildi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari deb hisoblashgan, Plotin qarashlari Ibn al-Arabiyga ta'sir etib, "vahdatul vujud" falsafasiga turtki bergan. Biroq yunonlar ko'p fikrlarni qadimiy osiyoliklardan olganliklarini ta'kidlashgan. Bu tarix qonuniyati; Abu Rayhon Beruniyning "Kitob attafhim li avoil sinoat attanjim" asari qo'lyozmasi yuksalishga shaylangan xalq o'z madaniyati va o'zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o'zlashtirib, yana yuksaklikka ko'tariladi.

**IX-XII asrlarda O'lkamizda ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san'atning yuksalishi. Islom madaniyatining tarkib topishi.**

Markaziy Osiyo renessansi davri keng ko'lamli: ta'lim va tarbiya, madrasa va maorif yuksalgan, ulkan kutubxonalar javonlarida yuz minglab asarlar jamlangan, "hazinat ul-hikma", "dor ululum" larda tolibi ilmlar, ustoz shogirdlar suhbati bardavom edi, ustoz va olimlar juda qadrlangan hamda e'zozlangan. Markaziy Osiyo Uyg'onish davri yutuqlari G'arbiy Yevropadagi Uyg'onish davriga bevosita ta'sir etmay qolmagan. Masalan, 12—14-asrlar davomida musulmon olami bilan Yevropa davlatlari o'rtasida muloqot juda sermazmun rivojlangan edi. Masalan, chegaradosh davlatlar: Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yarim oroli mamlakatlarida aloqalar o'ta darajada sermazmun bo'lgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida o'qib o'rganganlar. Ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Ash-Shifo", Forobiyning "Ilmlar tasnifi", Ahmad Farg'oniyning "Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi", Muhammad Muso Xorazmiyning "Al jabr val muqobala", Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Algebra, algoritm fanlari Xorazmiy asarlari asosida yaratildi. "Tib qonunlari" 7 asr mobaynida Yevropa universitetlarida tibbiyot darsligi sifatida xizmat qilib keldi. Ibn Sino shogirdi Ibn Rushd g'oyalari Italiya, Fransiyada erkin dunyoqarashning shakllanishiga sababchi bo'lgan. Ibn Sino - Avitsenna, Ibn Rushd-Averroes, Ahmad Farg'oniy- Alfraganus, Abu Bakr Roziy -Al Ramzas, Abu Ma'shar Ja'far Ibn Muhammad Ibn Umar Al-Balxiy degan lotincha nomlar ostida mashhur bo'lgan. "O'sha paytda (13-16-asr) jaholat changalidagi

Yevropaning barcha hududlarida musulmonlar ilm charog'ini yoqdilar...; ispanlar yozuvi ham, shimoliy oromiy yozuvi ham Osiyodan olingan; shimoliy, g'arbiy va sharqiy Yevropa madaniyati yunon - rum - arab urug'idan unib chiqqandir" (G.Gerder). Platon, Aristotel asarlari ham Yevropaga ilk bor arabcha tarjima va talqinlar orqali kirib borgan. "Sharqliklar G'arbni Aristotel falsafasi bilan yoritdilar" (Gegel).

Aniq fanlar va ularni o'rganish usullarini, dehqonchilik va chorvachilik ilmlari, dengizda suzish, harbiy texnikani Yevropa sharqdan namuna olgan holda shakllantirgan. "Matematika, kimyo, tibbiyot sohasida musulmon allomalarining xizmati buyuk... bu fanlarda musulmonlar Yevropaning muallimlari bo'lib qoldilar" (G. Gerder). Yevropa Uyg'onish davri adiblari Dante, Petrarka, Bokkacho Sharq ilm-fani, adabiy asarlaridan ilhomlanganlar. Dante "Bazm", "Ilohiy komediya" asarlarida Ibn Sino va Ibn Rushdni o'z ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga olganlar. Axmad Farg'oniy asarlaridan foydalanganini bir necha bor ta'kidlaydi. K. Marloning "Buyuk Temur" dramasida Amir Temur jasur, xaloskor inson sifatida tasvirlangan va gavdalantirilgan.

San'atda ham Uyg'onish davriga xos yuksalish ilk bor Sharqda yuz bergan. O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy an'analari arab, hind va fors musiqiy meros asarlari, cholg'ulari bilan o'zaro ta'sir jarayonlari natijasida yanada boyib qaytadan jonlandi. Masalan, Forobiy va uning izdoshi Ibn Sino musiqaning nazariy, falsafiy va estetik masalalarini atroflicha tadqiq etib, umumsharqiy ta'limotni vujudga keltirishgan. Masalan, Yaqin va O'rta Sharq davlatlari musiqa amaliyotiga tayangan holda, kuy va usullar, qo'llanilgan sozlar, muayyan shakl va janrlar doirasida o'xshashlik jihatlarini isbotlashgan. Forobiyning „Kitob ul musiqa alkabir" ("Musiqaga doir katta kitob") va, ayniqsa, Ibn Sinoning "Javome' ilm ulmusiqi" ("Musiqaga oid ilmlar to'plami") nomli kitobida yunon olimlari (Pifagor, Aristoksen va boshqalar)ning qarashlari rivojlantirilib, tovushlar baland pastligi munosabatlari matematik uslubda talqin etilgan. Ayniqsa, sof tovushqator tizimi, undan o'rin olgan budlarning muloyimat va munofirat tasnifoti, iyqo nazariyasi ilk bor asoslab berilganligi fikrimizning isbotidir. 12-13-asrlarda ijodiy va aqliy kuchlar taraqqiyotini aks ettirgan o'n ikki maqom tizimi yuzaga keldi. Amir Temur (14 a.) va Temuriylar (15-16-asrlar) musiqaning barcha jabhalarida yangi Uyg'onish davri yuzaga kelishini ta'minlab berishgan. Amir Temur turli davlatlardan Samarqand, Buxoro shaharlariga olib kelingan san'atkorlar - bastakorlik, musiqa ijrochiligi hamda musiqashunoslikning yangi pog'onaga ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Aynan bu yo'nalishda muayyan kasb egalari, balki o'zga badiiy ijod sohiblari, masalan, Mirzo Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Boburlar ham ijod qilishgan. Temuriylar davrida mahalliy maqom ijodiyoti va ijrochiligi yuqori pog'onaga ko'tarildi, og'zaki an'anadagi musiqaning boshqa

taraqqiy etgan sohalari (doston, ashula, cholg'u kuy va boshqalar) keng o'rin egallab, yangi davrni boshlab berdi. Ayni shu jarayon keyinchalik Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg'ona -Toshkent maqom yo'llari va katta ashulalar shakllanishiga olib kelgan.

Tarixdan ma'lumki ijtimoiy taraqqiyot doim bir yo'sinda ravon bo'lmagan. Insoniyat umumiy rivojlanish bilan birga qancha-qancha to'siqlarni, tanazzul va tangliklarni boshidan kechirgan va so'ng ularni bartaraf etib o'z moddiy va madaniy darajasini qayta tiklagan, yangi taraqqiyot sari astoydil intilgan. Fanda bunday yirik salmoqli yuksalishni tiklanish, uyg'onish, renessans ham deb aytiladi. Xususan G'arbiy Yevropada bunday renessans 15-17 asrlarda deyarli 700 yillik xurofotdan so'ng yuz bergan. Markaziy Osiyoda ilk uyg'onish davri 9-12 asrlarga to'g'ri keldi va o'zgacha shart-sharoitlarda kechdi. Uning ko'lami, oqibatlari, jahon sivilizatsiyasiga ko'rsatgan ta'siri ham bo'lakcha bo'lgan.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda feodal munosabatlarning taraqqiy etishi, markazlashgan davlatlarning paydo bo'lishi, bu davrda ilm-fan, madaniy hayotning rivojlanishi uchun zamin yaratdi. O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilosidan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarda keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mehnat bilan bevosita bog'lik bo'lgan xalq ommasiga zulm o'tkazish tobora takomillashib bordi. Xuddi shu murakkab tarixiy sharoitda ham O'rta Osiyoda fan va madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimlar etishib chiqdi. Bu erda fan va madaniyat bobida nodir obidalarning, buyuk fan kashfiyotlarining va tadqiqotlarning yaratilishi jahon madaniyati xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shildi. Shunday qilib, Uyg'onish davriga turtki bo'lgan omillar quyidagilardan iborat:

- Markazlashgan mustaqil davlatlarning tarkib topishi;
- Buyuk daholarning etishib chiqqanligi va ularning ilmiy kashfiyotlari;
- Turkiy elatlarning to'liq shakllanganligi;
- Islom madaniyatining tarkib topganligi;
- Mamlakatning tinch iqtisodiy taraqqiyoti.

O'rta Osiy xalqlari o'rtasida islom dinining tarqalishi rasmiy-amaldorlik olamida Sug'd, Shosh, Farg'ona, Xorazm zodagonlari orasida arab tili va yozuvining keng yoyilishiga olib keldi. Qadimgi yunon olimlari – Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu), Sokrat (Suqrot), Gippokrat (Buqrot), Galen (Jolinus), Yevklid (Iklidus) kabilarning asarlari arab tiliga tarjima qilindi. Arab tili Yaqin Sharq Eron, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston, O'rta Osiyo, Shimoliy Afrikaga va qisman, Janubiy Yevropaning qadimgi xalqlari orasiga tarqaldi, ular uchun qariyb xalqaro til bo'lib qoldi.

Bu davrga kelib turkiy xalqlar ittifoqining shakllanish jarayoni tezlashdi. Qoraxoniylar hukmronligi davrida turk adabiy tili paydo bo'ldi. Ish yuritish hujjatlar

turkiy tilda yozila boshladi.Chig'atoy tili (eski o'zbek tili) Movarounnahr, Xuroson, Farg'ona, Shosh va Xorazm asosiy tillardan bo'lib etisha bordi.

Bu davrda ko'p tilda ijod qila oladigan olimlar va ko'plab mutafakkirlar etishib chiqdi. Qasida davrning dohiysi Rudakiy o'z she'rlari bilan katta shuhrat keltirdi. Uning zamondoshi Firdavsiy (X-XI asr boshlari, Xurosonning Tus shahridan) o'lmas "Shohnoma" asrini yaratdi. Yirik tarixiy asarlar, masalan, Gardiziyning "Go'zal xabarlar" asari, Bayxaqiyning o'ttiz tomlik kitobi, Majiddin Admonning "Turkiston tarixi" paydo bo'ldi. Muhammad Narshaxiy "Buxoro tarixi" kitobini yozdi. Nizomulmulkning "Davlatni idora qilish to'g'risidagi kitobi", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asari, Maxmud Qoshg'ariyning ulkan ijtimoiy-siyosiy, klassik asari hisoblangan "Devonu lug'ati turk" (Turk tillari lug'ati) maydonga keldi. Bu davrda O'rta Osiyodan buyuk olimlar etishib chikdi.

Mashhur riyoziyotchi va falakiyotchi Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780 - 850) dastlabki ma'lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o'z yurtida, O'rta Osiyo shaharlarida ko'pgina ustozlardan olgan. U katta ilmiy ishlari uchun IX asrning boshlarida Bag'dodga taklif qilinadi. Bag'dodda Xorazmiy Sharqning dastlabki akademiyasi "Bayt ul-Xikmat" (Donolar uyi)da faol ishtirok etgan. Bu erda uning rahbarligida arablar va boshqa xalqlar qatori Ahmad Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy kabi O'rta Osiyolik olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xorazmiy diniy mafkuraviy dunyoqarash hukmronligiga qaramay, ilg'or ijtimoiy-falsafiy tafakkurga yo'l ochgan edi.

Algebra fanining asoschisi bo'lgan Xorazmiy riyoziyotda abstraksiya tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo'li bilan umumiy echish usullarini hal qildi va deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordami — turli masalalarni echdi. Xorazmiy dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shdi. Uning asarlari dunyoviy fanlarning islom dinidan mustaqil rivojlanshiga yo'l ochdi. Muso al-Xorazmiyning "Astronomiya jadvallari", "Quyosh soatlari", risolalari va boshqa asarlari Sharq va G'arbning riyoziyot va falakiyot fanlari rivojlanishi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi va ilm-fanning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xorazmiy o'zining "Al-jabr val muqobala" risolasida olimlarni, ularning ishlari xarakteri bo'yicha uch guruhga buladi:

1) "Ulardan birlari o'zlarigacha qilinmagan ishlarni qilib, uni kelajak avlodga qoldirib, o'zgalardan o'zib ketadilar".

2) "O'zgalar o'tmishdoshlari mehnatlarini sharhlab beradilar va bu bilan qiyinchiliklarni engillashtiradilar, qulflarni ochadilar, yo'llarni yoritadilar, bu esa tushunishni engillashtiradi".

3) "... yoki bu odam ba'zi kitoblardagi nuqsonlarni topadi va uzilganlarni ulaydi". Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha etib kelgan.

O'rta Osiyolik turkiy harbiy zodagon oilasidan chiqqan Abu Nasr Forobiy (873 - 950) avval Buxoroda, so'ngra Bag'dodda tahsil ko'rib, o'z zamonasining qomusiy allomasi darajasiga ko'tarildi. Uning yunon faylasufi Aristotelning mashhur "Metafizika" asariga ilmiy sharhlari ilm-fan dunyosida katta qiziqish uyg'otdi. Forobiy materialistik falsafaning yirik namoyandasi sifatida moddiy dunyoning obyektiv ravishda mavjudligini e'tirof etdi, inson olamni bilishi mumkinligini isbot etdi. U O'rta Osiyoning ko'plab mashhur olimlari va mutafakkirlariga, jumladan, Abu Ali ibn Sinoning ham falsafiy dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyo ilm-fani va madaniyati tarixida qomusiy bilimlar sohibi Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning o'rni beqiyosdir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida moliya amaldori oilasida tug'ilib, yoshlik yillarida o'z ma'lumotini oshirish uchun qunt bilan o'qidi. 16-17 yoshidayoq ibn Sino mashhur tabib — hakim bo'lib tanildi. Ibn Sinoning "Kitob al-qonun fit-tib" eng yirik asarlardan bo'lib, 5 ta mustaqil asarlardan tashkil topgan: ularning har biri ma'lum sohani izchil, har tomonlama yoritib bergan. Bu kitob olti asr mobaynida(XI asr dan XVI asrning o'rtalarigacha) Yevropa meditsinasida yagona qo'llanma bo'lib keldi. U 30 martadan ko'proq nashr etildi. O'rta asrlarda "Qonun" faqat Sharqdagina emas, balki G'arb mamlakatlarining dorilfununlarida ham talabalar uchun meditsinadan yagona qo'llanma bo'lgan. Ibn Sino tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik, musiqashunos, huquqshunos, axloqshunos, filolog, yozuvchi va shoir xam edi.

Ibn Sino yaratgan asarlarning soni 450 tadan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari etib kelgan. Ibn Sino asarlarining 40 dan ortig'i meditsinaga, 30 ga yaqini tabiiy fanlarga, 3 tasi musiqaga, 185 risola falsafa, mantiq, psixologiya, teologiya, etika va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Asarlarning asosiy qismi arab tilida, ba'zilari fors - tojik tilida yozilgan. Uning ko'p asarlari o'rta asrlarda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga va u orqali Yevropaning boshqa tillariga tarjima qilingan. Ibn Sinoning bizga ma'lum bo'lgan katta asari "Kitob ush-shifo" 22 jilddan iborat bo'lib, u "falsafiy bilimlar qomusi" degan nom oldi.

Mislsiz qiyinchiliklarga bardosh berib, fan chirog'ini baland ko'targan yana bir daho Abu Rayhon Muhammad Beruniy (973-1048)dir. U Xorazm tilidan tashqari arab, sug'diy, fors, yunon, hind va qadimgi yahudiy tillarini bilgan. Qomusiy bilimlar sohibi Beruniy o'z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabi fanlarni chuqur o'rgandi.

Abu Rayhon Beruniy butun hayoti davomida 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan; bular orasida "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya" kabi yirik asarlari bor. Uning "Hindiston " asari hindlar adabiyoti, falsafasi, geografiyasi, etnografiyasi, urf-odatlari, dini, tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyatga egadir. U tabiiy fanlarga xam o'z hissasini qo'shdi. Beruniy o'z ilmiy asarlarida

dunyoning tuzilishida Ptolemey sistemasiga suyansa-da, lekin erning harakati haqida Ptolemeyga zid xulosalarga keldi. Geologiya faniga qushgan hissasi bilan, bu sohaning buyuk nazariyotchisi va asoschisi darajasiga ko'tarildi. Uning "Yodgorliklar" nomli kitobi podshohlar va mashhur shaxslarning tarixini yorituvchi yirik etnografik asardir.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan O'rta Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf al-Farg'oniy salmoqli o'rin egallaydi. Al-Farg'oniy xalifa Xorun ar-Rashidning sharqiy erlardagi muovini, o'g'li Abdullohning Marvdagi olimlari sirasiga kirgan. Uning tug'ilgan yili 798 deb, o'lgan yili esa 861 yil deb taxmin qilinadi. Al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum" kitobi XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga xam tarjima qilingandan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi "Alfraganus" shaklida G'arbda keng tarqaldi. Uning bu kitobi Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini bir necha asrlar davomida o'tab keldi. Hozirgi kunga kelib al-Farg'oniyning sakkizta asari bizga ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va hech biri hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Al-Farg'oniy asarlarining qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij,Tehron, Rampur, Patna, Qohira, Gota, Halab va boshqa shaharlarda saqlanadi.
O'rta Osiyoda IX asrda hadis ilmning rivojlanishida ham katta yutuqlarga erishilgan. Bu davrda butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining mualliflari yashab ijod etganlar. Olti muhaddisning deyarli hammasi O'rta Osiyolik bo'lib, ularning ichida "Hadis ilmida amir al-muminiy" degan sharafli nomga sazovor bo'lgan imom al Buxoriy alohida e'tiborga sazovordir.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) olti yil Hijozda, keyinchalik Damashq, Qohira, Basra, Qufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashab hadis ilmidan o'z bilimini yanada oshiradi. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yoddan bilgan. Imom al-Buxoriy 20 dan ortiq hadis ilmiga tegishli asarlari bor. Ularning ichida eng muhimi va e'tiborlisi "Al-jome as-saxix" dir. Bu kitobga al-Buxoriy faqat ishonchli hadislarni kiritgan.

Hadis ilmini yanada rivojlantirgan, jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan asarlarni yaratgan buyuk allomalardan biri — mashhur muhaddis Abu Iso Muhammad at-Termiziydir (824-892). At-Termiziy o'z ijodiy va ilmiy faoliyati davrida bir qator asarlar yaratib, ularning ko'pchiligi hadislarga bag'ishlangan. VII asrning II yarmida yuzaga kelgan Quroni Karim islom ta'limotida katta madaniy va ilmiy ahamiyat kasb etgan asosiy manba bo'lsa-da, musulmon dunyosining ijtimoiy, huquqiy va axloqiy tomonlariga oid barcha masalalarni har tomonlama qamrab ololmagan, albatta. Shu sababdan ham islom dini chegaralarining kengayishi, uning qonun-qoidalariga asoslangan jamiyat rivojlangan sari yangi fikr-mulohazalar va ko'rsatmalarga ehtiyoj

ortib borgan, shu boisdan hadislar Islom ta'limotida Qurondan keyin 2 o'rinda turadigan muhim manba hisoblanadi. At-Termiziyning hadislardan iborat to'plamlarining deyarli barchasi bizgacha etib kelgan. Ular ichida eng mashhuri "Al-jome as-saxix" bo'lib, Muhammad payg'ambarga oid oltita ishonchli hadislar to'plamining biridir. Bu asar ilmiy adabiyot va manbalarda "Al-jomi al-kabir" (Katta to'plam) "Al-jome as-saxix" (Ishonchli to'plam), "Jome At-Termiziy" (Termiziy To'plami), "Sunan at-Termiziy" (Termiziy sunnatlari) kabi nomlar bilan ataladi.

Imom Moturidiy – moturidiya maktabining asoschisi. "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan sharafli nomga ega bo'lgan shaxs.

Burhoniddin Marg'inoniy – islom huquqshunosligining ulkan namoyondasi, "Burhoniddin va milla", ya'ni "Din va millatning hujjati" degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan. Uning etti kitobdan iborat "Hidoya" – "To'g'ri yo'l" deb atalgan asari jahon miqyosida huquqiy manba sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, bu davrlarda Naqshbandiya, Kubroviya, Yassaviya tariqati vakillari ham dinshunoslikda o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Maxmud Zamahshariy — Xorazmlik tarixshunos buyuk olim. U Arab grammatikasi va fonetikasiga asos soldi. Uning "Al kashshof" (Qur'onga tavsirlar), "Tarix", "Al-Mufassal", "Aruzda o'lchov" kabi asarlari dunyoga mashhur. M.Zamaxshariyning Qur'onga tavsirlar va Arab grammatikasiga bag'ishlangan asarlari dunyoda yagona deb tan olingan.

## XIV-XV asrlardagi ikkinchi renessans davri. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivoji.

Uyg'onish davrida musiqa san'ati ham o'ziga xos uslublarda rivoj topdi. Bu davrda Sharqda muhim musiqiy asarlardan "Shashmaqom", "Rost", "Ushshoq", "Navo", "Basta"lar yaratildi. Sozanda va bastakorlardan Abu Bakr Rubobiy, changchi Lo'kariy, Bunasr, Buamirlar ijod qildi.

Me'morchilik durdonalaridan Buxorodagi Somoniylar maqbarasi (X asr), Samarqandning Tim qishlog'idagi Arab ota (XI asr), O'zgandagi Qoraxoniylarning yozgi saroylari (XII asr) bizning davrimizgacha saqlanib qolgan.

O'rta Osiyoda IX-XII asrlarda yuz bergan ilk Uyg'onish davri haqida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bu davr xuddi Yevropadagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya'ni kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan holda yuz berdi va Yevropa Renessansining vujudga kelishida o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi hamda jahon madaniyati tarixida so'nmas iz qoldirdi.

XIV va XV asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining uyg'onish davri hisoblanadi. Negaki bu davrlar A.Temur va Temuriylar hukmronligi yillari bo'lib, mo'g'ullardan keyingi ilm-fan, san'at, me'morchilik, adabiyotning yuksak taraqqiyotga erishgan

davri hisoblanadi. Temuriylar davridagi yuksalishga aslida A.Temur asosiy poydevor qo'ygan bo'lib, Temuriylar davrida taxt uchun kurashlar davom etsa-da madaniy taraqqiyot o'z bosqichida davom etgan. Bu davrlarda taxt uchun kurashlar tinimsiz davom etganligi uchun madaniyat markazi Xuroson va Hirot bo'lgan.

O'zining ko'p yillik harbiy yurishlari bilan Sharqning juda ko'p obod viloyatlarini va shaharlarini zabt etgan A.Temur o'z davlatining shon-shuhrati uchun uning markaziy qismi bo'lgan Movarounnahrning, ayniqsa, poytaxti Samarqandning obodonligiga alohida e'tibor beradi. U zabt etilgan mamlakatlardan faqat moddiy boyliklarnigina emas. Balki juda ko'p hunarmandlar, san'at ahllari va olimlarini Movarounnahrga olib keladi va mamlakatni obod etishda ularning mehnatidan foydalanadi. A.Temurda har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasini barpo etish bilan nishonlash odati bo'lgan. Shu maqsadda Hindistondan olib kelingan yuzlarcha mohir g'isht teruvchilar, Sheroz, Isfixon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda go'zal imorat-u inshootlar bino qiladilar. U onasi Neko'zbibiga atab Keshda Oqsaroyni bunyod ettiradi. Ushbu saroyning peshtoqiga "Agar bizning qudratimizga shubha qilgudek bo'lsangiz biz qurdirgan imoratlarni ko'ring" degan mashhur yozuvlar bitilgan.Undan tashqari Samarqand va boshqa hududlarda ham juda ko'plab me'moriy inshootlar A.Temur tomonidan qurdurilgan. Ular quyidagilar: Bibixonim masjidi, Shohi Zinda, A.Yassaviy maqbarasi, Zangiota majmui kabilar.

Darhaqiqat osmono'par baland binolar A.Temur davlatining yorqin timsoli va namunasidir. Samarqanddagi qurilishlar to'g'risida so'z yuritilganda, shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, mo'g'ullar bosqini davomida butunlay vayron etilgan va aholisi tomonidan tashlab chiqilgan Samarqand shahri A.Temur hukmronligi davrida o'zining qadimgi o'rnidan birmuncha janubroqda boshdan-oyoq yangidan quriladi. Shahar tevaragi Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali mustahkam yangi qal'a devor bilan o'rab chiqiladi. Shahar arkida Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar bino qilindi.

A.Temur shaharlardagi qurilishlaridan tashqari Samarqand atrofida o'zining heshu aqrabolariga atab ko'pgina go'zal bog'lar qurdirdi. Ular quyidagilar:
Bog'idilkusho, Bog'ichinor, Bog'ibihisht, Bog'ibaland, Bog'inav, Bog'ishamol, Davlatobod. Mohir me'mor, tajribali sohibkorlarning aql-zakovati, mehnati-yu mahorati bilan barpo etilgan ushbu chorbog'lar va ulardagi go'zal ko'shklar o'sha davr bog'dorchilik san'atining namunalaridandir.

A.Temur o'z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Damashq, Misr,Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Chunki Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-

atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi. O'sha davr muarrixi Ibn Arabshohning yozishicha, Samarqandga chet mamlakatlardan, xususan Xurosondan ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoydan atlas, yashin toshi, mushk va boshqa mollar, o'zga mamlakatlardan oltin va kumush olib kelinardi.

Ilm-fan. Astronomiya va matematika. Mirzo Ulug'bek- uning asli ismi Muhammad Tarag'ay bo'lib, u A.Temurning Yaqin Sharqda besh yillik yurishlari vaqtida 1394 yil Sultoniya shahrida tavallud topadi. U A.Temur o'rdugohi va saroyida katta onasi Saroy Mulkxonim va onasi Gavharshodbegimlarning bevosita panohida tarbiyalanadi. Sohibqironning boshqa nabiralari qatorida u A.Temurning harbiy yurishlari va saroy an'analarida ishtirok etgan.

A.Temur vafotidan so'ng mamlakat ikkiga bo'linib ketadi: Xurosonni Ulug'bekning otasi Shohrux, Movarounnahrni Ulug'bekning o'zi boshqaradi. Ulug'bek mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda, falakiyot ilmi bilan qiziqqan, o'z davrining olimlari ijodiga alohida e'tibor qaratgan. Ulug'bek Movarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilm-u ma'rifatli maskanga aylantirish ishlarini olib boradi. Mirzo Ulug'bek farmoni bilan 1417 yil Buxoroda, 1417-1420 yillarda Samarqandda va 1433 yilda G'ijduvonda madrasalar qad ko'taradi. Astronomiya va matematika sohasida erishilgan buyuk muvaffaqiyatlar Temuriylar davlatiga katta shuhrat keltirdiki, bu shuhrat, birinchi navbatda, Ulug'bek nomi bilan bog'liqdir. Mirzo Ulug'bek o'z zamonasining etuk olimlari: Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va G'iyosiddin Jamshidlar bilan birga faoliyat yuritgan.Ulug'bek Movarounnahrda ilm-fanni tashkil etish borasidagi faoliyati bilan musulmon olamining turli burchaklaridagi ko'plab olimlarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etdi. Qozizoda Rumiy ham shu jumladan. 1413 yilda Ulug'bek Movarounnahr hukmdori bo'lganidan keyin ustozini Samarqandga olib keldi va u umrining oxirigacha shu erda qoldi. Ulug'bek madrasasi binosi va rasadxonasi Qozizodaning bevosita ishtirokida barpo etildi. Qozizoda Rumiy, shuningdek "Zij" asari ustidagi ishning dastlabki bosqichida ishtirok etdi. U 1437 yilda vafot etdi, bu vaqtda "Zij" ustidagi ish hali poyoniga etmagan edi.

Qozizoda Rumiy Ulug'bek madrasasida dars berishdan tashqari ilmiy ish bilan ham shug'ullangan, rasadxonada kuzatishlar olib borgan. U astronomiya va matematika bo'yicha bir qancha mashhur asarlar yaratdi, ular orasida quyidagi ikki asar ayniqsa katta shuhrat qozondi: "Sharh ashkol at-ta'sis" bo'lib, unda Rumiy samarqandlik olim Shamsiddin ibn Muhammad as-Samarqandiyning geometrik risolasiga izohlar bitgan. Ikkinchi asari "Sharh al-mulaxxas fi-l-xayali-l-nujum" bo'lib. Bu xorazmlik olim Mahmud ibn Umar al-Chag'miniy risolasiga yozilgan sharhdir. Qozizoda shu asari asosida Ulug'bek madrasasida astronomiyadan dars bergan,

ustozlik qilgan. Ulug'bekning zamondoshlaridan yana biri Jamshid al-Koshiydir. Koshiy matematika sohasida ancha salmoqli va ilmiy jihatdan qimmatli yutuqlarga erishdi. Uning matematika risolalaridan "Miftoh al-hisob" va "Risola al-muhitiyya" ham Ulug'bek kutubxonasi uchun yozilgan. Ulug'bek "Zij"i muqaddimasida tilga olgan Samarqandning uchinchi yirik olimi – Alovuddin Ali ibn Muhammad Qushchidir. Ulug'bek u haqda katta mehr va samimiyat bilan gapirib, Ali Qushchi saroy qushchisining o'g'li bo'lishiga qaramay, uni "sadoqatli farzandim" deb ataydi. Ali Qushchi Ulug'bekning tirishqoq va sodiq shogirdi edi. Ali Qushchi Sharq va G'arb fanlarini bir biri bilan bog'ladi. Shunday qilib, Mirzo Ulug'bekning eng yirik asarlari quyidagilar: Risolai Ulug'bek, Tarixi arba' ulus (mo'g'ullar davlati tarixiga oid), Ziji Ulug'bek, Ziji Sultoniy, Ziji jadidi Ko'ragoniy.

***Tarix ilmi.*** Tarix fani Amir Temur hayotligidayoq ancha mashhur edi. Amir Temurning bizning davrimizgacha etib kelgan ilmiy solnomalari orasida hirotlik tarixchi Fasih Havofiy eslatib o'tgan epik asar alohida e'tiborga molik. Bu asar shoh Jamoliddin Mahmud Zonga Ajam qalandari Kermoniy tomonidan nazm-masnaviyda yozilgan bo'lib, "Jo'sh-u xo'rush" deb ataladi.

Amir Temur kotibi tomonidan nazmda yozilgan ikkinchi solnoma "Tarixi xoniy" deb ataladi. Uchinchi solnoma ham XIV asr oxirlarida nasrda yozilgan. Xondamir "Habib us-siyar" asarida samarqandlik mashhur olim Mavlono Sayfuddin Xuttaloniy qalamiga mansub o'sha xronikani eslatib o'tadi. Asar uning nomi bilan ma'lum emas. Amir Temurning 1398-1399 yillardagi Hindistonga yurishi haqida Nasriddin Umar yozib borgan. Lekin undagi voqealarning kunma-kun quruq sanab o'tilishi Amir Temurni qanoatlantirmaydi. Shundan so'ng u yurishlarini batafsil yozib borishni G'iyosiddin Ali Yazdiyga topshiradi. Baribir bu mualliflardan Amir Temurning ko'ngli to'lmaydi, shundan so'ng u tarixchi Nizomiddin Shomiyga o'z tarixini batafsil yozib borishni buyuradi. Nizomiddin Shomiy o'z asari "Zafarnoma"ni 1404 yilda yozib tugatadi.

Xuddi shunday "Zafarnoma" asari tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan ham yozilgan bo'lib, asarni 1425 yil Hirotda Shohruxga taqdim etadi. Undan tashqari A.Temur va Temuriylar davrida tarixchilardan Ibn Arabshoh, Hofizi Abro', Abdurazzoq Samarqandiylar ijod qilgan.

**Tibbiyot.** Amir Temur va Temuriylar davrida tabobat ilmiga, davolash va orastalik ishlariga, bu sohadagi qurilishlariga katta ahamiyat berilgan. Hirotda Umarshayxning rafiqasi Mahdi ulyo Milkat og'a qurdirgan "Dorush-shifo" mashhur edi. Bundan tashqari, Bog'i Zog'onda ham Dorush-shifo bor edi. Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Amir Temur Suriyadan Samarqandga mashhur tabiblar – Mavlono Jaloliddin, Mavlono Sulaymonni olib keladi. Mavlono Fazlulloh Tabriziy Amir Temurning shaxsiy tabibi bo'lgan. Bulardan tashqari Amir Temur saroyida Mavlono Ma'sud Sheroziy va Mavlono Farrux kabi

tabiblar ham xizmat qilishgan. Shohrux Mirzo davrida Shamsiddin Odam va Nizomiddin Sheroziy saroyning dong'i ketgan tabiblaridan bo'lgan.

Kermonlik tabib ibn Hakim al-Kermoniy Ulug'bek taklifiga binoan Samarqandga keladi. U 1424 yil Najibuddin Samarqandiyning "Kasalliklarning sabablari va alomatlari" asariga sharh bitib, uni Ulug'bekka bag'ishlagan.

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, A.Temur va Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar tez-tez ro'y berib turar edi. Buning oldini olish uchun kerakli choralar ko'rilgan. Xususan tozalikka katta ahamiyat berilgan, ayniqsa ariq va hovuzlardagi suvlar nihoyatda toza tutilgan.

Nafis kitob va xattotlik. A.Temur davlatining ma'naviy hayotida qo'lyozma va nafis kitob san'ati alohida ahamiyat kasb etgan soha bo'lgan. Papirus, pergament va qog'oz qo'lyozma kitob uchun asosiy ashyo hisoblangan. Xususan, qo'y, echki, buzoq va ohu terisidan tayyorlangan pergament qadim zamonlardan buyon keng qo'llanib kelingan.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining vorislari bo'lmish A.Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo xalqlari qo'lyozma san'atini rivojlantirishda ajdodlar tajribasidan foydalanishgan, uni boyitishgan. Qo'lyozma kitob xattot, naqqosh, muzahhib, rassom va sahhof singari qator ustalar ijodining uyg'unligidir. Kitobda ko'k, qizil, yashil, tilla rang ko'proq ishlatilgan. Unvon (titul) cho'ziq, yarim yumaloq, to'g'ri burchakli qubba shaklida bajarilardi.

Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Tabriziy, Mir Ali Hiraviy, Mir Imoda va boshqalarning go'zal, chiroyli fragmentlari naqshchi-rassomlar tomonidan dabdabali bezatilib, ular ayrim ajoyib miniatyuralarga qaraganda ancha qimmat turadi. "Xattotlar shohi" Sulton Ali Mashhadi, Hirot miniatyura maktabining asoschisi Kamoliddin Behzod va kitob naqsh ustasi mashhur naqqosh Mavlono Yoriy badiiy qo'lyozma durdonalarini yaratish ustida ishlagan yuzlab ustalarga ustozlik qilishgan.

A.Navoiy "Xamsa"sining Sank-Peterburgda saqlanayotgan, 1492-1493 yillarda qayta ko'chirilgan mashhur nusxasi Temuriylar davrining miniatyuralarsiz bezatilgan badiiy qo'lyozmalari durdonalari sirasiga kiradi.

Qadimiy qo'lyozmalarning muqova namunalari kam saqlanib qolgan. "Xamsa" qo'lyozmasi bizgacha o'zining eng birinchi muqovasida etib kelgan bo'lib, uni Sulton Ali Marviy ishlagan. A.Temur va Temuriylar davrining mashhur xattotlari quyidagilar bo'lgan: Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Tabriziy, Mir Ali Hiraviy va h.o....

**Tasviriy san'at**. A.Temur va Temuriylar davri tasviriy san'ati devoriy monumental rassomchilik va kitob miniatyurasi yo'nalishida rivoj topdi. Ushbu tasviriy san'at turlari mintaqa doirasida o'ziga xos devoriy suratlar, amaliy san'at, plastikalarda o'z aksini topgan qadimiy, islomdan oldingi ildiz va an'analarga ega edi. A.Temur zamonasida rasmli qo'lyozmalar bezatilishiga oid ma'lumotlar haligacha qayd qilinmagan. Lekin, monumental rassomchilikka o'xshash rasmiy miniatyura

san'ati muhim o'rin tutganligi uchun, shubhasiz, saroy musavvirlari A.Temur siymosini portretda abadiylashtirishlari lozim edi. XV asrga oid bir necha qo'lyozmada kompozitsiya qismi sifatida portret – rasmlar saqlanib qolgan. Ularda A.Temur tabiat quchog'ida, chamanzorlarda, bayram tantanalarida o'z mulozimlari orasida tasvirlangan. Hirot XV asrning birinchi yarmida xususan Boysunqurning saroy kutubxonasi bilan mashhur bo'ldi. Hirotga boshqa shaharlardan ko'plab xattotlar, musavvirlar va naqqoshlar keltirildi. Jumladan, Boysunqurning farmoni bilan Hirotga Tabrizdan usta Said Ahmad Naqqosh, Xo'ja Musavvir va muqovachi Qavomiddin Tabriziy keltirilgan. Ustaxona boshqaruviga mashhur xattot Farididdin Ja'far Tabriziy qo'yilgan edi. Bu erda keyinchalik turli maktablar ustalarining o'zaro munosabati natijasi o'laroq Hirot rassomchilik maktabi uslubi yaratildi. Hirot miniatyurasida shu asrlarda uchraydigan ayrim mavzular o'z ifodasini topgan. Bular sevishganlar visoli, hukmdor qabulida saroy tasvirining kompozitsion qiyofasi, ov manzarasi va janglar, to'qnashuvlardir. Temuriylar davrining ko'zga ko'ringan tasviriy san'at vakillari quyidagilar: Kamoliddin Behzod, Maxmud Muzahhib, Qosimali, Mirak Naqqosh, Hoji Muhammad Naqqosh, Shoh Muzaffar.

**Musiqa madaniyati.** A.Temur va Temuriylar davrini, mubolag'asiz, nafaqat o'zbek xalqining, balki butun Yaqin va O'rta Sharq ellarining musiqa san'ati jadal ravnaq topgan, kamolot cho'qqisiga erishgan, chinakam Uyg'onish davri bo'lgan deyish mumkin. Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida xonanda va sozandalar rasmiy– diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylangan. Xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o'tmas edi. Bu esa, o'z navbatida, musiqaning boshqa san'atlar qatoridan muhim o'rin egallashini ta'minladi. Manbalarda keltirilishicha, o'zbek xalq musiqasi qatori harbiy – rasmiy musiqa turlari, mumtoz maqom san'ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda arabzabon, forsiyzabon xalqlarining musiqaviy folklori rivoj topdi. Eng muhimi, musiqiy anjomlar jasorat va mardlik timsollariga aylandi. A.Temur davriga xos bo'lgan ma'naviy ko'tarinkilik musiqa san'atining deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyat tug'dirib berdi: sozandalik va xonandalik, musiqa ta'limi, bastakorlik ijodi, musiqa ilmi kamol topdi. Asrlar qa'rida shakllangan an'anaviy "ustoz – shogird" ta'lim tizimi keng quloch yozdi. Musiqa ustozini hammadan ustun qo'yib, "ustozlar ustozi", deb ulug'lagan A.Navoiy o'zi ham musiqiy ilmga ega bo'lib, bu borada muayyan asarlar yaratgani ma'lum. Uning ustozi Xo'ja Yusuf Burhon o'z davrining yirik musiqashunosi va bastakori edi. Bastakorlardan Abdulla Marvarid, Hofiz Sharbatiy, Pahlovon Muhammad, xonandalardan Mavlono Ayniy, Hofiz Qozoq, sozandalardan Hoja Kamoliddin Udiy, Ali Karmal, Xo'ja Abdulloh Sadr, musiqiy risolalar mualliflari Jomiy, Binoiy, Mavlono Salimiy, Mavlono Riyoziylar A.Navoiyning yaqin do'stlari bo'lishgan. Undan tashqari Temuriylar davrida bastakor va xonandalardan Abduqodir

Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Qosim Rabboniylar ham samarali ijod qilishdi. A.Temur va Temuriylar davrida quyidagi musiqiy maqomlar yaratildi: Shashmaqom, Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Royi Iroq, Buzruk.

**Badiiy adabiyot**. A.Temur va Temuriylar davrida badiiy adabiyot ham keng rivoj topdi, bu davrlarda ko'plab badiiy asarlar nafaqat turkiy, balki forsiy tilda ham ko'plab yaratildi. A.Temur davrida forsiy she'riyatda jahonga mashhur Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Salmon Sovajiy; turkiy she'riyatda Sayyid Nasimiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Durbek kabilar yashab ijod etganlar. Undan tashqari, Temuriylar davrida A.Jomiy, A.Navoiy, Z.M.Bobur, "Xusayniy" taxallusi bilan H.Boyqarolar ham ijod qilishgan. Shu davr fors – tojik adabiyotining ulug' namoyandasi A.Jomiy bilan hamkorlikda A.Navoiy Hirot va boshqa shaharlarda ma'naviyat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shdilar. A.Navoiy juda ko'plab asarlari — "Xamsa", "Chor devon", "Xazoinul maoniy", "Majolisun nafois", "Mahbub – ul qulub" lar adabiyotimizning o'lmas durdonalaridir. Z.M.Boburning memuar asari "Boburnoma" asari butun Sharq dunyosining yirik geografik, tarixiy, badiiy durdonasi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, A.Temur va Temuriylar davri madaniyati Sharq xalqlari hayotidagi ikkinchi uyg'onish davridir. Bu davrlarda ilm–fan, san'at, adabiyot, xattotlik, amaliy san'at yuksak darajada rivoj topdi va boshqa davlatlar madaniyatiga katta hissa qo'shdi.

Mustaqillik yillarida YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda A.Temurning 660 yilligi (1996 yil), Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi (1994 yil) Fransiyada o'tkazildi. Amir Temur ordeni ta'sis etildi. Istiqlol yillari Temuriylar tarixi davlat muzeyi o'z faoliyatini boshladi. 1991 yil A.Navoiy yili deb ataldi. Toshkent shahrida A.Navoiy nomidagi Milliy bog' mavjud. A.Temurning Turkiyada, A.Navoiyning Boku, Yaponiya, Moskva shaharlarida, M.Ulug'bekning Latviyada haykallari o'rnatilgan. Bular tom ma'noda xalqimizning faxri va iftixoridir.

**Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans.**

So'nggi yillarda mamlakatimizning barcha jabhalarida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. So'zsiz bunday harakatlarimiz aholimiz orasida yangi umidlarni, yangi g'oyalarni paydo qilmoqda. O'zbekiston tom ma'noda yangi davrga kirdi. Negaki xalqimizning tafakkurida yangilanishlar yuz bermoqda. Shu nuqtai nazardan "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi renessans" tushunchalari tobora xalqimiz ongidan chuqur joy olmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Yangi O'zbekiston» gazetasiga bergan intervyusida Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston konsepsiyalari haqida o'z fikrini bildirib o'tdilar.

"Darvoqe, "yangi" degan so'zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan, eng ko'hna bayramlarimizdan biri Navro'z — Yangi kun deb atalishini esga olaylik. Ushbu qadimiy bayram bilan bog'liq qadriyat va an'analar hayotimizga shu qadar singib ketganki, xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek, "Har tuning qadr o'lubon, har kuning bo'lsin Navro'z!" degan ezgu tilaklar, pok niyatlar bilan yashab keladi», — dedi davlat rahbari.

"O'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz — „jadidchilik", ya'ni, yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz" — deya davom etdi Prezident. «Bu ulug' zotlarning maqsadi — jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g'aflat uyqusidan uyg'otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi», — dedi u.

«Afsuski, yurtimizda bolsheviklar diktaturasi o'rnatilgani chor mustamlakachilik siyosati yangicha shaklda davom ettirilgani ma'rifatparvar bobolarimizga o'z maqsad-muddaolarini to'liq amalga oshirish imkonini bermadi. Lekin ularning ezgu orzu-niyatlari xalqimizning qon-qonida, tarixiy xotirasida saqlanib qoldi va hanuz yashamoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz», — deya ta'kidladi Prezident.

«Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan „Yangi O'zbekiston" g'oyasi zamirida ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz», — dedi davlat rahbari.

Uning so'zlariga ko'ra, O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga — Birinchi (ma'rifiy — IX-XIV asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar — XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo'lgan. «Bu — jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir», — deya qo'shimcha qildi Prezident.

«Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun „Yangi O'zbekiston" va „Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda», — deya xulosa qildi Shavkat Mirziyoyev.

**Ta'lim texnologiyasi: Klaster usuli**

Bu usulda talabaga O'qituvchi savollarni beradi talabalar uni turlicha yondashuv asosida tahlil qiladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Uyg'onish davriga turtki bo'lgan omillar nimalardan iborat?
2. Muso al-Xorazmiyning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasi nimalardan iborat?
3. Alfraganus nomini olgan alloma kim?
4. Islom madaniyati deganda nimani tushunasiz?
5. Hadis deb nimaga aytiladi va uning turlarini ayting...
6. Imom al Buxoriy asarlarini sanang...
7. Uyg'onish davrining ahamiyati haqida gapiring...

**Mustaqil ta'lim uchun vazifalar**

1. Taqdim etilgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. Mavzuga oid maxsus kompleks ish tayyorlang,15 blits savol,10 test va 12 so'zli krossvorddan iborat.
3. Mavzu bo'yicha mustaqil ish tayyorlang (slayd- shou, videodoklad).
4. "O'zbekiston tarixida renessans davri" o'quv mavzuga bag'ishlangan seminar uchun innovatsion usullardan foydalangan holda ssenariy ishlab chiqing (T-diagramma, Venn diagrammasi, SWOT tahlil jadvali, "baliq skeleti", "aqliy hujum" va boshqalar).
6. Mavzu bo'yicha konseptual jadvalini yarating.

## 6-mavzu. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

**Reja:**

1. Mustaqil O'zbekiston davlatining jahon hamjamiyati sari tutgan yo'li.
2. O'zbekistonni BMTga qabul qilinishi.
3. Xalqaro xavfsizlik masalalari va terrorizmga qarshi kurash.
4. Shanxay hamkorlik tashkilotiga kiruvchi davlat rahbarlarining Toshkent shahrida o'tkazilgan uchrashuvi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-75-sessiyasidagi nutqlari.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga O'zbekistonning jahondagi geosiyosiy o'rni, siyosiy tashkilotlar bilan hamkorligi, da'vatlar bilan o'zaro hamkorligi va ochiq siyosati haqida ma'lumot berish

**Tayanch tushunchalar:** Tashqi siyosat, xalqaro huquq normalari, tashqi aloqalar, tashqi siyosat tamoyillari, tashqi iqtisodiy faoliyat, integratsiya, xorijiy sarmoyalar, investitsiyalar, import, eksport, qo'shma korxonalar, Jahon hamjamiyati, BMT, YuNESKO, YeXHT, mintaqaviy xavfsizlik, deklaratsiya, bitim, NATO, EKO, Yevropa ittifoqi, Islom konferensiyasi, Lissabon deklaratsiyasi.

### Mustaqil O'zbekiston davlatining jahon hamjamiyati sari tutgan yo'li.

Tariximizning ana shu o'tgan davrini aniqrog'i 32 yillik mustaqil taraqqiyotimiz sarhisob qilinar ekan, tashqi siyosat va diplomatik xizmatni shakllantirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni ham alohida qayd qilish lozim.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik davrigacha respublika Tashqi ishlar vazirligi apparatida bor yo'g'i 10-15 nafar xodim bo'lib, ular nomigagina vazifasi hisoblangan ishlar, ya'ni protokol majburiyatlari va turli tadbirlar, asosan chet ellik mehmonlarni qabul qilish bilan shug'ullanardi, xolos. O'sha davrda tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlagan bir amaldor ayni paytda kommunal sohasini ham boshqarganining o'ziyoq bu masalaga qanday yuzaki qaralganini ko'rsatib turibdi.

Istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab o'ta muhim tashqi siyosiy masalalarni hal qilishga, davlatlararo siyosiy va iqtisodiy munosabatlar sohasida eng maqbul yo'llarni topishga to'g'ri keldi.

G'oyat qisqa fursatda bu sohada Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar qo'mitasi, keyinchalik esa, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va boshqa qator davlat boshqaruv organlari tuzildi, diplomatik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yaratildi.

Mustaqillikka qadar yurtimizda birorta ham xorijiy davlat elchixonasi yo'q edi. Hozirgi vaqtda chet ellarda mamlakatimizning 48 ta diplomatik vakolatxonasi bor. O'zbekistonda esa 86 ta elchixona va savdo vakolatxonasi akkreditatsiya qilingan.

Mamlakatimizning qulay geosiyosiy o'rni, uning birinchi navbatda o'z milliy manfaatlarini inobatga olgan holda olib borayotgan, har tomonlama chuqur o'ylangan, mustaqil va izchil tashqi siyosati davlatimizning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi, xalqaro maydonda obro'-e'tiborining ortib borishini ta'minladi.

Keyingi davrlarda o'ziga obro' topmoqchi bo'lgan siyosat olib borish degan turli qarash va yondashuvlar haqida chiqishlar bo'lmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz olib borayotgan tashqi siyosatning tag-tomirida hech kimga sir bo'lmagan bir sir turibdi — O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaati. Bizning bu sohadagi barcha qadam va harakatlarimiz faqat ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan, desam, ayni haqiqat bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Konferensiyasi tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va qator ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar ishida faol ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud barpo etish, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq, shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldida turgan boshqa dolzarb muammolarni hal etish ishiga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, har bir mustaqil davlat, ayniqsa, mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlar, hech qachon o'z qobig'iga o'ralib rivojlanmagan. Aksincha, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlashi bilanoq jahon hamjamiyatiga qo'shilish orqali o'z taqdirini belgilagan. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lgach jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lini tutdi. Bu borada mamlakatda olib borilgan amaliy ishlarni tasavvur qilishdan oldin XXI asr arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayon va xalqaro vaziyatga qisqagina nazar tashlash lozim.

Ma'lumki, ilgari jahonda ikki qarama-qarshi sistema — SSSR va AQSh etakchi bo'lgan g'oyaviy jihatdan qarama-qarshi ikki tizim, ikki blok mavjud edi. Dunyoning xavfsizlik tizimi ham xuddi shu ikki blokning o'zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi.

1991-yilda Sovet Ittifoqi tarqalib ketgach, yangi — g'oyat murakkab va qaltis bir davr yuzaga keldi. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat edi.

**Birinchidan,** davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. Jahonda siyosiy-iqtisodiy bo'linish ro'y berdi. Kuchlar markazi ilgari ikki joy da bo'lsa, endilikda o'z taqdirini o'zi belgilash orqali ichki imkoniyatlarni ishga solish, har kim o'z aravasini o'zi tortish zarurati tug'ildi.

**Ikkinchidan,** jahonda mulkiy tengsizlik kuchaydi. Ya'ni sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut va ziddiyatlar kuchaya boshladi.

Bu holat jahon resurslarini taqsimlashda yaqqol ko'rinadi. Ya'ni, tabiat resurslari aslida rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblanadi. Lekin sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlar bu boyliklarni nazorat qilishni o'z qo'llariga olishga intila boshladilar.

**Uchinchidan,** dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud bo'lib qoldi. Ya'ni yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo'lsa ham, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar tahdidi hamon tahlikali holatda saqlanib qolmoqda edi.

**To'rtinchidan,** jahon miqyosidagi umumiy taraqqiyot odamlar dunyoqarashining o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta'siri sezildi. Davlatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro birlashishga intilishni kuchaytirgan, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an'analar va ma'naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarur bo'ldi.

Turli davlatlararo va hukumatga daxli bo'lmagan xalqaro tashki-lotlarning ahamiyati oshib, dunyo yangi tizimga o'tishi davrida ularning faoliyatini qayta qurish va isloh etish ehtiyoji tug'ildi.

Bu o'z navbatida nega shunday qilish kerak, degan haqli savolni tug'diradi. Buning javobi oddiy: ko'pchilik xalqaro tashkilotlarning faoliyatlari asosan davlatlarning o'zaro murosasini ta'minlashga qaratilgan edi, xolos. Bugungi ahvol xalqaro tashkilotlardan eng yirik muammolarga ahamiyat berishni, jarayonlar ichiga kirib borishni, ta'sir doirasini kengaytirishni, hech bo'lmaganda, hammaga barobar odilona va xolisona munosabatda bo'lishni talab etadi.

**Beshinchidan,** rivojlanishning hozirgi bosqichida har qanday mamlakatning nufuzi, avvalo, uning eng yangi texnologiyalarni qabul qilish va foydalanish qobiliyatiga qarab belgilanadigan bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilinsa, O'zbekistondagi o'tish davri boshqa yosh mustaqil mamlakatlarga nisbatan samaraliroq bo'ldi. Natijada O'zbekiston jahon iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tezroq kirib bordi va o'z salohiyatini aniq-ravshan ko'rsata oldi.

Jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida O'zbekistonning geosiyosiy o'rni.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun asosiy shart-sharoitlar bu-uning jug'rofiy-siyosiy jihatdan qulay mintaqada ekanligidir.

Ma'lumki, O'zbekiston geosiyosiy jihatdan ancha murakkab va shu bilan birga qulay makonda joylashgan. Ya'ni u, ***birinchidan***, Markaziy Osiyo mintaqasining transport, boy hamda mustaqil energetika omillari markazida joylashgan.

***Ikkinchidan***, O'zbekiston aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi qo'shnilardan ma'lum darajada ustun turadi.

***Uchinchi tarafdan***, O'zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega. Bu erda qadimiy dehqonchilik madaniyati va boy mineral-xomashyo resurslari bor. Respublika oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlashga, texnika ekinlarining eng qimmatli turlarini, jumladan paxta tolasini etishtirish va eksport qilishga imkoniyati katta. Shuningdek, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatga bardoshli meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishga hamda ularni qayta ishlangan holda etkazib berishga qodir.

***To'rtinchidan***, davlatimiz nafaqat o'zini o'zi ta'minlaydigan, balki chetga chiqarishga neft, neft mahsulotlari, gaz va umuman, iqtisodiyotning asosi bo'lmish muhim tarmoqlarga ega. O'zbekistonda sanoatning eng zamonaviy tarmoqlari, deylik, mikroradio elektronika kabi murakkab sohani rivojlantirish imkoni bor.

***Beshinchidan***, O'zbekistonning insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'rni bor. Davlatimizda ma'naviy-tarixiy merosga boy. U oldindan nafaqat mintaqada, balki dunyoda ham turli ma'naviy va siyosiy jarayonlarga, jahon sivilizatsiyasiga kuchli ta'sir o'tkazib kelgan.

Shu jihatlarni hisobga olsak, O'zbekiston o'zining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha jahondagi madaniy, ilmiy texnologiya va iqtisodiy yuksaklikka erishib, bemalol Markaziy Osiyoda integratsiya markaziga aylanishi mumkin.

Albatta, bu yo'lda qator qiyinchiliklar ham mavjud. ***Bular quyidagilar:***

***Birinchidan***, agar geografik-strategik tarafdan olib qarasak, Markaziy Osiyoda kommunikatsiyalar nomaqbul rivoj topgani va uning tarmoqlari ancha buzilganligini ko'ramiz.

***Ikkinchidan***, Markaziy Osiyoda suv resurslari cheklangan va Orol dengizi bilan bog'liq ekologik falokat ta'siri seziladi.

***Uchinchidan***, mintaqada xavfsizlik tizimi alohida e'tiborni taqozo etadi. Bu erda atrofdagi kuchli davlatlar va siyosiy kuchlar markazlarining bir-biriga mos kelmaydigan ta'sir etish istaklari borligini ham hisobga olmasdan bo'lmaydi.

***To'rtinchidan***, musulmon dunyosidagi ba'zi mamlakatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari ham ayni bizning xotirjam bo'lishimizga yo'l bermaydi.

***Beshinchidan***, atrofimizda turli etnik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa muammolar ichida qolgan «uchinchi dunyo» davlatlari ham mavjud. Jumladan beqarorlik va xavf-xatarning bugungi kundagi o'chog'i — Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari ham shu mintaqada. Bayon etilgan bu muammolarni kuchaytirib va ma'lum darajada

ko'p ishlarni ijobiy hal qilishga to'siq bo'lib turgan yana bir masala bor. Sho'ro tizimidan qolgan meros — bu shu mintaqada Turkiston atalmish yagona zaminda yashayotgan millat va elatlarni sun'iy ravishda bo'lib tashlash va shundan foydalanib, o'z siyosatini o'tkazish, ularga hukmronlik qilish asoratlari hali-beri yo'qolmagan. XXI asr bo'sag'asida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o'zgardi, inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga daxldorlik hissi tobora kuchaydi.

XX asrning so'nggi o'n yilligi har qanday zo'ravonliklar, tazyiqlar va g'oyaviy xurujlarni aql-idrok va ochiqdan ochiq munosabatlar orqali hal etish sari dadil qadam qo'yilgan davr bo'ldi. O'zbekiston yosh mustaqil davlat sifatida o'z mavqe va nufuzini mustahkamlash bilan birga dunyo ahlini jahon siyosatini isloh qilishga da'vat etgan davlatlardan biri bo'lib maydonga chiqdi.

Geografik-siyosiy o'rni jihatdan O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashganligi ayni ana shu mintaqada barqarorlikni ta'minlash, o'zaro hamkorlik va birodarlikni chuqurlashtirish uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi. Mustaqillikning tarixan qisqa davrida u o'zining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qudratini to'la-to'kis ko'rsata oldi. Ayni ana shu mintaqa taqdirini hal qilishga qodir bo'lgan kuchli davlat sifatida o'zini namoyon etdi.

Birgina bu emas: O'zbekiston Osiyo va Yevropa qit'alari o'rtasida munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, siyosiy iqlimni mo'tadillashtiruvchi G'arb-u Sharq o'rtasidagi azaliy raqobatni aql-idrok, donolik, tafakkurga asoslangan munozaralar va muzokaralar orqali uyg'unlashtirishga da'vat etgan shu mintaqadagi yagona davlat bo'lib maydonga chiqdi.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston Pokiston, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston muammolari bilan birga Rossiya va umuman Yevropa mamlakatlari munosabatlarini ma'lum bir o'zanga solishga da'vat qilayotgan, uni o'zining amaliy faoliyati bilan yaxshilik sari burishga katta ta'sir ko'rsatayotgan davlatdir.

O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov dunyo muammolarini hal qilishning eng insonparvar, eng adolatparvar tamoyillarini o'rtaga tashlar ekan, u mintaqaviy mojarolar va qo'shni mamlakatlarni o'zaro kelishmovchilik muammolaridan tortib butun er shari va insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan juda ulkan masalalarni o'rtaga tashlamoqda. Bu ayniqsa, xalqaro terrorizm va narkobiznes, diniy aqidaparastlik va ekstremizm bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Ayni ana shu muammolar bugun dunyo ahli hayotiga tahdid solayotgan eng og'ir fojia ekanligini, u bilan murosa qilib bo'lmasligini, bu illatlarni barbod qilishda juda katta qat'iyat, siyosiy iroda va ichki qudrat kerakligini O'zbekiston o'z timsolida ko'rsatdi.

Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli kitobida va O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq XIV sessiyasida qilgan «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma'ruzasida xuddi ana shu muammolarni keskin qilib qo'ydi. Xalqaro terrorizm va narkobiznesning o'zaro uzviyligi, bir-biriga bog'liqligi, uning tarqalishiga ba'zan diniy niqoblardan foydalanila-yotganligi, natijada diniy aqidaparastlik va ekstremizmning rivojlanib borayotganligi ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilgan. O'zbekiston rahbarining ana shu har ikki asari davlatimizning yangi yuz yillik va yangi ming yillikdagi siyosiy strategiyasini belgilaydi. Mazkur kitobning dunyoning bir necha o'nlab mamlakatlarida tarjima qilib bosilganligi, jahon siyosatdonlari va davlat arboblarining bu kitobda ko'tarilgan masalalarga bergan yuksak baholari, jahon jamoatchiligining katta qiziqish bilan unga qarayotganligi fikrimizning dalilidir. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yutuqlardan muhimi uning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olganidir.

**O'zbekistonning BMTga qabul qilinishi.**

1991-yil 31-avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi bayonot»da O'zbekistonning tashqi siyosatdagi yo'li aniq qilib belgilangan edi. Jumladan unda: «Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o'z hududini qurol-yarog'lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo'l qo'ymaslikdan iborat», — deb qayd qilindi.

Oradan ma'lum muddat o'tgandan so'ng 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasida bu yo'l yana bir bor ta'kidlanib davlatimiz tashqi siyosatining asosiy qoidalari qonun bilan mustahkamlab qo'yildi. «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tinchligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va me'yorlariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin», — deyiladi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida.

O'zbekiston tashqi siyosatiga doir bunday qoidalar I.A. Karimovning nutq, maqola va risolalarida yanada oydinlashtirildi. U o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida: «O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan, ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish -davlatimizning mustaqilligini

mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir», — deb alohida uqtirdi.

Hukumatimiz o'zining tashqi siyosatida mana shu ko'rsatmalarga amal qilib keldi. O'zbekistonning tashqi siyosat borasida tutgan yo'li davlatimiz biron bir buyuk davlat ta'sir doirasiga tushib qolmasligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik tamoyilini ro'yobga chiqarish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va mezonlariga asoslanadi.

1992-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida birinchi bor jahon hamjamiyatining teng huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoligiga qabul qilindi. Bu tarixiy voqea O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatdan munosib o'rin olishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, Tojikiston va Afg'oniston mojarolari, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rtaga qo'ydi.

O'zbekiston Prezidentining asosli mulohazalari bu nufuzli tashkilot tomonidan inobatga olinib, 1993-yil fevral oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ta'sis etilib, ish boshladi. Xolid Malik BMTning O'zbekistondagi vakili qilib yuborildi.

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi respublikada BMTning taraqqiyot dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, qochoqlar ishi bo'yicha vakillari Oliy Komissari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha dastur, Bolalar jamg'armasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

**O'zbekiston va Rossiya munosabatlari.** O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi tomonidan 1992-yilning 20-martida tan olingan va o'sha kundan e'tiboran ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Rossiya va O'zbekiston munosabatlari, albatta, yaqin qo'shnichilik, bir necha asrlik yaqinlik an'analariga ega. Bu munosabat SSSR parchalanib ketgandan so'ng saqlanib qolindi, rivojlantirildi.

V.Putinning hokimiyat tepasiga kelishi bilan har ikki davlat munosabatlari yana ham chuqurlashdi. E'tiborli jihati shundaki, V. Putin davlat rahbari sifatidagi ilk rasmiy tashrifini O'zbekistonga amalga oshirgan edi. Bu hol Rossiya O'zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik sherigi sifatida tan olganidan dalolatdir. Albatta, ikki tomonning milliy hamda mintaqaviy xavfsizlik masalalari borasida qarashlar yaqinligining ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston Birinchi Prezidenti Oliy

Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ta'kidlaganidek, «Rossiya bilan tarixan qaror topgan iqtisodiy, madaniy, do'stlik aloqalarimiz O'zbekiston uchun, qolaversa, butun mintaqamiz uchun hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Shuni ta'kidlashni istardimki, tenglik, o'zaro manfaatdorlik asosiga qurilgan, ikki davlat orasidagi ko'p tomonlama hamkorlik, strategik sheriklikni kuchaytirish uchun bugun yangi imkoniyatlar paydo bo'layotgani har ikki tomon — Rossiya va O'zbekiston manfaatlariga ham mos keladi» *(Karimov I. Ozod va obod Vatan, ERKIN va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2000, 347-bet).*

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida o'zbekistonlik rezidentlar tomonidan Rossiyada tashkil etilgan 276 ta korxona ro'yxatga olingan. Shuningdek, ushbu vazirlikda 83 ta Rossiya kompaniya va firmalarining O'zbekistondagi vakolatxonalari ochilgan.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida 676 maktabda rus tilida dars olib boriladi, ularda 250 ming o'quvchi ta'lim olmoqda.

Mustaqillik yillari respublika kutubxonalari yangi adabiyotlar bilan boyitildi. Respublikada har yili rus tilida 1,0-1,2 mln. adadda 40-45 nomda darslik va qo'llanmalar nashr qilinadi. Rus tilida 85 ta gazeta va 52 ta jurnal chop etiladi.

Ikki mamlakat fan, madaniyat va jamoat arboblarining tashabbusi bilan 2004-yilning mart oyida Moskvada o'zbek xalqining boy madaniy-tarixiy merosini targ'ib etish maqsadida tashkil etilgan «O'zbekiston madaniyati va san'ati fondi»ning taqdimoti bo'lib o'tdi.

Ikki mamlakatning taniqli san'at va madaniyat arboblarining uchrashuvlari, milliy teatrlar gastrollari hamda musavvirlar ko'rgazmalari doimiy ravishda o'tkazib kelinmoqda.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalarga tayanib, O'zbekiston — Rossiya munosabatlari har qachongidan mustahkamlanib borayotganini ta'kidlash mumkin. Ittifoqchilik shartnomasi ikki mamlakat o'rtasidagi yaqin hamkorlik munosabatlarining ishonchli kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Taniqli rus siyosatshunosi A.Migranyanning ta'kidlashicha, Rossiya bilan ittifoqchilik aloqalari O'zbekiston xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini yuqori darajada ta'minlaydi («Pravda vostoka», 2005-yil 23-noyabr). Uning fikricha, ikki mamlakatning o'zaro yaqinlashuvi postsovet makonida bir talay omillar bilan belgilangan taraqqiyot tendensiyalarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berayotganidan dalolat beradi. Olimning ta'kidlashicha, postsovet makonda integratsiya jarayonlarining yangi bosqichi ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada, jumladan, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida sifat jihatidan mutlaqo yangi munosabatlar vujudga kelayotgani anglab etilayotganidan darak berayotir.

**O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama hamkorligi.** O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlar — Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratildi. Bu, beshta davlat tarixi,madaniyati, tili va dilining birligidan, tomirlarining tutashib ketganligidan kelib chiquvchi jiddiy siyosat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'li edi. Shuni alohida aytish kerakki, O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov keyingi besh yillar mobaynida bu mintaqadagi davlatlar, xalqlar o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatib uni mustahkamlash va rivojlantirish tadbirlarini qadam-baqadam amalga oshirib kelmoqda.

Ma'lumki, bir necha ming yilliklar mobaynida joni joniga, qoni qoniga payvand bo'lib ketgan Markaziy Osiyo — qadimiy Turon xalqlari sobiq SSSR davrida turli millatlarga ajratib tashlandi. Qog'ozdagina suveren, aslida esa markazga qaram sovet respublikalari barpo etildi. Bu soxta siyosat tufayli an'analari, turmush tarzlari, ruhiy va ma'naviy qadriyatlari bir bo'lgan xalqlar O'zbek-u Qozoqqa, Tojik-u qirg'iz, Turkmanga bo'lib yuborildi.

Albatta, mazkur xalqlar o'tgan 70 yildan ko'proq vaqt mobaynida millat sifatida shakllandi. Ularning o'z tili, madaniyati bor. Endi ularni butunlay birlashtirib yuborish milliy qadriyatlarini toptash bilan barobar. Biroq, masalaning boshqa tomoni ham bor. Ya'ni, yagona Turkiston zaminida sobiq SSSR tarqalgach vujudga kelgan mustaqil davlatlar o'z tarixiy kelib chiqishlari, xalqlarining boy o'tmishi, ma'naviy va ruhiy ehtiyojlari nuqtai nazaridan o'zaro yaqinlashishga hayotiy zarurat sezishlari tabiiy hol edi.

Markaziy Osiyo xalqlari ruhiyati asrlar mobaynida bir-biriga tutashib, ma'naviy, diniy va axloqiy munosabatlari uyg'unlashib ketgan, yashash tarzlari va urf-odatlari mushtarak bo'lib, yagona, ulkan va jonli vujudga aylangan edi. Shuning natijasida qondosh-u jondoshlik, bir butunlik an'analari tarkib topgan. Kishilik tarixida bunday ma'naviy, ruhiy va fikriy yaqinlik bu diyorda hamisha ham-ma narsadan ustun kelgan. Shuning uchun ham Mavlono Rudakiy: «Dunyoning shodligi yig'ilsa butun, Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun», deb bejiz aytmagan. Mustaqillik sharoitida millat, millatlar-aro munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarning madaniy merosi, etnik muammolari, jug'rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlar o'zgardi. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarixi o'ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni hayot taqozo eta boshladi. Zero, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan, tarixan bir muhitda yashab, o'tmish madaniyati bir zaminda vujudga kelgan, biroq,

ayni paytda mustaqil davlat bo'lib yashayotgan mamlakatlar o'z tarixiy ildizlarini qidirib topishini, o'zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklashini hayotning o'zi zarurat, deb hisoblamoqda.

1993-yilning yanvarida Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari Hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqa xalqlari zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldilar va qo'llab-quvvatladilar.

Shu tariqa jahon siyosiy so'zligida «Markaziy Osiyo» degan yangi atama paydo bo'ldi. Albatta, bu hodisaga turli toifa va qarashdagi siyosatchilar, huquqshunoslar, iqtisodchilar turlicha baho berdilar. Ayrimlari hatto, mintaqadagi mamlakatlar birlashib, yagona davlat bo'larmish, deyishgacha bordilar. Mintaqa rahbari kim bo'ladi? Qaysi til davlat tili bo'ladi, ko'pmillatli mintaqa milliy madaniyatlari muammolari qay yo'sinda hal etiladi, qabilidagi savollar tug'ildi. Islom Karimov Markaziy Osiyo Hamdo'stligini vujudga keltirish tashabbuskori sifatida uning maqsad va mohiyatini aniq ravshan ko'rsatib berdi. Ya'ni, Mustaqil Davlatlar suvereniteti daxlsizdir. Hamdo'stlikka a'zo bo'lgan mamlakatlar xalqaro huquq normalariga to'la amal qilgan holda davlat tizimiga, boshqaruv usuliga va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlat Konstitutsiyasini hurmat qilish va tan olish, faqat iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yish, yagona bozor, mol ayirboshlash imkoniyatlarini kengaytirish, bojxona va chegaralardagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi. Oradan ko'p o'tmay ana shu Hamdo'stlikka amaliy poydevor qo'yildi. 1995-yilning yanvar oyida Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev Toshkentga keldi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka doir qator hujjatlarga imzo chekildi. Tez orada bu bitimga Qirg'iziston ham qo'shildi. Natijada uch mamlakat o'rtasida yagona bozorni vujudga keltirish, mahsulot ayirboshlash imkoniyati yaratildi.

Markaziy Osiyo Hamdo'stligi nafaqat bugungi o'tish davri mahsuli, balki jug'rofiy, tarixiy-etnik va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojdir. Ularning har qanday siyosiy va iqtisodiy Hamdo'stlikdan ham baland turadigan qadimiy qadriyatlari bor. Ming yilliklar mobaynida shakllangan ma'naviy, madaniy, axloqiy, diniy va lisoniy mushtaraklik ham mavjud.

Dunyoviy muammolar, insoniyat taqdiriga daxldor masalalar echimini topishda mamlakatlar va xalqlar, milliy manfaatlari hamda ehtiyojlaridan qat'i nazar, birgalikda o'zaro hamkorlik yo'llarini izlaydilar. Biroq, hech qanday hamkorlik, turmush tarzlari, urf-odatlari, ruhiyatlari uyg'unlashib ketgan yaqin qo'shni xalqlarning do'stligiga teng kelolmaydi. Chunki bu erda ajdodlar ruhi bilan kelajak avlodlar bog'liqligi, bir butun

zamin — Ona Vatan yaxlitligi kabi muqaddas tuyg'u doimo barqarordir. Prezident Karimov Markaziy Osiyo xalqlari birligini mustahkamlashning mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish siyosatining insonparvarlik mazmuni ana shunda, deb bildi.

Biroq, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligining samarali ishlashi uchun to'siq bo'layotganlar ham oz emas. Bular, birinchidan, etmish yillik yaqin o'tmishda shakllangan, soxta millatparvarlik hissiyoti, aholi bir qismi tushunchasi va dunyoqarashining ma'lum darajada cheklanganligi, mintaqaviy hamkorlik mazmun-mohiyatini to'la va chuqur tushuna olmayotganligi bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatlarimizning o'zaro yaqinlashuvidan tahlikaga tushayotgan kuchlarning mavjudligidir. Bu yo'ldagi yutuq va kamchiliklarni, mavjud ziddiyatlarni o'z vaqtida anglagan Karimov masalaga real qaraydi va xolis baholaydi.

1993-yilning iyul oyida Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida 1994-2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bitim imzolandi. 1994-yilning yanvarida yagona iqtisodiy hududni barpo qilish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Bu shartnomaga 1994-yil aprel oyida Qirg'iziston Respublikasi qo'shildi. Uch davlat o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirib turuvchi Ijroiya qo'mita tuzildi, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki ta'sis etildi. Ana shu organlarning ishi natijasida Bishkekda Respublikalar Bosh vazirlari Kengashi qarori imzolandi. Unda tomonlar 2000-yilga qadar respublikalarni iqtisodiy jihatdan bir-biriga yaqinlashtirishning yo'nalishlari belgilandi.

1994-yil 8-iyulda Islom Karimov boshchiligidagi davlat delegatsiyasi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari davlat va hukumat boshliqlari uchrashuvida ishtirok etish uchun Almatiga bordi. Qozog'iston Prezidenti qarorgohida uch mamlakat rahbarlarining yakkama-yakka suhbati bo'lib o'tdi. So'ng delegatsiyalarning kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari boshlandi. Muzokaralar nihoyasida Prezidentlar Islom Karimov, Nursulton Nazarboyev va Asqar Akayev birgalikda bayonot hamda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston xalqlariga Murojaatnoma qabul qildilar. Shuningdek, aholi migratsiyasi sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum hamda uchala mamlakat o'rtasida Markaziy Osiyo Hamkorlik va taraqqiyot bankini ta'sis etish to'g'risida bitim imzolandi. Hukumat rahbarlari esa davlatlar o'rtasida harbiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot sohasidagi hukumatlararo bitim va shartnomalarni, shuningdek, axborot bilan ta'minlash sohasidagi bitimlarni imzoladilar.

Shu yillarda ijtimoiy hayotning ko'pgina sohalari, xususan, ilm-fan, madaniyat sohasida O'zbekiston — Qozog'iston munosabatlari yanada kengayganligini alohida uqtirish lozim. Xususan, 1996-yilgacha ilm-fan va texnologiyalarning 16 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 107 ta qo'shma loyiha tayyorlandi.

1994-yili O'zbekistonda Qozog'iston Respublikasi kunlari o'tkazildi va unda O'zbekiston — Qozog'iston Markazini tashkil qilish xususida kelishib olindi. Tenglik asosida axborot va tahririyat materiallari almashadigan bo'lindi. Xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ham O'zbekiston — Qozog'iston munosabatlari yanada kengaya bordi. Xususan, madaniy aloqalar an'anaviy tus oldi.

Cho'qon Valixonov, Abay, Jambul, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Anvar Olimjonov, O'ljas Suleymonov va boshqa qozoq ijodkorlarining asarlari o'zbek va qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi. Ayni chog'da Oybek, G'afur G'ulom, Mirtemir asarlari qozoq tilida ommaviy nusxalarda nashr qilinib, kitobxonlarga etkazildi.

Hozirda Qozog'istonda bir million o'zbek, O'zbekistonda esa bir milliondan oshiq qozoq istiqomat qilayotganligi uchun ham madaniy aloqalarga katta e'tibor berildi. O'zbekistonda 605 ta qozoq maktabi bo'lib, unda 15 ming bola o'qiydi. Toshkent, Sirdaryo, Jiz-zax, Nukus va Navoiy pedagogika institutlarida qozoq tilida o'qish olib boriladigan bo'limlar ishlay boshladi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida qozoq adabiyoti Kengashi, Jizzax viloyatida «Koktem» qozoq teatr studiyasi tashkil etildi. O'zbekistonda 1992-yildan boshlab qozoq tilida «Nurli jon respublika gazetasi nashr qilina boshlandi. Markaziy Osiyo davlatlari o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, Orol dengizini saqlab qolish, mintaqadagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish yo'lida kuchlarni birlashtirish, bahamjihat hamkorlikda faoliyat ko'rsatish mumkinligini tushunib etdilar. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari 1993-yil 26-martida Qozog'iston Respublikasining Qizil O'rda shahrida, 1994-yil 11-yanvarda Nukus shahrida, 1995-yil 3-martda Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz shahrida, 1995-yil 20-sentyabrda yana Nukus shahrida Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar.

Ayniqsa, 1999-yil 8-aprel kuni Turkmaniston Prezidentining saroyida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasining majlisi haqida to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Unda Jamg'arma Prezidenti — O'zbekiston rahbari Islom Karimov Jamg'armaning 1997- 1999-yillardagi faoliyati haqida so'zladi va kelgusida jamg'armani rivojlantirish bo'yicha o'z takliflarini bayon qildi.

Sammit kun tartibi doirasida Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasining nizomiga o'zgarish va qo'shimchalar kiritish. Jamg'arma va uning qoshida ochilgan tashkilotlar mavqeyini belgilash masalalari ham ko'rib chiqildi. Uchrashuv yakunida O'rta Osiyo mamlakatlari va Qozog'iston rahbarlarining Qo'shma bayonoti hamda Orol muammolari bo'yicha uchrashuv yakunlariga doir Ashxobod Deklaratsiyasi qabul qilindi.

Markaziy Osiyo davlatlari qardoshlik munosabatlarida O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, tojik va o'zbek xalqining o'tmishi, ularning o'zaro bog'liqligi va hozirgi munosabatlari turli davrlarda turlicha munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ayrim mafkurasi buzuq ig'vogarlar ana shu har ikki millatning nozik jihatlaridan foydalanib, ularning hissiyoti va sha'niga tegishmoqda. Har ikki millat o'rtasiga nifoq solishga urinishlar bo'ldi. Aslini olganda mintaqa xalqlarining shakllanish jarayoni asosan bir zamin va bir xil tarixiy sharoitda vujudga kelgan. Ular bir xil hayotiy, ruhiy kechinmalar jarayonini boshdan kechirishgan. Dunyoqarashlari, ong va tushunchalari ana shu umumiy yaxlitlik, umumiy uyg'unlik doirasida paydo bo'lgan. Tillardagi turli lahjalar va shevalar ularning bir butunligini, yaxlit va umumiyligi inkor etmaydi. Aksincha o'zaro yaqinligini, qardosh va qarindoshligini tasdiqlaydi. Ular o'rtasida kim qaysi tilda gaplashayotgani bilan emas, kim qanday umumiy manfaat, umumiy qadriyat xususida o'ylayotgani va unga intilayotgani bilan munosabatlarini baholashgan.

Shuning uchun ham keyingi 10 yilliklarda Tojikistonda yuz berayotgan notinch voqealarga o'zbek xalqi, O'zbekiston rahbariyati befarq qaramadi. Tinchligi buzilgan tojik xalqiga o'zbek xalqi muntazam insonparvarlik yordamini berib turdi. Islom Karimov bir qator xalqaro minbarlarda, jumladan, BMT, YeXHT va MDH davlat rahbarlari bilan uchrashuvda Tojikistonda vaziyatni normallashtirishga, uni tinch, siyosiy yo'l bilan hal qilishga qaratilgan takliflarni o'rtaga tashladi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, Tojikiston va Afg'oniston mojarolari, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rtaga qo'ydi.

**Xalqaro xavfsizlik masalalari va terrorizmga qarshi kurash.**

O'zbekiston 1992-yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (EXHT) a'zo bo'lib kirdi. I. Karimovning 1992-yil 9-10-iyulda bo'lib o'tgan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etishi, nutq so'zlashi va uning 10-iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirib borayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning xalqaro miqyosda tinchliksevar siyosat o'tkazishi uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. 1993-yil sentyabrda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 48-sessiyasida O'zbekiston Birinchi Prezidenti I. Karimovning ishtiroki va unda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron davlat sifatida tanitdi.

O'zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qo'shilmaslik harakatiga qabul qilindi. Bo'lg'usi jahon Parlamentining tim-soli bo'lmish Parlamentlararo Ittifoqqa kirdi.

Mamlakatimiz Parlamentlararo Ittifoqning 93- va 94-konferensiyalarida hamda YeXHT Parlament Assambleyasining har yili o'tkaziladigan sessiyasida muntazam qatnashmoqda. Oliy Majlis Raisi YeXHT Parlament Assambleyasining Vitse prezidenti etib saylandi. Ana shu va boshqa xalqaro anjumanlarda O'zbekiston vakillari ma'ruza va axborotlar bilan chiqdilar, qator takliflarni o'rtaga tashladilar. Shu tariqa respublika Parlamenti a'zolarining ovozi xalqaro maydonda baralla yangramoqda. Davlatimizning obro' e'tibori mustahkamlanib, xalqaro miqyosda tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Mustaqillikning ilk damlaridayoq Oliy Majlis Raisi Ye.X. Xalilovning Avstriya, Germaniya, Ispaniya, Shveysariya, Belgiya, Bol-gariya, Pokiston, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa bir qancha mamlakatlarning davlat boshliqlari, parlament va vakolatxonalar boshliqlari bilan uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Oliy Majlisda o'n uchta parlament delegatsiyasi, shu jumladan GFR, Yaponiya, Quvayt, Litva, Latviya, Pokiston, Bolgariya va Turkiya mamlakatlarining parlament delegatsiyalari, Shveysariya, Xitoy, GFR va Litvaning rasmiy hukumat delegatsiyalari, turli xalqaro tashkilotlarning o'n uch nafar vakili, xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi elchilari va elchixonalari hamda vakolatxonalari xodimlaridan 28 kishi, shu jumladan, Fransiya, GFR, Janubiy Koreya, AQSH, Rossiya, Pokiston, Turkiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Hindiston namoyandalari qabul qilindi. O'z navbatida O'zbekiston parlamenti a'zolarining delegatsiyalari bir qancha davlatlarda, shu jumladan, AQSh, GFR, Turkiya kabi mamlakatlarda bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnika va madaniy tashkilotlar — Jahon iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropada tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro pochta ittifoqi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Osiyo va Tinch okean havzasi bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiya, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Bojxonalar hamkorligi Kengashi, BMTning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Qo'mitasi (YuNESKO) va boshqa tashkilotlar a'zosidir.

1995-yil 15-16-sentyabrda Toshkentda Markaziy Osiyo Xavf-sizlik va Hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar Kengashi bo'ldi. Bu Kengashda ishtirok etish uchun 31 mamlakat, 6 Xalqaro Tashkilotlar vakillari qatnashdilar. Mintaqa xavfsizligi va mojarolarning oldini olish masalalari ko'rib chiqildi.

1995-yil oktyabrda nishonlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 50 yilligi va uning yubiley sessiyasi O'zbekistonning xalqaro siyosat borasidagi yangidan yangi

imkoniyatlarini ko'rsatishga sharoit yaratdi. I. Karimovning ana shu mo'tabar minbardan turib so'zlagan nihoyatda qisqa va lo'nda nutqi jahon hamjamiyatining tamoyilga aylangan qarashlarini o'zgartirishga, xalqaro tashkilotlar faoliyatini yangicha shakl va mazmun bilan boyitishga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, u mamlakatlararo, mintaqalararo va qit'alararo munosabatlarni chuqurlashtirish, har bir mintaqada vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishidan oldidan ogoh bo'lish, ularni o'z vaqtida o'rganish va zarur xulosalarga kelish, shu asosda umumbashariy muammolarni chigallashtirmasdan hal etish masalalarini ko'tardi.

I.A. Karimov asosli va ahamiyati jihatidan dolzarb nutqi zamin va zamon taqdiriga, olamu odamlar tashvishiga daxldor bo'lgan har bir siyosiy arbob, har bir davlat rahbari va ayniqsa, xalqaro tashkilotlarning mas'uliyatini oshirish, ularni hushyorlikka chaqirish, olamga sergakroq va tiyrakroq qarash zarurligiga diqqatni qaratadi.

Darhaqiqat, XXI asr har bir davlat rahbarining faqat o'z mamlakati va xalqi doirasida o'ylashi kabi hodisalarni unchalik ham xush ko'rmaydi. Yangi yuz yillik o'z tabiati va ehtiyojiga ko'ra endi tor «mahalliy» doiralardan keng dunyoviy may donga chiqishni, mamlakatning kundalik tashvishlariga o'ralashib qolmasdan, olam minbarlaridan turib dunyo kengliklariga nazar tashlashni va shu asosda umumbashariy muammolar hamda xalqaro masalalarni hal etishning umuminsoniy va er kurrasining istiqboliga daxldor bo'lgan keng miqyosli fikrlash tarzini taqozo etadi. Bularning bari yangi dunyoning va yangi yuz yillikning jahon siyosatiga olib kirayotgan g'oyat insonparvar, hayotiy va ezgulikka tayangan, dunyo siyosatining yangi madaniyat darajasini belgilaydigan omillardir.

Birinchi Prezident Islom Karimov dunyoviy jarayonlarni doimiy ravishda kuzatadi. Olis istiqbolga katta umid va ishonch bilan qaraydi. Ayni paytda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini, ularning kelib chiqish manbalarini ancha oldindan kuzatadi va ularning natijalarini, salbiy yo ijobiy xulosalarini ko'plardan oldinroq ilg'aydi, oldinroq qarorga keladi. Bularning bari uning keng qamrovli tafakkur egasi ekanligini, voqealarga donishmandlik bilan yondashishini yaqqolroq ko'rsatadi.

O'zbekiston rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 50-sessiyasida ko'targan dolzarb masalalari butun jahon siyosatdonlari va ulkan davlat arboblarini jiddiyroq o'ylashga, masalalar mohiyatini ancha chuqurroq anglashga, yangi asr ostonasida turib, yuz yilliklar ortini yorqinroq va ravshanroq ko'rishga da'vat etayotgani bejiz emas.

I. Karimov bu ulkan minbardan turib, birinchidan, davlat arboblari va siyosatdonlar diqqatini milliy xavfsizlik masalasini hozirgi zamon talab va ehtiyojlari nuqtai nazardan qaytadan ko'rib chiqishga qaratdi. Chunki hozirgacha Xavfsizlik Kengashiga

doimiy a'zo bo'lgan besh davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoligiga kirgan 187 davlat tashvishlarini, ularning muammolari va taqdirini hal etishga qodir emasligini, keng dunyoning bir-biriga o'xshamagan, bir-birini takrorlamaydigan va hatto bir-biriga zid muammolarining barchasini qamrab olishga kuchi etmasligini, bu keng miqyosli ishga qodir emasligini ko'rsatib berdi. Shuning uchun ham Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolari doirasini, ularning faoliyat maydonini kengaytirish va mazmunini chuqurlashtirish zarur ekanligiga hamjamiyat a'zolariningeʼtiborini qaratmoqda. Ana shu kengash a'zoligiga Yaponiya va Germaniya mamlakatlarini ham qo'shish zarurligini aytdi va ularning nomzodini ko'rsatdi.

Prezident I. Karimov ko'targan ikkinchi masala Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirish, uning jahon mamlakatlari taraqqiyotiga qo'shadigan hissasidan kelib chiqib, o'z maqomini kuchaytirish masalasidir. Bosh kotibga ko'proq imkoniyat berilsa, uning dunyoviy muammolarga ko'proq aralashib, samarali ishlashiga sharoit yaratiladi. Masalalarni hal etishda xalqaro tashkilotlar mavqeyini kuchaytirish mamlakatlar o'rtasida paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklarga Bosh kotib ta'sirini kuchaytirish, ularni umuminsoniy va umumjahon manfaatlari tomonga burib yuborishdagi rolini oshiradi. Oila boshlig'i qanchalik katta imkoniyatga ega bo'lsa, moddiy va ma'naviy jihatdan mustahkam bo'lsa, siyosiy va huquqiy jihatdan vakolatlari keng bo'lsa, oilada barqarorlik, tinchlik, farovonlik ta'minlanishi shubhasiz. Yagona zamin, yagona makon hammamiz uchun najot maydoni. Uning qaysidir burchagida tutun burqsishi yoki qon to'kilishi boshqa biron-bir burchagida tinchlikni kafolatlay olmasligini chuqurroq anglagan va hammadan oldinroq sezgan Prezident I. Karimov Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga — ulkan dunyoviy oila boshlig'iga ana shunday keng imkoniyat berish masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Uchinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti olti milliarddan ortiq aholining butun tashvishini nazoratga olishi ancha murakkab ish. Bu osonlik bilan ko'chmaydi. Buning uchun qator mamlakatlararo va mintaqalararo faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar maqomini biroz o'zgartirib, uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasiga kiritish zarur. Ana shunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining umumiy faoliyat maydoni yanada kengayadi, u shug'ullanadigan masalalar konkretlashadi. Joylarda unga bo'ysunuvchi xalqaro tashkilotlarning mintaqaviy muammolar va mamlakatlararo munosabatlarda yuz berayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish imkoniyati tug'iladi. BMTning turli mintaqalardagi, jumladan, Markaziy Osiyodagi vakolatxonalari imkoniyatlarini kengaytirish ularning maqomini oshirish zarurati haqida gapirar ekan, Birinchi Prezident I. Karimov «Birlashgan Millatlar Tashkiloti qayerda? Amerikada, Nyu-Yorkda joylashgan. O'zbekiston qayerda? Markaziy Osiyoda! Shuning uchun bu erdagi tashkilotning tarkibi, albatta, kengroq bo'lishi

kerak. Unga hali ko'proq huquq berish va iqtisodiy nuqtai na-zardan imkoniyatlarini kengaytirish kerak» — deydi. O'zbekiston televideniyasi muxbiri savollariga javob bera turib.

Ayni paytda turli mintaqalarda, turli doiralarda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar ancha-muncha. Jumladan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, arab davlatlarida Islom Tashkiloti, Janubiy-Sharqiy Osiyoda Tinch okeani mintaqasi davlatlarining Kengashi faoliyat ko'rsatmoqda. Yana bir qancha iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va huquqiy doirada ish olib borayotgan xalqaro tashkilotlar mavjudki, ana shularning hammasini birlashtirib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasiga kiritish, xalqaro tashkilotlar yagona tizimini vujudga keltirish XXI asr taqdirini belgilaydigan muhim omil ekanligini ko'rsatib berdi.

## Shanxay hamkorlik tashkilotiga kiruvchi davlat rahbarlarining Toshkent shahrida o'tkazilgan uchrashuvi.

Hozirgi davrda O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashkilot (1996-y. Shanxayda chegara hududlarida harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida imzolangan Bitim doirasida) Xitoy bilan qo'shni davlatlar o'rtasida chegaralarga doir masalalarni hal etishga qaratilgan norasmiy forum sifatida tashkil etilgan edi.

ShHT — submintaqaviy xalqaro tashkilotga oltita davlat -Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston a'zo bo'lgan. ShHT tarkibiga kiradigan davlatlarning umumiy hududi Yevrosiyo hududining 61 foizini, umumiy demografik (rusiy) jihatdan dunyo aholisining to'rtdan bir qismini tashkil etadi, iqtisodiy salohiyati nuqtai nazaridan AQShdan keyingi eng qudratli — Xitoy iqtisodiyotini qamrab oladi. Rasmiy tillari — rus va xitoy tili. Qarorgohi Pekinda joylashgan. ShHTga a'zo davlatlar hududining umumiy maydoni 30 mln. kv. km. yoki Yevrosiyo qit'asi maydonining beshdan uch qismini tashkil etadi. Ushbu davlatlar aholisining soni — 1,455 milliard kishi yoki dunyo aholisining taxminan to'rtdan bir qismini tashkil etadi.

ShHT tashkil etilishi tarixan umumiy chegaralarda qurolli kuchlar va qurol-aslahalarni qisqartirish to'g'risida Bitim qabul qilingan Moskva sammiti bilan uzviy bog'liqdir. 1998-yildan Markaziy Osiyo mintaqasi, mintaqaviy xavfsizlik va ko'p tomonlama hamkorlik masalalari «Shanxay beshligi»ning diqqat markaziga aylana boshladi. Terrorizm, separatizmga qarshi kurashish, mintaqa doirasida iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish «Shanxay beshligi»ning asosiy maqsadlari sifatida e'lon qilinadi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, XXR Raisi Szyan Szemin bilan uchrashgan edi. Uchrashuv natijalariga ko'ra, «Dushanbe dekloratsiyasi» qabul qilindi. Bu hujjatning ahamiyati shundaki, unda taraflar xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, qurol-yarog' va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi birgalikda kurashish, uzoq yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini ishlab chiqish hamda bu borada tegishli kelishuvlar tuzishga kelishib olish bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hududga aylantirish tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.

2001-yilning iyun oyida bo'lib o'tgan sammitda «Shanxay beshligi» unga a'zo bo'lgan davlat — O'zbekiston Respublikasi ishtirokida Shanxay Hamkorlik tashkilotiga aylantirildi. O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lib kirishi ma'qullangach, mamlakatimiz shakllantirilayotgan yangi tashkilotning maqomi va ahamiyati, maqsad hamda vazifalarini aniqlashtirish, jumladan, ShHT hech qachon harbiy yoki harbiy-siyosiy tashkilotga aylantirilmasligiga oid takliflarni ilgari surdi.

2003-yilning mayida ShHT Moskvadagi sammitida davlat boshliqlar Kengashi, hukumat boshliqlari Kengashi, tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi, ministrlik va idoralar rahbarlari yig'ini. Kotibiyat, shuningdek, MATT hamda ShHT kotibiyati qoshidagi a'zo davlatlarning doimiy vakillari haqidagi ma'lumotlar tasdiqlandi.

Davlat boshliqlari tomonidan Mintaqaviy antiterroristik tuzilma Ijroiya qo'mitasi qarorgohini Bishkekdan (Qirg'iziston) Toshkent shahriga ko'chirish, shuningdek, 2004-yil 1-yanvaridan tashkilotning doimiy faoliyat yurituvchi organlari — SHHT Kotibiyatining Pekin shahrida, MATT Ijroiya qo'mitasining Toshkent shahrida ish boshlashi haqida qaror qabul qilindi.

SHHT tashqi ishlar vazirlari Kengashining 2003-yil sentyabrida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishida terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish Shanxay Konvensiyasi, SHHT Xartiyasi, a'zo davlatlar o'rtasidagi MATT to'g'risida Bitimga o'zgartirish kiritish protokoli imzolanib, tegishli qarorlar qabul qilindi. SHHT asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaqin qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash;
- mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy hamda iqtisodiy xalqaro tartibni shakllantirishga ko'maklashish maqsadida turli yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish;
- terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga qarshi birgalikda kurash olib borish, giyohvand moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy

savdosi hamda transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;

- siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquq-tartibotni saqlash, tabiatni muhofaza etish, madaniy, ilmiy-texnikaviy ta'lim, energetik, transport, moliya-kredit va boshqa sohalarda samarali mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- a'zo davlatlar xalqlari turmush darajasi va sharoitlarini uzluk-siz yaxshilash maqsadida teng sherikchilik asosida mintaqada har tomonlama va barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy hamda madaniy taraqqiy otga ko'maklashish;
- jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda yondashuvlarni muvofiqlashtirish;
- a'zo davlatlarning xalqaro majburiyatlari hamda milliy qonunchiligiga mos ravishda insonning huquq va ERKINliklarini ta'minlashga ko'maklashish;
- boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish;
- xalqaro nizolarni oldini olish hamda ularni tinch yo'l bilan hal etilishida o'zaro aloqalarni mustahkamlash;
- XXI asrda vujudga keladigan muammolarning echimini birgalikda izlab topish.
- SHHT ga a'zo davlat quyidagi tamoyillarga tayanadi:
- davlatlar suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, davlat chegaralarining daxlsizligini hurmat qilish, tajovuz qilmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish va kuch bilan tajovuz qilish, chegara hududlarda bir tomonlama ustunlikdan voz kechish;
- barcha a'zo davlatlarning teng huquqliligi, har birining nuqtai nazarini e'tirof etish va hurmat qilish asosida yagona yondashuvlarni izlash;
- umumiy manfaatlar doirasida birgalikdagi xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- a'zo davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'llar bilan hal etish;
- SHHT boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotga qarshi qaratilmagani;
- Xartiya hamda SHHT doirasida qabul qilingan boshqa hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni to'liq hamda vijdonan bajarilishi.

SHHT doirasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mintaqada tinchlikni saqlash, xavfsizlik va o'zaro ishonchni mustahkamlash;
- barcha a'zo davlatlar umumiy manfaatlari mos bo'lgan tashqi siyosiy masalalar yuzasidan xalqaro tashkilot va xalqaro forumlarda yaxlit nuqtai nazarni izlab topish;
- terrorizm, separatizm va ekstremizm, giyohvand moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi birgalikda kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- qurolsizlanish va qurol-yarog' ustidan nazorat qilish masalalarida sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish;
- mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning turli shakllarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mahsulot, kapital, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakat qilishini ta'minlaydigan savdo hamda investitsiyalar uchun qulay shart-sharoit yaratilishiga ko'maklashish;
- transport va kommunikatsiya sohasidagi infratuzilmadan samarali foydalanish, a'zo davlatlar tranzit imkoniyatlarini takomillashtirish, energetika tizimini rivojlantirish;
- tabiatdan, xususan, mintaqa suv zaxiralaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, tabiatni muhofaza etish borasida maxsus dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish;
- tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishda o'zaro yordam ko'rsatish;
- SHHT doirasida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan huquqiy ma'lumotlar bilan almashish;
- fan, texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohalarida o'zaro munosabatlarni kengaytirish.

SHHT a'zo davlatlar o'zaro kelishuv asosida hamkorlik sohalarini kengaytirishi mumkin. O'z maqsad hamda vazifalarini bajarish uchun ShHT doirasida davlat rahbarlari Kengashi, hukumat rahbarlari (Bosh vazirlar) Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi, vazirlik va (yoki) idoralar rahbarlari Yig'ilishi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi, mintaqaviy antiterroristik tuzilma (MATT), Kotibiyat faoliyat yuritadi.

O'zbekiston xalqaro terrorizm,ekstremizm, separatizm va narkotrafikka qarshi kurash SHHT faoliyatini ustuvor yo'nalishi etib belgilanganini shak-shubhasiz qo'llab-quvvatlaydi. Mintaqaviy antiterroristik markaz faoliyati aynan xuddi shu masalalarning hal etilishiga qaratilgan. Birinchi galda, nafrat va terrorizm g'oyalarini targ'ib etayotgan turli radikal va ekstremistik markazlarga qarshi kurashish zarur ekani ta'kidlandi.

SHHT doirasida iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish haqida to'xtalib, Prezident Islom Karimov ushbu masalani hal etishning asosiy yo'li sifatida Markaziy Osiyo umumiy bozorini shakllantirish zarurligiga e'tibor qaratadi. Zero, bu masalaning hal etilishi mintaqa mamlaktlari va xalqlar tub manfaatlariga mos keladi. Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlarning faol sheriklik ishtirokida umumiy bozorning tashkil etilishi tor milliy doiradan tashqarida yagona yondashuv va muvofiqlashtirilgan qonuniy me'yorlar amal qiladigan mahsulot va xizmatlar, mehnat va kapitallar yirik bozorini shakllantirishga imkon beradi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo hududidan o'tadigan hamda SHHT a'zo davlatlarning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Yevropa Ittifoqi (EI), Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini yo'lga qo'yish va mustahkamlashga xizmat qiladigan yirik transport-kommunikatsiya loyihalari, yo'lak va marshrutlarni amalga oshirishga qaratilgan g'oya va takliflarni qo'llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, «Shanxay Hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi 2007-2009-yillarga mo'ljallangan hamkorlik Dasturi» qabul qilingan. A'zo davlatlarning «Sharq — antiterror — 2006» terrorizmga qarshi birgalikdagi mashg'ulotlari, terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi simpoziumlar o'tkazib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtda SHHT xalqaro hamkorlikning qudratli instituti, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm, separatizm va ekstremizm, giyohvand moddalarni ishlab chiqarish va tarqatish kabi zamonaviy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashishning chinakam tayanchiga aylanib bormoqda.

Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida ko'p tomonlama va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish, shuningdek, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar ko'rib chiqildi. Unda SHHT ga a'zo davlatlar rahbarlari bilan birga, kuzatuvchi maqomidagi mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari — Mo'g'uliston Prezidenti Saxiagiyn Yelbegdorj, Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Osif Zardoriy, Eron Islom Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Manuchehr Muttaqiy, Hindiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Somanaxalli Malayya Krishna hamda sammit mehmonlari — Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Hamid Karzay, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov ishtirok etdi. Shuningdek, majlisda SHHT Bosh kotibi Muratbek Imanaliyev, SHHT MATT Ijrochi direktori Jenisbek Jumanbekov, BMT Bosh kotibining o'rinbosari Yan Kubish, MDH Ijroi qo'mitasi raisi Sergey Lebedev, ODKB Bosh kotibi Nikolay Bordyuja, Yevrazes Bosh kotibining o'rinbosari Murat Musatayev, ASEAN Bosh kotibining o'rinbosari Sayakan Sisovong qatnashdi.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-75-sessiyasidagi nutqlari.

**72-sessiya**. Janobi Oliylari! Xonimlar va janoblar! Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbaridan nutq so'zlash imkoniyati yaratilgani uchun samimiy minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysiz. Bizning xalqimiz bundan bir necha hafta oldin o'z davlat mustaqilligining 26-yilligini keng nishonladi. Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz,

mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko`zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo`lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat. Umumxalq muhokamasidan so'ng besh yilga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Bu strategiyani ishlab chiqishda biz o'zimizga chetdan nazar tashlab, salohiyat va imkoniyatimizni xolis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarimizni ham atroflicha tanqidiy tahlil qildik. Strategiya – bu yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir. Bu hujjat hozirgi vaqtda hayotga izchil joriy etilmoqda. 2017-yil mamlakatimizda Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili, deb e`lon qilindi. Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat. Ishonchimiz komil: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak. Mamlakatimizning barcha hududlarida Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qildi. Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari janob Al-Husayning tashrifi yakunlari bo'yicha inson huquqlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash yuzasidan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Odamlarning erkin harakat qilishini cheklaydigan xorijga chiqish vizalari singari umrini mutlaqo o'tab bo'lgan o'tmish qoldiqlari bekor qilindi.Inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqotimiz faollashib bormoqda. Insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, shaxsni qamoqda saqlash bilan bog`liq ko`plab holatlar qayta ko'rib chiqildi. Ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolgan, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolar ijtimoiy reabilitatsiya qilinmoqda, ularni sog'lom hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Endilikda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati parlament va fuqarolar tomonidan doimiy nazorat qilib borilmoqda. Mamlakatimizda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyatining roli ortib bormoqda, sud organlarining chinakam mustaqilligi ta'minlanmoqda. Ommaviy axborot vositalarining o`rni sezilarli darajada ortib bormoqda. Iqtisodiyot tizimini liberallashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning eng muhim yo'nalishlaridir. Biz oddiy bir haqiqatdan kelib chiqmoqdamiz: xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo`ladi. O'zbekiston shu oyning boshidan milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to'liq o'tdi. Bu borada aholi uchun yuzaga kelishi mumkin bo`lgan salbiy

oqibatlarni yumshatish bo'yicha barcha zarur choralar ko'rildi.

Mamlakatimizda ilk bor tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Ombudsman instituti joriy etildi. Biznes sohasidagi soliqlar sezilarli ravishda qisqartirildi, kredit olish imkoniyatlari kengaytirildi. Yangi ERKIN iqtisodiy zonalar tashkil etildi, ularda investorlarga keng imtiyozlar yaratib berildi. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, biz Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini yangitdan tikladik. Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to'la hamohang ekanini ta'kidlashni istardim. Hurmatli majlis ishtirokchilari! Biz qat'iy ishonamiz, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rin tutadi. O'zbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafdoridir. Biz Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi rahbariyati tomonidan tashkilotni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Ishontirib aytmoqchiman, O'zbekiston BMTning tuzilmalari bilan hamkorlikni bundan keyin ham izchil davom ettiradi. Biz janob Bosh kotib Antoniu Guterrishning yaqinda O'zbekistonga tashrifi yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan "yo'l xaritasi"ning amaliy ijrosini ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'ramiz. Xonimlar va janoblar! O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o'ylab tanlangan yo'ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. O'zbekiston o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlashning qat'iy tarafdoridir. Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo'yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz. Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli keyingi oylarda mintaqamizda siyosiy ishonch darajasi sezilarli darajada oshdi. Ko'plab masalalar bo'yicha prinsipial jihatdan muhim echimlar topishga erishildi. Sentyabr oyining boshida O'zbekiston – Qirg'iziston davlat chegaralari to'g'risidagi shartnoma imzolanishi tom ma'noda muhim voqea bo'ldi. Tomonlar o'z siyosiy irodasini, o'zaro maqbul qarorlar qabul qilishga tayyor ekanini namoyon etgani tufayli o'tgan yigirma olti yil davomida birinchi marta ushbu g'oyat nozik masala bo'yicha katta natijaga erishildi. Bir so'z bilan aytganda, o'tgan qisqa vaqt mobaynida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratishga erishildi. Bu tendensiyaning mustahkamlanishi Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlari muntazam uchrashuvlar o'tkazishi uchun imkoniyat yaratgan bo'lur edi.

deb hisoblayman. Biz noyabr oyida Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida o'tkaziladigan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro anjumanda mintaqadagi fundamental muammolarni muhokama qilishni rejalashtirganmiz. Ushbu anjuman yakunida biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga doir maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini kiritishni mo'ljallaganmiz. Bu taklifni BMT rahbariyati va xalqaro hamjamiyat qo'llab-quvvatlaydi, deb ishonamiz. Muhtaram Rais janoblari! Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q. O'zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi. Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz. Xonimlar va janoblar! Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti bo'lib qoladi. Aminmizki, Afg'onistonda tinchlikka erishishning yagona yo'li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o'rtasida oldindan hech qanday shart qo'ymasdan, to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borishdir. Muzokaralar afg'onistonliklarning o'zlari hal qiluvchi o'rin tutadigan holda, Afg'oniston hududida va BMT shafeligida o'tishi lozim. Donishmand afg'on xalqi o'z taqdirini o'zi mustaqil hal qilishga haqlidir.

AQSh Prezidenti janob Donald Tramp ma'muriyatining Afg'oniston bilan qo'shni mamlakatlarni afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal qilishga ko'maklashishga oid da'vatini qo'llab-quvvatlaymiz. O'zbekiston Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo'shmoqda va bundan keyin ham hissa qo'shadi. Afg'oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo'lishi lozim.

Xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg'onistondagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak. Bu jafokash yurtda tinchlik o'rnatishga ko'maklashish yo'lidagi bizning umumiy qat'iy harakatlarimiz aslo susaymasligi lozim. Hurmatli sessiya ishtirokchilari! Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga etmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak.

Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini etkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi. Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Saxixiy Buxoriy"ning muallifi sifatida

butun dunyoda tan olingan. Bu ulug' zotning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifati islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildik. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi. Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan. Xonimlar va janoblar! O'zbekiston hech qanday blokka qo'shilmaslik maqomini saqlab qolgan holda, ochiq muloqotga tayyordir. Biz barcha sheriklarimiz bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz. Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam, deb bilamiz. e'tiboringiz uchun rahmat.

**75-sessiya.** Muhtaram Rais ulkan Bozkir janoblari!

Muhtaram Bosh kotib Antoniu Guterrish janoblari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Bosh Assambleyaning etmish beshinchi sessiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarixida birinchi marta butunlay yangi formatda – koronavirus pandemiyasi tufayli onlayn muloqot rejimida bo'lib o'tmoqda. Bunday global falokat sayyoramizda so'nggi yuz yilda kuzatilmagan edi. Bu ofat butun insoniyatning zaif jihatlarini yaqqol ko'rsatdi. Hozirgi tahlikali va murakkab vaziyat er yuzidagi barcha davlatlar va xalqlar o'zaro bog'liq ekanini, o'rtamizda muntazam muloqot, ishonch va yaqin hamkorlik o'ta muhimligini isbotladi. Shu yo'lda barchamiz hukumatlar, parlamentlar va fuqarolik jamiyatlarining o'zaro sa'y-harakatlarini birlashtirish, umumiy mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlash, xalqaro sheriklikni muvofiq holda rivojlantirish, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining maqomi va salohiyatini oshirish, vakolatlarini kengaytirish lozimligini chuqur angladik. Maqsadimiz – har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta'minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratishdir. Bu borada biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqishni taklif etamiz. Ushbu hujjatda har bir davlatning o'z fuqarolari va xalqaro hamkorlari oldidagi majburiyatlari aks etishi lozim.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Biz O'zbekistonda COVID-19 qayd etilgan dastlabki kunlardan boshlab barcha sa'y-harakat va resurslarimizni bu xavfli kasallikni jilovlash va eng asosiysi – odamlar hayotini saqlab qolishga qaratdik. Pandemiyaning salbiy oqibatlarini yumshatish uchun ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimlari keskin kuchaytirilmoqda, aholiga, iqtisodiyot tarmoqlari va biznesga manzilli ko'mak ko'rsatilmoqda. Shu maqsadda maxsus jamg'armalar tuzildi.

Fursatdan foydalanib, sinovli damlarda bizga beg'araz yordam ko'rsatgan barcha do'st va hamkorlarimizga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Biz xalqaro hamjamiyatning pandemiyaga qarshi samarali kurashish bo'yicha barcha harakatlarini, jumladan, zarur dori-darmon hamda vaksinalar ishlab chiqish va ulardan keng foydalanishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Shuningdek, Bosh kotib Antoniu Guterrish janoblarining bugungi inqirozli vaziyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning dolzarb muammolariga bag'ishlangan sammitni o'tkazish bo'yicha taklifini ma'qullaymiz.

Hurmatli Bosh Assambleya sessiyasi ishtirokchilari!

Bundan uch yil muqaddam men Birlashgan Millatlar Tashkilotining oliy minbaridan O'zbekistonning tub islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qarori qat'iy ekanini aytgan edim. Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O'zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi. O'tgan yili Parlamentga o'tkazilgan saylovlar aholi va partiyalarning siyosiy faolligi, fuqarolik jamiyati institutlarining roli, ommaviy axborot vositalarining ta'siri oshganini namoyish etdi.

Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi.

Inson huquqlari sohasidagi holat ham butunlay o'zgardi. Majburiy va bolalar mehnati to'liq tugatildi. Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya qabul qilindi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqaroligi bo'lmagan insonlar sonini kamaytirishga qaratilgan chaqirig'iga javoban shu yilning o'zida 50 ming yurtdoshimizga O'zbekiston fuqaroligi berildi.

Mamlakatimizda diniy erkinlik borasida ham vaziyat keskin yaxshilandi. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni yanada mustahkamlash biz uchun doimiy muhim vazifadir.

Sudlarning chinakam mustaqilligi va qonun ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirilgan keng qamrovli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada

muhim qonun hujjatlari qabul qilinib, mustaqil tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar jadal davom ettirilmoqda. Biz birinchi marta kambag'allikni kamaytirish haqidagi qat'iy qarorimizni ochiq e'lon qildik.Bunga tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, investitsiya va biznes muhitini yaxshilash hamda zamonaviy infratuzilmani barpo etish, odamlarni yangi kasb-hunarlarga o'rgatish va aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali erishmoqdamiz.

Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda.

Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqiraman.

Bundan tashqari, Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta'minlashda parlamentlar rolini oshirish to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz.

Hurmatli do'stlar!

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo mintaqasida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Biz mintaqa davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonch, do'stlik va hurmat muhitini yaratishga erishdik.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan tashabbusga asosan muntazam o'tkazilayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari umumiy yutug'imiz bo'ldi.

Oxirgi to'rt yilda O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi salkam besh barobarga o'sdi.

Mamlakatlarimiz ushbu sinovli kunlarda bir-birini yolg'iz qoldirmasdan, o'zaro elkadosh bo'ldilar.

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari oldida muhim strategik vazifa turibdi. U ham bo'lsa, mintaqamizning global iqtisodiy, transport va tranzit yo'laklariga chuqur integratsiyasini ta'minlashdir.

Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochishni taklif etamiz.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash sohasida ham samarali hamkorlik olib borilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global antiterror

strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Biz ushbu strategiya doirasidagi Mintaqaviy qo'shma rejaning 10 yillik natijalari va kelgusi istiqbollariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyani o'tkazish tarafdorimiz.

Ma'lumki, mintaqamizning ko'hna va boy madaniy merosi global ahamiyatga ega. Biz 2021 yilda YuNESKO bilan hamkorlikda qadimiy Xiva shahrida "Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" degan mavzuda xalqaro forumni o'tkazishga tayyormiz.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari!

Biz Afg'onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida qabul qilamiz. 2018 yil mart oyida o'tkazilgan Afg'oniston bo'yicha oliy darajadagi Toshkent konferensiyasi afg'on muammosini echish uchun xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini safarbar etishda yangi bosqich bo'ldi.

Biz joriy yilning sentyabr oyida Doha shahrida afg'on siyosiy kuchlari o'rtasida boshlangan tinchlik muzokaralarini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Bu muzokaralar jafokash afg'on zaminida tinchlik va barqarorlik o'rnatishiga umid qilamiz.

Mintaqada iqtisodiy integratsiya jarayonlariga Afg'onistonni keng jalb etish maqsadida "Surxon – Puli humri" elektr uzatish tarmog'ini, Mozori Sharifdan Hind okeani portlariga chiqadigan temir yo'l qurilishi kabi yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga kirishdik.

Fikrimizcha, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish masalalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining doimiy e'tibor markazida bo'lib qolishi zarur.

Faqat birgalikda va yaqin hamkorlik orqali biz afg'on xalqining ezgu orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishimiz mumkin. Bu borada "Beqaror va vayronkor vaziyatdan – tinchlik va bunyodkorlik sari" degan tamoyil asosida ish olib borish muhimdir. Shu boisdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida afg'on xalqining dard-u tashvishini tinglaydigan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan qo'mita tashkil etish lozim. Ushbu qo'mitaning asosiy vazifasi Afg'onistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'mak berishdan iborat bo'lishi zarur.

Hurmatli davlat va hukumat rahbarlari!

Davrimizning o'tkir muammolaridan yana biri – global iqlim o'zgarishlaridir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda.

E'tiboringizni yana bir bor Orol dengizi qurishining halokatli oqibatlariga qaratmoqchiman. Orolbo'yi hududi ekologik fojianing markaziga aylandi. Biz mavjud ahvolni yaxshilash uchun bu erda ikki million gektar yangi o'simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish, tuproq qatlamini shakllantirish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Mamlakatimiz tashabbusi bilan Orolbo'yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trast fondi tuzildi. Umid qilamizki, ushbu fond og'ir ekologik hududda yashayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo'lib xizmat qiladi.

Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

So'zimning yakunida yana bir fikrni ta'kidlashni istardim. Jahonning turli nuqtalarida notinchlik saqlanib qolayotgani, ziddiyat va zo'ravonliklar ortib borayotgani, ekologik ofatlar va boshqa zamonaviy xatarlar qashshoqlik va kambag'allikning global muammolarini kuchaytirmoqda.

Bu muammolar ayniqsa pandemiya sharoitida keskin tus olmoqda. Tobora tashvishli ohang kasb etayotgan qashshoqlikning ovozi butun dunyo hamjamiyatini, barchamizni bezovta qilishi zarur.

Shu munosabat bilan qashshoqlikni tugatish va kambag'allikka qarshi kurashishni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazishni taklif etamiz.

Qadrli do'stlar!

Barchamizga ravshanki, pandemiyadan keyingi dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasi butunlay boshqacha tus oladi.

Biz xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidagi umumiy xatarlarga qarshi yangicha yondashuvlar asosida va yaqin hamkorlikda ishlashimiz zarur.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining muvofiqlashtiruvchi xalqaro tuzilma sifatidagi markaziy o'rnini yanada kuchaytirish lozim.

O'zbekiston jahonning barcha mamlakatlari bilan keng ko'lamli va o'zaro manfaatli sheriklikni, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning institutlari bilan amaliy muloqotni rivojlantirish uchun doimo tayyor.

e'tiboringiz uchun rahmat.

**"Aqliy hujum" uslubiy qoidasi**

- *"aqliy hujum"ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;*
- *aytilgan fikr yoki g'oya baholanmaydi va tanqidga olinmaydi;*
- *ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, fikr yoki g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;*

*- istalgan fikr yoki g'oyani mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;*
*- barcha fikr yoki g'oyalar qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;*
*- beriladigan savollarga qisqa, asosli javob berish ko'zda tutilishi kerak*

***Nazorat uchun savollar:***

1. Mustaqil O'zbekiston davlatining jahon hamjamiyati sari tutgan yo'lini davriy xronologiyasini keltiring.
2. Jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida O'zbekistonning geosiyosiy o'rni haqida ma'lumot bering
3. O'zbekistonni BMTga qachon qabul qilingan?
4. O'zbekiston va Rossiya munosabatlarini ochib bering.
5. O'zbekistonning Qozog'iston bilan har tomonlama hamkorligi yoritib bering.
6. Xalqaro xavfsizlik masalalari va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.
7. Shanxay hamkorlik tashkilotiga to'g'risida ma'lumot bering
8. Shanxay hamkorlik tashkilotiga kiruvchi davlat rahbarlarining Toshkent shahrida o'tkazilgan uchrashuvi.
9. 1995-yil 15-16-sentabrda Toshkentda qanday tarixiy voqea yuz berdi?.

***Mustaqil ta'lim uchun vazifalar***

1. Taqdim etilayotgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. «O'zbekiston va jahon hamjamiyati» mavzusida slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
3. 1-kurs talabalari bilan « O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari» mavzusida breyn-storming o'tkazish rejasini tuzing.
4. «O'zbekistonning BMT va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi» mavzusida klasterlarga ajratishni amalga oshiring.

## 7- mavzu. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uning asosiy mazmun-mohiyati.

**Reja:**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo'nalishlar.
2. 2022-2026. yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uning ahamiyati.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi va 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi haqida ma'lumotlar berish.

**Tayanch tushunchalar:** Tashqi siyosat, tashqi aloqalar, tashqi siyosat tamoyillari, integratsiya, xorijiy sarmoyalar, investitsiyalar, Jahon hamjamiyati, mintaqaviy xavfsizlik, strategiya, pragmatik tashqi siyosat, inson kapitali.

### 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo'nalishlar.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. 2017-yilda Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda alohida e'tibor "Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" degan tamoyil va "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ezgu g'oyaning, eng avvalo, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini ta'minlash orqali hayotga amaliy tatbiq etilishiga qaratildi. Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida 30 dan ortiq qonunlar hamda 900 dan ortiq qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, xalq farovonligini yuksaltirishning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari, shuningdek, har bir davlat organida tashkil etilgan fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash bo'yicha maxsus bo'linmalar aholi bilan ishlashning sifat jihatidan yangi samarali tizimini shakllantirishga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi davlat boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, "Elektron hukumat" va davlat xizmatlari ko'rsatish

tizimini rivojlantirish, iqtisodiyotga ma'muriy ta'sirni qisqartirish hamda boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish, sog'lom raqobat muhiti va qulay investitsiya iqlimini yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Sud-huquq tizimida sudlarning haqqoniy mustaqilligini ta'minlash, sud kadrlarini tanlab olishning demokratik va shaffof mexanizmini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Joylarda ma'muriy va iqtisodiy sudlarning tashkil etilganligi odil sudlovga erishish darajasini oshirish imkonini berdi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini isloh qilish, huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatda jinoyatchilikning umumiy ko'rsatkichi 15,7 foizga kamayishiga erishildi, 1,2 ming mahallalarda birorta jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Ilgari, asosan xavfsizlikka xavf-xatar va tahdidlar oqibatlariga qarshi kurashish bilan cheklangan terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yondashuvlar konseptual qayta ko'rib chiqildi. Mazkur muammolarni hal qilishda, birinchi navbatda, yoshlarning huquqiy madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish orqali odamlarning ongi uchun kurashish ustuvor vazifa etib belgilandi.

O'z taqdirini O'zbekiston bilan bog'lagan, mamlakatimiz farovonligi yo'lida halol va vijdonan mehnat qilayotgan, o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylanib qolgan fuqarolarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga alohida e'tibor qaratildi. O'tgan davrda 1 243 nafar shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.

Iqtisodiy sohada keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirildi, eng avvalo, O'zbekistonning o'z majburiyatlarini bajarish va chet el hamkorlarining daromadlarini repatriatsiya qilish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi milliy valyuta erkin konvertatsiyasining joriy etilganligi bu borada muhim qadam bo'ldi.

Davlat byudjetini shakllantirishning tamomila yangi prinsiplari va mexanizmlari joriy etildi, uning daromad va xarajatlari shaffofligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat aktivlarini boshqarishning samaradorligini oshirish va byudjetning daromad qismini ko'paytirishga qaratilgan ishga solinmagan zaxiralardan foydalanish choralari ko'rildi.

***Birinchi bosqichda*** – uzoq muddatli (10-15 yilga mo'ljallangan) tarmoq, hududiy va maqsadli rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash, ikkinchi bosqichda – tarmoq, hududiy va maqsadli loyihalar portfellarini tuzish, uchinchi bosqichda – rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishning

mutlaqo yangi tartibi tasdiqlandi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog'lig'ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

Shaharlar va qishloqlarda umumiy turar joy maydoni 3,5 million kvadrat metrdan ortiq bo'lgan namunaviy va ko'p qavatli uylar qurildi. Turar joy qurilishi hajmlari 2010-yilga nisbatan 3,5 baravarga oshdi.

Xalq bilan muloqot natijalari bo'yicha 11 yillik umumiy o'rta ta'limni qayta tiklash haqida qaror qabul qilindi, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning shaffof mexanizmlari joriy etildi va kvotalar jiddiy ravishda oshirildi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi.

Millatlararo tinchlik va totuvlikni, puxta o'ylangan va o'zaro manfaatli tashqi siyosat amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilganligi natijasida qo'shni davlatlar bilan ishonchli munosabatlar yo'lga qo'yildi, Markaziy Osiyo hududida savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Faqat o'tgan yilda 21 ta oliy darajadagi tashrif amalga oshirildi, 60 ta davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazildi, 400 dan ortiq kelishuvlarga erishildi, 60 milliard AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi bitimlar imzolandi.

Shu bilan birga, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot yakunlari hamda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida o'tkazilgan ishlarning tanqidiy tahlili aholi farovonligining real o'sishiga va joylarda ishlar holatining tubdan yaxshilanishiga to'sqinlik qiluvchi qator muammolarni ko'rsatib berdi.

Harakatlar strategiyasi ijrosini ta'minlash yuzasidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1.Quyidagilarni nazarda tutuvchi 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o'rinlarda Davlat dasturi deb yuritiladi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

***davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasida*** – davlat xizmatining nufuzi va samaradorligini oshirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari vazifa va tuzilmasini qayta ko'rib chiqish, vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining mustaqilligini oshirish, markaziy organlarning ayrim

vakolatlarini mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazish, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini, ularning sifati va tezkorligini tubdan oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

***qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida*** – fuqarolar shaxsiy hayoti daxlsizligining konstitutsiyaviy kafolatlarini, shu jumladan, tintuv va telefon orqali so'zlashuvlarni eshitib turishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish, Oliy Majlis huzurida Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha komissiyani tashkil etish orqali yanada mustahkamlash, milliy xavfsizlik organlari tizimini tubdan isloh qilish, vaqtincha saqlash, tergov hibsxonalari, jazoni ijro etish muassasalarini videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, yo'l-patrul va patrul-post xizmati xodimlarini mobil videokameralar bilan ta'minlash, patrul xizmatining statsionar postlari sonini optimallashtirish;

***iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sohasida*** – faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy, tashkiliy sharoitlar yaratish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy qilish, tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini va ular faoliyatiga noqonuniy aralashishlarning oldini olish mexanizmlarini, soliq va bojxona siyosatini, bank-moliya sohasini yanada takomillashtirish, agrar sektorni isloh qilish strategiyasini ishlab chiqish, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga imtiyozlar taqdim qilgan holda individual imtiyozlar berishdan voz kechish, hududlarni faol rivojlantirish;

***ijtimoiy sohani rivojlantirish sohasida*** – ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlashni yanada kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy dorixonalarning rivojlangan tarmog'ini yaratish, aholi bandligi va fuqarolarning real daromadlarini oshirish, "iste'mol savatchasi"ni aniqlash, ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini va nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

***xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, shuningdek, tashqi siyosat sohasida*** – O'zbekiston Respublikasining yangi Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qabul qilish, xorijiy sheriklar bilan harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish, davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlash tizimini takomillashtirish, terrorizm, ekstremizm va axborot tahdidlariga qarshi kurashish, millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, Tashqi ishlar vazirligi va diplomatik vakolatxonalar faoliyatini tubdan isloh qilish, xorijda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, o'zaro manfaatli tashqi siyosatni davom ettirish, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish.

### *1. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.*

1. 1. Demokratik islohotlami chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

•davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalami hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

•qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda tubdan oshirish;

•siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

1. 2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

•davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali isloh qilish;

• mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalami amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

•davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

•«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan va aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

1. 3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

•xalq bilan samarali muloqot mexanizmlarini joriy etish;

•jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

•fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

•mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish;

•ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish.

## 2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

•sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeni, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

•sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

•sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessi tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

•«Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

•sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

•sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

•fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansolarlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish;

•sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

•fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

•fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash;

•sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

•jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish;

•odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini yaxshilash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

•jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish;

•elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

•jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

•diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni yanada kuchaytirish;

•korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

•aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

•huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularning sabab va omillarini bartaraf etish;

•sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

•huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari orasida huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

•huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

•davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

•advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlaring o'rni va nufuzini oshirish;

•notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish.

3.Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari.

### 3. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

•makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar

asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
•xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilgan saqlab qolgan holda. Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosibligini muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;
•ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;
•soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish;
•bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiyaviy loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish;
•sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek fond bozorini kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida rivojlantirish;
•xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.
3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:
•milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;
•ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;
•sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

•iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;
•prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;
•ishlab chiqarish mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;
•iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;
•erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan zonalarning samaradorligini oshirish;
•xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;
•turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;
•eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;
•yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.
3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:
•tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;
•paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan erlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;
•fermer xo'jaliklar, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
•qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-

ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyalar asosida asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

•qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini tarmoqlarini yanada kengaytirish;

•sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

•yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy er-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

•global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi halokatining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uni ustuvor mavqeni yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

•xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi» degan prinsipni amalga oshirish;

•kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

•davlat mulkini xususiylashtirishni kengaytirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

•investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

•korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni

strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;
•tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;
•ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.
3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:
•ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral xom ashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;
•hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;
•yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;
•subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;
•sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.
Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.
IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari
4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:
•aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;
•byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;
•yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv

muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

•mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yuksaltirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish

• aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

• sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

• oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada keng amalga oshirish;

• xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

• pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

• farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

• aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-

kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;

- aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;
- aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suviga bo'lgan talab va ehtiyojini ta'minlashni tubdan yaxshilash;
- odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy obyektlar bilan ta'minlash;
- aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;
- yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini jadal davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;
- yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash, shuningdek, aholini boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash;
- teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni

ko'rish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;
- umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;
- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'atga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;
- kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;
- ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

- jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;
- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;
- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

1. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

**Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar**

5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o'z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish;
- fuqarolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;
- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;
- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga zarar etkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborot etkazish;
- O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- davlat chegarasini demilitarizatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

**2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uning ahamiyati.**

## I. INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO YETISH.

rkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni yangi pog'onaga ko'tarish. Bu borada, millati, tili va dinidan qat'iy nazar yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish.

## 2. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING YENG ASOSIY VA ZARUR SHARTIGA AYLANTIRISH.

Odil sudlov tizimining chinakam mustaqilligi va ochiqligini ta'minlash, huquq — tartibot organlari faoliyatini takomillashtirish, advokatura institutini kuchaytirish, ushbu sohalar faoliyatini raqamlashtirish

## III. MILLIY IQTISODIYoTNI JADAL RIVOJLANTIRISh VA YUQORI O'SISh SUR'ATLARINI TA'MINLASh.

Mamlakatimizdagi mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirish. 2030 yilga borib, O'zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin egallashi belgilandi. Bunga, avvalo, xususiy sektorni rag'batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishish. Jumladan, "xomashyodan – tayyor mahsulotgacha" degan tamoyil asosida drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

## IV. ADOLATLI IJTIMOIY SIYOSAT YURITISH, INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak.

## V. MA'NAVIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASh VA SOHANI YANGI

**BOSQIChGA OLIB CHIQISH.**

Yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy g'oyalarni mujassam etadigan kuchli ma'naviyatga tayanish. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish. Milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini oshirish, madaniyat va san'atni yuksaltirish; Muqaddas islom dinimizning insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, "jaholatga qarshi – ma'rifat" tamoyili asosida unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash.

**VI. MILLIY MANFAATLARDAN KELIB ChIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH.**

Bugungi kunda iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar bizning mamlakatimizda ham echilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi.

**VII. MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATINI KUCHAYTIRISH, OCHIQ, PRAGMATIK VA FAOL TAShQI SIYOSAT OLIB BORISH.**

Harbiy xizmatchilar va soha faxriylarini, ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, moddiy ta'minotini yanada yaxshilash, uy-joy bilan ta'minlash, farzandlarining zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish belgilangan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini tobora kuchaytirishga e'tibor qaratilgan.

**Texnologik usullar:**

**"B/BX/B" Jadvali**

| Bilaman | Bilishni hohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |

Bu usul orqali talaba o'zini kuzatishi, o'qituvchi esa darsga baho berishi mumkin, talaba dars boshida mavzu bo'yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftarga yozib qo'yadi. Dars so'ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo'yadi.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar**

1. Harakatlar strategiyasi nima?
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo'nalishlarni bilasizmi?
3. Birinchi ustuvor yo'nalishni izohlang?
4. Beshinchi ustuvor yo'nalishni tahlil qiling?
5. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uning ahamiyati nimada?
6. Taraqqiyot strategiyasining ettita ustuvor yo'nalishini sanab bering?
7. Inson qadri deganda nimani tushunasiz?
8. Uchinchi renessans mazmuni haqida gapiring...

***Mustaqil ta'lim uchun vazifalar***

1. Taqdim etilayotgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. «Harakatlar strategiyasi va taraqqiyot strategiyasi» mavzusida slayd tayyorlang va taqdimot qiling.

## GLOSSARIY

**AVTONOMIYA** - (yunon. Autos – o'zim, nomos- qonun), muxtoriyat – mamlakat tarkibidagi biror hududning Konstitutsiya bilan kafolatlangan o'z-o'zini boshqarish huquqi.

**AVTORITARIZM** — (lot.auktoritas — hokimiyat) – davlatni idora qilish usuli. Avtoritarizmda siyosiy hokimiyat hukmdor shaxsning yoki etakchining siyosiy irodasi va qarorlari asosida amalga oshiriladi. Avtoritarizm siyosiy hokimiyat shakli sifatida avtorkariya va diktatura bilan uyg'unlashib ketadi. Atama Frankfurt maktabi vakillari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Avtoritarizm haqiqiy demokratiyaning yo'qligini anglatadi.

**AGRAR SIYOSAT**- davlatning qishloq xo'jalik sohasidagi faoliyati bo'lib, u qishloq xo'jaligini, er mulkchiligini rivojlantirish yo'llari masalalarini hal qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning bir turi.

**AGROSANOAT INFRATUZILMASI** – bevosita qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi sohalar.

**AGROSANOAT MAJMUASI** — qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazish bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar yaxlitligi.

**AN'ANALAR** – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi. An'analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi va sayqallanadi. Davr talabiga javob bergan an'analar unutilmaydi, avlodlarga meros bo'lib qoladi, xalq hayotining tarkibiy qismiga aylanadi.

**ASR** - (arab. – davr, vaqt) – yuz taqvim yili (kalendar yil)ga teng vaqt oralig'i;

**BARQARORLIK** – (ijtimoiy jamiyatdagi) – tinchlik, osoyishtalik va ijtimoiy mehnat muhiti qat'iy, uzil-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muhim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy shartidir. Insoniyatning shu kunlargacha kechirgan tarixi – barqarorlik va beqarorlikdan (ya'ni sinfiy, harbiy, qabilaviy va guruhiy qarashlar, to'qnashuvlar, shafqatsiz urushlar sahifalaridan) tarkib topgan.

**BOZOR IQTISODIYoTI** – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyotining mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy hamda to'xtovsiz musobaqaning ishtirokchilariga aylantiradi, shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilanib borishiga, miqdorining esa ko'payishiga sababchi bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti xalqning, ommaning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka yo'l ochadi, mulkka egalik qilish qoidalarini takomillashtiradi, unga

turtki beradi. Bozor sharoitida talab va takliflarning miqdori va tarkibi bir-biriga muvofiq kelishi ta'minlanadi. Ishlab chiqarishning iste'molchi ustidan hukmronlik qilishiga chek qo'yiladi, buning uchun fan yutuqlari hayotga va ishlab chiqarishga tatbiq etiladi, texnikaviy va texnologik yangilanishning eng zamonaviy usullaridan foydalaniladi.

**BOZOR INFRATUZILMASI** — tovar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga etkazib berilishini ta'minlashga qaratilgan tarmoqlar va faoliyat sohalari yig'indisidan iborat. Bozor infrastrukturasining rivojlanishi mablag'larning iqtisodiyotda aylanishining tezlashuviga, yangidan yaratilgan mahsulotlar realizatsiyasini tezroq amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**VATAN** – (arabcha «vatan»-ona yurt)-inson yashab turgan, unib o'sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakat. Insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir.

**VATANPARVARLIK** – kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir

**VOHA**-sahro bilan o'ralgan obod, suvli o'lka.

**GEOSIYOSAT** — davlatlar tashqi siyosatni amalga oshirishga geografik omillar (davlat egallab turgan hududning qulayligi yoki noqulayligi, katta yoki kichik ekanligi, dengizga yaqinligi, tuproqning serhosilligi, tog' va dasht-cho'llarning ko'p-kamligi va hokazolar) alohida urg'u berish. Geosiyosat nazariyasiga binoan, millat va davlatning tabiati, fe'l-atvori ularning geografik joylashganligiga bog'liq.

**GIMN** – (yunon. humnos) – tantanavor qo'shiq, she'r. Yunonistonda dastlab afsonaviy xalq qahramonlari, xudolar sha'niga maqtovlar (hamdlar) tarzida vujudga kelgan. Keyinchalik shaxslar, davlatlar, voqea va hodisalarga ham bag'ishlangan gimnlar paydo bo'lgan.

**GLOBALLASHUV** 1) davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning chuqurlashuvi, yagona umumjahon iqtisodiy, madaniy va axborot makonlarining shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir;
2) jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog'ining tashkil topishi va rivojlanishi; 3) nisbatan yangi so'z bo'lib, dunyo miqyosida ro'y berayotgan turli-tuman jarayonlarni tavsiflash uchun qo'llaniladi. U jahon yaxlit bozor bo'lib borayotganini tavsiflaydi. Bu g'oyaga ko'ra insonlar orasida bir lahzada aloqa o'rnatish imkonini beradigan zamonaviy axborot uzatish texnologiyalarining qo'llanilishi natijasida vaqt va masofa qisqarmoqda; turli madaniyatlar bir-biri bilan aralashib ketmoqda va Shimol madaniyatlari va qadriyatlari janubliklar tomonidan o'zlashtirib olinmoqda, biroq bir

vaqtning o'zida etnik farqlar va tengsizliklar kuchaymoqda. Globallashuv g'oyasiga ko'ra er sayyorasi alohida qit'alar yoki materiklar emas, balki yaxlit hisoblanadi va umumiy uyimiz deb qaraladi, Shunga ko'ra insoniyat ta'sirining ba'zi turlari manbadan uzoqdagi odamlar va muhitga salbiy ta'sir etish yoki butun sayyora uchun salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin; 4) jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv, transmilliylashuv va baynalmilallashuv jarayonlari.

**DAVLAT**- Hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlar tizimiga ega bo'lgan mamlakat. Jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalari, ulardagi jarayonlarni shakllantiradigan, rivojlantiradigan, boshqaradigan va millatni taraqqiyotning yuqori bosqichiga o'sib o'tishini ta'minlaydigan siyosiy tashkilotidir.

**DIN** – (arabcha «din»- e'tiqod, ishonch)- ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning hodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri. Din ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan va o'sha davrda yashagan insonlarning dunyoqarashini aks ettirgan. Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishini, hayotning mazmuni va ma'nosi, insonning yashashdan maqsadlari kabi savollarga o'zicha javob beruvchi dunyoqarash shakli bo'lib kelgan.

**DIKTATURA**- (lot. diktatura – cheklanmagan hokimiyat) – davlat hokimiyatini nodemokratik usullar bilan amalga oshirish tizimini ifodalovchi tushuncha, avtoritar yoki totalitar rejim. Diktaturaga asoslangan siyosiy rejimda hokimiyat bir shaxs – diktator yoki bir necha shaxslarning qo'lida markazlashadi, siyosatda zo'ravonlik va terror kuchayadi. Diktatura o'rnatilganligi diktatorlik hokimiyatining cheklanmaganligi va nazoratizligi, konstitutsiya e'lon qilgan demokratik huquqlar va erkinliklar toptalishi, vakillik organlarining huquqlari cheklanishi bilan ajralib turadi. Hokimiyat to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlikka tayanadi. Odatda, yirik ijtimoiy guruhlar Diktaturani ifoda etuvchi kuch sifatida namoyon bo'lsada, u bir shaxs yoki bir guruh shaxslarda mujassamlashadi (qadimgi Rimda harbiy boshliqlar Diktaturasi va triumviratlar, mutlaq monarxlar, hozirgi avtoritar tuzumlar, xuntalar va h.k.). biron – bir davlatda Diktatura o'rnatilishi, odatda, ichki o'zaro kurash g'oyat keskin tus olgan davrlar bilan bog'liq bo'lgan.

**ISLOM**- dunyoda eng ko'p tarqalgan dinlardan biri bo'lib, unga e'tiqodda bo'lganlar musulmonlar deb ataladi. Islom dini yagona xudo-Ollohga e'tiqod qiladi.

**IJTIMOIY TARAQQIYOT**- 1) jamiyat (individlari emas), balki barcha a'zolari)ning taraqqiyoti; 2) jamiyat sohalaridan biri (ijtimoiy-iqtisodiy birlikning bir tomoni) taraqqiyoti.

**INTEGRATSIYA** – (lot. integratio, integer – butun so'zidan olingan) – biror-bir qism va elementlarni bir butunga birlashtirish, iqtisodda xo'jalik hayotini

internatsionalizatsiyalashning oliy formasi bo'lib, bunga xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish obyektiv ravishda sabab bo'ladi. U turli mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuvida va ularning korxonalari, tarmoqlari va hatto milliy iqtisodning yagona xo'jalik organizmiga birlashuvida ifodalanadi hamda bu jarayonni tartibga solib turuvchi iqtisodiy siyosatdir.

**INSON OMILI**-ishlab chiqarish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha mehnatkashlarning ko'p qirrali faoliyati inson ishlab chiqarish vositalarini yaratadi va jonlantiradi, ularni ishlab chiqaruvchi kuchlarning elementiga aylantiradi. Shu bilan bir qatorda jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Ayni paytda inson ishlab chiqaruvchi munosabatlarining va barcha ijtimoiy munosabatlarning subyektidir. Ko'pgina omillar, ayniqsa, fan texnika taraqqiyoti ta'sirida insonning o'zi ham takomillashib boradi va ishlab chiqarishning birdan-bir maqsadi sifatida har doim bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

**INSONPARVARLIK** – («inson»-arabcha; «parvar»- fors-tojikcha; «lik» - o'zbekcha – kishiga g'amxo'rlik, gumanizm)-odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi.

**IRODA** – arabcha so'z bo'lib, lug'aviy jihatdan xohish, istak, maqsad ma'nolarini bildiradi. O'zini tuta bilishlik, dadillik, qat'iylik, chidam, toqat, izchillik va shu kabi fazilatlar irodaning muhim sifatlaridir.

**INSON HUQUQLARI** — har bir insonning huquqlar va imtiyozlari ta'minlash. BMT inson huquqlari Deklaratsiyasi 1948 — yilda qabul qilingan. U insonlar yashash, erkinlik va o'qish huquqiga ega ekanligini, barcha millatlar teng ekanligini va qonun oldida barcha barobar ekanligini e'lon qildi.

**INSON KAPITALI** — shaxsning ma'lumoti, kasb mahorati, tajribasi , sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatlari majmui.

**ISTIQLOL** – o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari, o'zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy mezonlar asosida yashash demakdir. Mustaqillik – jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir.

**KOMIL INSON** – dunyoviy va diniy bilimlarning ilg'or namoyondalari qarashlariga ko'ra insondagi komillik aqliy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy etuklik bo'lib, komillikka erishishning yo'li – ilm-u ma'rifatga, fazl-u kamol kasb etishga, salbiy xislatlar, nuqsonlardan xalos bo'lishga va o'zgalarga yordam berishga intilishdir.

**MADANIY MEROS**- o'tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari majmuyi.

**MADANIYAT** – (arabcha «madina» — so'zidan olingan bo'lib, ma'nosi shahar degani. «Madaniyat» shahar turmush tarzini bildiradi. Shahar aholisining turmush tarzi patriarxal, qabilaviy hayot kechirayotgan badaviy arablar umrguzoronligidan yuqori bo'lgani bois madaniyat yuqori saviyadagi hayotni bildiradi. Madaniyatning yuqori darajasi "tamaddun" – sivilizatsiyani bildiradi.

**MAFKURA** – (arabcha «mafkura) – fikrlar, nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatning tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, go'zallikka doir, badiiy qarashlarning butun bir tizimi.

**MA'NAVIYAT** – (arabcha «ma'naviyat»-ma'nolar majmui)-kishilarning falsafiy, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadi.

**MILLAT** – (arabcha «millat» — xalq) – kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

**MILLIY ONG** – har bir millat yoki elatning bevosita uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi.

**MARKETING XIZMATI** — marketing faoliyatini amalga oshiruvchi boshqarishning tuzilma shakli. Korxonani boshqarishdagi muhim funksional bo'g'in bo'lib, u boshqa xizmatlar, bo'linmalar (ishlab chiqarish, moliyaviy, texnologik va h.k) bilan hamkorlikda bozor talabini qondirish va shu asosda foyda olishga yo'naltirilgan yagona integratsion jarayonni tuzadi.

**MUSTAQILLIK** — davlatning ichki va tashqi ishlarida boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi. Mustaqillik tamoyillariga rioya etish davlatlararo o'zaro munosabatlarda etakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish — o'zaro tinch-totuv yashashning prinsiplaridan biri. U BMT Ustavi va xalqaro shartnoma va deklaratsiyalarda mustahkamlab qo'yilgan.

**PROGRESS** – (lotincha progressus – oldinga harakatlanish) – rivojlanishning quyidan yuqoriga boradigan yo'nalishi. Progress tushunchasi butun bir sistemaga, uning ayrim elementlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Progress regresning aksi. "Progress" tushunchasi dastlab, asosan, jamiyat tarixiga nisbatan qo'llanilgan. Qadimgi dunyoda ko'pchilik olimlar jamiyat tarixini voqealarning shunchaki oddiy takrorlanishi, davra bo'ylab (Platon, Aristotel), hatto "oltin davr"dan quyiga qarab harakatdan iborat deb bilganlar. Uyg'onish davrida ijtimoiy munosabatlar va fanning nisbatan tez rivojlanishi bilan Progressning ilm sohasida mavjudligi haqida fikrlar

mavjud bo'la boshladi (F.Bekon, R.Dekart). Keyinchalik progress tushunchasi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etila boshlandi.

**PORTAL** — lotincha "eshik", "darvoza" degan ma'nolarni ifoda etadi. Yana bir ma'nosi — yopiqlik emas, hamisha ochiqlik ma'nosini, ya'ni ochiq turuvchi eshiklar ma'nosini ham anglatadi. Shuningdek, "portal" so'zi Vatanimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning hozirgi davrida aholining muammolari, ariza va shikoyatlari, taklif va murojaatlarini doimiy ravishda qabul qilib oluvchi hamda munosabat bildiruvchi muassasa ma'nosini ham bildiradi. Portal so'zi, xalqimiz ma'naviyati, muloqot tizimida adolatni muqarrar o'rnatishga qodir bo'lgan qadrli atamaga aylandi.

**RESPUBLIKA** – (Lotincha "res" — ish va "publikus" — ijtimoiy: umumxalq ishi) davlatni boshqarishning asosiy shakllaridan biri. Boshqarishning respublika shakli o'rnatilgan mamlakatlarda davlat hokimiyatining oliy organlari muayyan muddatga saylanib qo'yiladi. Tarixda respublikaning har xil turlari bo'lgan. Qadimgi Yunoniston va o'rta asrlar davridayoq, ayrim davlatlar, boshqarish shakliga ko'ra, aristokratik yoki demokratik respublika shaklida bo'lganlar.

**SO'M**- O'zbekistondagi pul birligi nomi

**STRATEGIYA** - ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bosh yo'nalishi, barcha sa'y-harakatlarning poydevori, davlat va jamiyat hayotidagi tub burilish davri uchun xos bo'lgan boshqaruv san'ati mazmunini ifoda etadi. Strategiyaning bugungi kun uchun xos bo'lgan ma'nosi hozirgi murakkab davrda O'zbekistonning erkin va farovon davlat bo'lishiga erishish, odamlar hayotini tubdan yaxshilash, baxtli turmushini, kafolatli tinchligini ta'minlash, har bir insonning ertangi kuniga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdan iborat.

**TADBIRKORLIK**- bu muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir.

**TARIX** – 1. Tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Masalan, Koinot tarixi, er tarixi, fanlar tarixi va boshqalar tushuniladi.

2. Insoniyatning o'tmishi va taraqqiyoti, jamiyatlar, davlatlar, tuzumlar, sivilizatsiyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda inqirozi jarayonini o'rganuvchi fan.

**TARIX FANI** – xalqning o'tmishdagi hayoti, qanday voqea-hodisalarni boshdan kechirganligi, insonlar hayoti qanday va nima uchun o'zgarib borganligi, etnik shakllanishi, davlatchiligi, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti, turmush tarzi hamda hozirgi rivojlanish darajasiga qanday erishganligini o'rgatadi. Ya'ni, xalqning o'tmishi, hoziri va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida yondashib, o'tmish

hozirgi zamonni, hozirgi davr esa kelajakni yaratadi, — degan qarashni shakllantiruvchi fan.

**TARIXIY XOTIRA** – hozirgi kundagi mustaqillik, tinch-osuda hayotning tamal toshini qo'ygan barcha insonlar, buyuk ajdodlarimizni yod etish, mustaqillikni saqlab qolish, asrab-avaylash va mustahkamlash, o'zbek xalqining kim ekanligi, qanday zotlarning avlodi, qanday merosning vorisi ekanligini bilish, o'zlikni anglash omili.

**XALQARO IQTISODIYOT** – turli mamlakatlarga tegishli xo'jalik subyektlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganuvchi bozor iqtisodiyoti nazariyasi.

**XUSUSIY SEKTOR** – mamlakatdagi uy xo'jaliklari va firmalarining yig'indisi.

**HADISI SAHIH** – to'g'ri hadis.

**HANDASA** – geometriya.

**HUDUD** – chegara, had.

**G'OYA** – (arabchada–o'y) – atrofdagi voqealarni fikran o'zlashtirish asosida shakllangan va amaliy harakatga chorlaydigan fikr, niyat, maqsad. G'oyaning mazmuni insonlar o'z bilimlarini qaysi sohasi to'g'risida mulohaza olib borilayotganiga bog'liq. Masalan, g'oyalar siyosiy, iqtisodiy, diniy, tibbiy, texnikaviy, badiiy, axloqqa tegishli bo'lishi mumkin. Ular jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. G'oyalar jamiyat rivojlanishini jadallashtiradi yoki susaytiradi.

## TESTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida Qonun loyihasini tayyorlash to'g'risidagi qarori qabul qilingan sanani toping.
A. 1991- yil 26-avgustda;
B. 1991- yil 31- avgustda;
D. 1991- yil 28-avgustda;
E. 1991- yil 2-iyulda.
2. O'zbekiston respublikasi Oliy Kengash 12 chaqiriq 6 sessiyasi o'z ishini qachon boshlagan.
A. 1991- yil 30-avgust;
B. 1991- yil 31-avgust
D. 1991- yil 1-sentyabr;
E. 1990- yil 31-avgust.
3. O'zbekiston Oliy Kengash 12 chaqiriq 6 sessiyasida qaysi masala ko'rilgan?
A. mustaqillik masala.
B. Prezident saylovlar masala.
D. Davlat bayrog'i masala.
E. A va D javoblar to'g'ri.
4. Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun nechta modda edi.
A. 17 moddadan;
B. 15 moddadan;
D. 19 moddadan;
E. 12 moddadan.
5. Qachon Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonunga konstitutsiyaviy maqom berilgan?
A. Oliy Kengashining 7 sessiyasida;
B. Oliy Kengashining 6 sessiyasida;
D. Oliy Kengashining 8 sessiyasida;
E. Oliy Kengashining 5 sessiyasida.
6. 1991 yilning 18 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12 sessiyasi qabul qilingan qaror to'g'ri berilgan javobni toping.
A. O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risidagi qaror;
B. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi to'g'risida»gi qaror;
D. «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risidagi Qonun» haqidagi qarori;
E Mahalliy hokimiyat organlari to'g'risidagi qaror.

7. O'zbekistonning mustaqilligi to'g'risidagi masalada referendum qachon?
A. 1991- yil 29-dekabr;
B. 1991- yil 31-avgust;
D. 1991- yil 1-sentyabr;
E. 1991- yil 26-dekabr.
8. «O'zbekistonda Prezidenti saylovi to'g'risidagi Qonun qachon qabul qilingan?
A. 1991- yil 18-noyabr;
B. 1991- yil 29-dekabr;
D. 1991 -yil 31-avgust;
E. 1990- yil 24-mart.
9. Mustaqillik arafasida O'zbekiston aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida nechanchi o'rinni egallab turgan edi?
A. 12-o'rinni;
B. 10-o'rinni;
D. 7-o'rinni;
E. 14-o'rinni.
10. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1992-yil avgust oyida nashr etilgan O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta belgilab bergan asari to'g'ri berilgan javobni toping?
A. «Yuksak ma'naviyat engilmas kuch asari» asari;
B. «O'zbekiston. – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asari;
D. «O'zbekiston 21 asr bo'sag'asida» asari;
E. «O'zbekiston bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish yo'lida» asari.
11. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayyorlash g'oyasi dastlab qachon ilgari surilgan edi?
A.1990- yilning mart oyida;
B. 1990 -yil iyun oyida;
D. 1991 — yil mart oyida;
E. 1991 — yil avgust oyida.
12. Oliy Kengashning quyidagi qaysi sessiyasida O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi?
A. O'zbekiston Oliy Kengashining 2 sessiyasida;
B. O'zbekiston Oliy Kengashining 1 sessiyasida;
D.O'zbekiston Oliy Kengashining 3 sessiyasida;
E.O'zbekiston Oliy Kengashining 4 sessiyasida.
13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi

uchun matbuotda e'lon qilingan sanani toping?
A.1992-yil 26-sentyabrda;
B.1992-yil 30-sentyabrda;
D.1992-yil 26-oktyabrda;
E.1992-yil 25-noyabrda.
14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining umumxalq muhokamasi davrida fuqarolardan qancha taklif va mulohazalar bildirilgan?
A. 6 mingdan ortiq;
B. 5 mingdan ortiq;
D.7 mingdan ortiq;
E. 4 mingdan ziyod.
15. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 12 sessiyasi bo'lib o'tgan sanani toping?
A.1992-yil 8-dekabrda;
B. 1991-yil 10-dekabrda;
D.1992-yil 10-dekabrda;
E.1993-yil 8-dekabrda.
16. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qaysi sessiyasida qabul qilinganligini toping?
A. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 11 sessiyasida;
B. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 10 sessiyasida;
D. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 13 sessiyasida;
E. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 9 sessiyasida.
17. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ......
A. 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat;
B. 6 bo'lim, 28 bob, 126 moddadan iborat;
D. 5 bo'lim, 25 bob, 128 moddadan iborat;
E.6 bo'lim, 20 bob, 128 moddadan iborat.
18. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qaysi moddasi ta'lim haqida edi?
A. 41 modda
B. 45 modda
D. 67 modda
E. 71 modda
19. «O'zbekiston davlat bayrog'i qachon qabul qilingan?

A. 1991-yil 18-noyabr
B. 1991-yil 8-noyabr
D. 1991-yil 1-noyabr
E. 1991-yil 10-noyabr
20. Davlat bayrog'i to'g'risida»gi qonunda nechta modda bor?
A.13 moddadan iborat bo'lgan;
B. 14 moddadan iborat bo'lgan;
D. 15 moddadan iborat bo'lgan;
E. 12 moddadan iborat bo'lgan.
21. 1992-yil 2-iyulda.....
A. gerbi
B. Referendumi to'g'risidagi qonun;
D. bayroq;
E. «Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun.
22. «O'zbekiston respublikasi madhiyasi qachon qabul qilingan.
A.1992-yil 10-dekabrda;
B.1992-yil 8-dekabrda;
D.1991-yil 10-dekabrda;
E.1992-yil 9-dekabrda.
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyunda e'lon qilingan Farmoni to'g'ri berilgan javobni toping.
A. «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoni;
B. «O'zbekiston Respublikasida so'm-kuponni muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoni;
D. «O'zbekiston Respublikasining rubl zonada vaqtincha bo'lib turishi to'g'risida»gi Farmoni;
E. «O'zbekiston avtosanoatini barpo etish to'g'risida»gi Farmoni.
24. O'zbekistonda 2019 — yilga qanday nom berildi?
A. Faol tadbirkorlik yili
B. Faol investitsiyalar yili;
D. ijtimoiy rivojlanish yili;
E. javoblar xato.
25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi ma'ruzasida investitsiyalarga qanday baho berdi?
A. Investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi;
B. Investitsiya – bu iqtisodiyot tayanchi va rivojlanishining bosh omili;

D. Investitsiya – bu iqtisodiy islohotlarni moliyalashtirish manbasi;
E. Investitsiya – bu iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan loyihalar va dasturlarni moliyalashtirish asosi.
26. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2018 yilda nechta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi?
A. 25 ta;
B. 15 ta;
D. 18 ta;
E. 21 ta.
27. 2018- yilda amalga oshirilgan davlatlararo rasmiy tashriflar natijasida nechta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi?
A. 1 ming 80 ta;
B. 1 ming 180 ta;
D. 2 ming 80 ta;
E. 2 ming 280 ta.
28. 2019- yili qishloq joylarda arzon uy-joylar qurilishi bo'yicha qancha mablag' ajratilgan?
A. 294,8 milliard so'm;
B. 3 04 milliard so'm;
D. 1 85 milliard so'm;
E. 4 05 milliard so'm.
29. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining necha foizi shaharlarda yashaydi?
A. 50,6 foizi;
B. 24 0 foizi;
D. 18 foizi;
E. 85 foizi.
30. Mamlakatimiz aholisining urbanizatsiya darajasini 2030- yilga qadar necha foizga etkazish mo'ljallangan?
A. 60 foizga etkazish;
B. 55 foizga etkazish;
D. 65 foizga etkazish;
E.70 foizga etkazish.
31. O'zbekistonda shahar va shaharchalarda doimiy aholi soni 2011–2018 yillarda necha foizga o'sishga erishgan?
A. 111 foizga;
B. 120 foizga;
D. 115 foizga;
E. 125 foizga.

32. O'zbekiston BMTga qachon a'zo bo'lgan?
A. 1990-yil;
B. 1991-yil;
D. 1989 –yil;
E. 1992 –yil.
33. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qishloq xo'jaligidagi islohotlarning asosiy maqsadi nima deb ko'rsatildi?
A. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini raqobatbardosh tarmoqqa aylantirish;
B. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish;
D. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
E. iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir.
34. O'zbekistonda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi necha foizga oshdi?
A. 25 foizdan oshdi;
B. 12 foizdan oshdi;
D. 8 foizdan oshdi;
E. 4 foizdan oshdi.
35. Mamlakatimizda turli necha foizini xotin-qizlar tashkil etadi?
A. 50 foizini;
B. 60 foizini;
D. 40 foizini;
E 44 foizini.
36. Yoshlarni tarbiyalashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad nima?
A. Yoshlarning kelajagi haqida qayg'urish;
B. Yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish;
D. Yoshlarni har tomonlama bilimli qilish;
E. Yoshlarni jamiyatimizning faol kuchiga aylantirish.
37. Yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadi va qoidalari qaysi hujjatda o'z aksini topgan?
A. «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi qonunda;
B. «Yoshlar yili» Davlat dasturida;
D. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasida;
E «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturida.
38. «El-yurt umidi» jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» Prezident farmoni qachon qabul qilindi?

A. 2018 -yil 25- sentyabrda;
B. 2016 -yil 4- oktyabrda;
D. 2017- yil 7 –fevralda;
E. 2018- yil 28 –dekabrda.

39. O'zbekistonda turizmni qaysi yo'nalishlarda jadal rivojlantirish istiqbolli hisoblanadi?
A. ekologik; gastronomik; sog'lomlashtirish; agroturizm yo'nalishlarida;
B. Tarixiy-madaniy turizm; safari; plyaj yo'nalishlarida;
D. Ko'ngilochar; sarguzashtli turizm; fillarda sayr yo'nalishlarida;
E. Gastronomik; ekstremal turizm; plyaj yo'nalishlarida.

40. Ta'lim tizimidagi innovatsion va kreativ yondashuvlar asosida tashkil yetilgan aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarga kimlarning nomi berilgan?
A. Ibn Sino va Forobiy ;
B. Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek;
D. Beruniy va Imom Moturudiy;
E. Alisher Navoiy va Farobiy.

41. «O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak» degan fikr Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qaysi asari yoki ma'ruzasida keltirilgan?
A. «Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» risolasida;
B. «Oliy Majlisga Murojaatnomasi»da;
D. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonida;
E. «– erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» risolasida.

42. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha O'zbekiston 187 mamlakat o'rtasida nechanchi o'rindan joy olgan?
A. 44-o'rinda;
B. 175-o'rinda;
D. 77-o'rinda;
E. 134-o'rinda.

43. «Harakatlar strategiyasiga muvofiq, ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishi bo'yicha hududlarni har tomonlama

rivojlantirish hisobiga qancha ishchi o'rni tashkil etish nazarda tutilgan?

A. 256,4 ming ish o'rni;

B. 951 ming ish o'rni;

D. 1 million ish o'rni;

E. 1,4 million ish o'rni.

44. «2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Prezident Farmoni (2018-yil 21- sentyabr) bilan O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahondagi nechta ilg'or mamlakat qatoriga kirishiga erishish bayon etilgan?

A. 40 ta;

B. 50 ta;

D. 20 ta;

E. 30 ta.

45. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qachondan boshlab ikki palatali parlament sifatida faoliyat yuritib kelmoqda?

A. 2005- yildan boshlab;

B. 2006- yildan boshlab;

D. 2002- yildan boshlab;

E. 2004- yildan boshlab.

46. Yuz nafar senatordan necha nafari mahalliy Kengashlar vakillari hisoblanadi?

A. 84 nafari;

B. 16 nafari;

D. 15 nafari;

E. 85 nafari.

47. Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruvi to'g'risida mutlaqo yangi tizim yaratish uchun qanday qonunni ishlab chiqish taklifini kiritdi?

A. Ta'lim to'g'risida;

B. Kadrlar to'g'risida;

D. Davlat boshqaruvi to'g'risida;

E. Davlat xizmati to'g'risida.

48. O'z xizmat burchini bajarish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilarimiz jasoratini ulug'lash, yosh avlod uchun ibrat namunasiga aylantirish maqsadida...

A. «Mard o'g'lonlar nomi barhayot» deb nomlangan kitob nashr etildi;

B. Respublika miqyosida test sinovlari o'tkaziladi;

D. Harbiylar jurnali nashr etiladi;

E. xalqaro turnir o'tkaziladi.
49. Orol dengizining fojiasi birinchi navbatda qaysi jarayon oqibatida shakllangan?
A. Suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik oqibatida;
B. Tabiiy omillar, masalan, yog'ingarchiliklar miqdorining kamayishi oqibatida;
D. Qirg'iziston va Tojikistonda gidroenergetika rivojlanishi oqibatida;
E. Suv resurslarining ifloslanishi oqibatida.
50. Prezidentimiz Murojaatnomasida Orolbo'yi mintaqasida hozirgacha necha gektar o'rmonzor barpo etilgani va kelajakda yana qancha barpo yetilishi aytib o'tilgan?
A. 400 ming va 500 ming gektar;
B. 1 million 220 ming va 250 ming gektar;
D. 300 ming va 120 ming gektar;
E. 3 million 200 ming va 1 million 220 ming gektar.
51. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi bobi tashqi siyosatga bag'ishlangan?
A. 4 bob;
B. 3 bob;
D. 7 bob;
E. 9 bob.
52. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasiga qanday taklif bilan chiqdi?
A. Islom madaniyatlararo sivilizatsiyasi bo'yicha;
B. «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish;
D. Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash;
E Islomiy ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha.
53. O'zbekiston mintaqaning nechta mamlakati bilan umumiy chegaraga ega?
A. 6;
B. 7;
D. 4;
E. 5.
54. O'zbekistonda millatlararo totuvlikning kafolatini ayting?
A. Prezident;
B. Mahallada jamoaviy yashash tartibotlari;
D. Millatlarning yaxlit (kompakt) yashashi;
S. Xorijiy mamlakatlarning homiyligi.
55. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirish yo'lida

qanday vazifalar belgilangan?
A. Mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko'rsatish;
B. O'zbekistonning mintaqa va jahon siyosatidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;
D. Milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb etishda faol ko'mak berish;
E. Barcha javoblar to'g'ri.
56. Olma-Ota shahrida 11 ta suveren davlat – Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston hamda Ukraina davlatlari qachon Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzish shartnomasini imzolagan?
A. 1991 -yil 21 –dekabrda;
B. 1991- yil 8- dekabrda;
D. 1993- yil 11- dekabrda;
E. 1992- yil 18- dekabrda.
57. Mustaqillik yillarida mamlakatda necha kv.m. maydonda turar joylar barpo etildi?
A. 90 mln. kv.m.;
B. 70 mln. kv.m.;
D. 58 mln. kv.m.;
E. 120 mln. kv.m.
58. Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash va gazlashtirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda. Qaysi yillarda mamlakatimizda 22,6 ming km. suv quvurlari va 54,1 ming km. gaz tarmoqlari yotqizildi?
A. 1991-1999 yillarda;
B. 2000-2010 yillarda;
D. 1991-2000 yillarda;
E. 1991-2020 yillarda.
59. 1994- yilda aholining dori-darmonga bo'lgan ehtiyoji Respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga necha foizga qondirilar edi?
A. bor-yo'g'i 5 foizga;
B. bor-yo'g'i 4,5 foizga;
D. bor-yo'g'i 25 foizgacha;
E. bor-yo'g'i 30 foizga.
60. 1994-yilda aholining dori-darmonga bo'lgan ehtiyoji Respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga bor-yo'g'i 4,5 foizga qondirilgan bo'lsa, qaysi yilga kelib, katta miqdorda sarmoya jalb etilganligi hisobidan, bu ko'rsatkich

25 foizgacha o'sdi?

A. 2000 – yilga;

B. 2013 – yilga;

D. 2003 – yilga;

E. 2020 – yilga.

61. Ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida buyuk ajdodlarimizning nomlari qoralanib, ular merosini imkon qadar yo'q qilishga harakat qilindi, ularning nomi qoralanib, ularga ... degan nomni tamg'aladilar?

A.«Xalq dushmani»;

B. «Quloq»;

D. «Bosmachi»;

E. «Qatag'on qurbonlari».

62. «... eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadryatlarimiz, din-u diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va Shu asosda ish olib borish biz uchun doim ustuvor vazifa..., ...har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi». Ushbu fikrlar kimga tegishli ?

A. I. Karimov;

B. Sh Mirziyoyev;

D. A. Fitrat;

E. M. Behbudiy.

63. Birinchi Prezident Islom Karimov o'zining 2008 — yilda yozgan qaysi asarida insonni inson qiladigan, odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan alohida o'ringa ega ma'naviyatga"... insonni ruhan poklanishi, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon- e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir", degan yuksak baho berib ma'naviyatning hayotdagi tasdig'ini yaqqol ifoda etadi?

A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»;

B. «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch»;

D. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin»;

E. «Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir».

64. Qadimiy ajdodlarimizning bunyodkorligi tufayli yaratilgan qancha moddiy-madaniy obidalar umumjahon merosining noyob namunalari sifatida YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan?
A. To'qqiz mingdan ziyod;
B. O'n bir mingdan ziyod;
D. To'rt mingdan ziyod;
E. Olti mingdan ziyod.
65. Avestoda ummning tub ma'nosi nimadan iborat edi?
A. ezgu amal, ezgu so'z, ezgu fikr;
B. Faqat ezgu ishlarni amalga oshirish;
D. Yovuzlik bilan kurashda ezgulikka yordam berish;
E. Yolg'on so'zlamaslik, va'daga vafo qilish.
66. Qaysi ulug' zotni I.A. Karimov o'z asarlarida faxr bilan avliyolarning avliyosi, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoirlarning sultoni, deb ta'riflaydi?
A. Burhoniddin Marg'inoniy;
B. Naqshbandiy;
D. At –Termiziy;
E. Alisher Navoiy.
67. Davlatimiz rahbari qaysi ma'ruzasida uzoq yillar davomida ma'rifat va madaniyatga noto'g'ri munosabatda bo'lib kelingani sabab: «Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma'rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim», deb aytgan edi?
A. 1991 yil 18-noyabr respublika Oliy Kengashining 8 sessiyasida;
B. 1991-yil 31-avgust respublika Oliy Kengashining 6sessiyasida;
D. 1990 yil 24 mart kuni respublika Oliy Kengashining 1 sessiyasida;
E. 1990-yil 20-iyun respublika Oliy Kengashining 2 sessiyasida.
68. Ma'naviyat bu – ...
A. Qotib qolgan aqidalar yig'indisi va ommaviy madaniyatga ko'r-ko'rona ergashish;
B. Insonning ruhiy poklanishi, ichki dunyosini baquvvat qiladigan qarashlari mezoni;
D. Odam irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan o'lchov;
E. b va c javoblar.
69. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2010-2020- yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori qachon qabul qilindi?

A. 2010- yil 7-oktyabrdagi;
B. 2001- yil 31- avgustdagi;
D. 2006- yil 25- avgustdagi;
E. 2007 — yil 25- avgustdagi.

70. Qachon shahidlar xotirasi xiyoboni tashkil qilindi?
A. 2010-yilda;
B. 2000- yilda;
D. 2001- yilda;
E. 1997- yilda.

71. Qaysi yildan e'tiboran 31 avgust yurtimizda qatag'on qurbonlarini yod yetish kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi?
A. 2012- yildan;
B. 1993- yildan;
D. 1991- yildan;
E. 2001- yildan.

72. Islom Karimovning «Istiqlol yo'li; muammolar va rejalar» hamda «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarlari qaysi yilda yozilgan?
A. 1997 –yilda;
B. 1993- yilda;
D. 1992- yilda;
E 1994- yilda.

73. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari nechanchi sessiyasida O'zbekiston mustaqil suveren davlat deb e'lon qilindi?
A. 2 sessiyasida;
B. 6 sessiyasida;
D. 11 sessiyasida:
E. 8 sessiyasida.

74. Islom Karimov qaysi kitobida mamlakatimizni yangilash va rivojlantirishning "umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; vatanparvarlik" singari o'ziga xos to'rtta asosiy negizini belgilab berdi?
A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»;
B. «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch»;
D. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin»;
E. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li».

75. Respublikamizda nechanchi yilda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning davlat miqyosidagi ustuvor siyosat ekanining amaliy tasdig'i sifatida mutlaqo yangi ijtimoiy institut — Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi tashkil etildi?
A. 1997- yilda;
B. 1993- yilda;
D. 1992- yilda;
E. 1994- yilda.
76. Istiqlol sharofati bilan buyuk allomamiz Alisher Navoiy tavalludini nishonlashga bag'ishlangan tantanalar qachondan o'tkazilib kelinmoqda?
A. 1991- yilda;
B. 1993- yilda;
D. 1992- yilda;
E. 1994- yilda.
77. 1993-yildan qaysi buyuk allomalarimizning tavalludini nishonlashga bag'ishlangan tantanalar o'tkazilib kelinmoqda?
A. Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bahouddin Naqshband;
B. Burhonuddin al-Marg'inoniy, Kamoliddin Behzod, Imom Abu Mansur al Motrudiy;
D. Ahmad Yassaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bahouddin Naqshband;*
E. Ahmad al-Farg'oniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy.
78. Qaysi yildan boshlab Mirzo Ulug'bek tavalludini nishonlashga bag'ishlangan tantanalar o'tkazilib kelinmoqda?
A. 1991- yilda;
B. 1993- yilda;
D. 1992- yilda;
E. 1994- yilda.
79. 1995-yildan buyon qaysi buyuk allomalarimizning tavalludini nishonlashga bag'ishlangan tantanalar o'tkazilib kelinmoqda?
A. Mirzo Ulug'bek, Amir Temur;
B. Feruz, Najmiddin Kubro;
D. Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy;
E Ahmad Yassaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur.
80. Qaysi yildan buyon Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy kabi buyuk allomalarimizning tavalludini nishonlashga bag'ishlangan tantanalar o'tkazilib kelinmoqda?
A. 1996- yildan;
B. 1995- yildan;
D. 1994- yildan;

E. 1998- yildan.

81. Qaysi yili Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O'zbekistonda keng nishonlandi?

A. 1998-yili;

B. 1997-yili;

D. 1999-yili;

E. 2000-yili.

82. Qaysi yildan Burhonuddin al-Marg'inoniy, Kamoliddin Behzod, Imom Abu Mansur al-Motrudiy kabi mutafakkirlarimizga bag'ishlangan tantanalar o'tkazilib kelinmoqda?

A. 1998-yili;

B. 1997-yili;

D. 1999-yili;

E. 2000-yili.

83. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qaroriga asosan, nechanchi yilda Sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi tantanalari o'tkazildi?

A. 1996- yilda;

B. 1993- yilda;

D. 1992- yilda;

E. 1994- yilda.

84. Nechanchi yilda Al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi nishonlandi?

A. 2000-yilda;

B. 1998-yilda;

D. 1997-yilda;

E. 2005-yilda.

85. Qadimgi ajdodlarimizning ezgu g'oyalari, milliy davlatchilik an'analari, turmush tarzi va mentalitetini aks ettirgan muqaddas "Avesto" kitobining 2001 yili «Avesto» yaratilganligining necha yilligi yurtimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi?

A. 2200 yilligi;

B. 2500 yilligi;

D. 2700 yilligi;

E. 3000 yilligi.

86. Ma'lumki, O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy o'choqlaridan. Bu yurtning qaysi tarixiy shaharlari asrlar mobaynida insoniyatning ma'naviy va moddiy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shib keldi

va kelmoqda?
A. Buxoro, Samarqand, Xiva, Navoiy, Shahrisabz, Toshkent va Marg'ilon;
B. Buxoro, Samarqand, Xiva, Qarshi, Shahrisabz, Jizzax va Andijon;
D. Buxoro, Samarqand, Xiva, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent va Marg'ilon;
E. Buxoro, Samarqand, Xiva, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent va Chust.
87. Qaysi xalqaro tashkilot va qachon «Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»ni qabul qilgan?
A. YuNESKO, 1995;
B. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), 2000;
D. Yevropa kengashi (EK), 1990;
E. Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (EXHT),1998.
88. «Bag'rikenglik» tushunchasining ma'nosini aniqlang
A. Hamma javoblar to'g'ri;
B. Chidamlilik;
D. Bag'rikenglik;
E. Sabr-toqat.
89. Hozirgi kunda O'zbekistonda qancha millat va elat vakillari istiqomat qiladi?
A. 137;
B. 150;
D. 126;
E. 140.
90. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturiga ko'ra notarial idoralar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday choratadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan?
A. Notarial idoralar faoliyatini avtomatlashtirish;
B. Barcha notarial bitimlar hisobini markazlashgan holda yuritish;
D. Idoralararo elektron hamkorlikni hisobga olgan holda, aholi va tadbirkorlarga notariat sohasida interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni yo'lga qo'yish;
E. Barcha javoblar to'g'ri.
91. O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qachon qo'shilgan?
A. 2017- yil;
B. 2001- yil;
D. 2003 –yil;
E. 2008- yil.

92. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qanday tuzilma tashkil etildi?
A. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi;
B. Korrupsiyani oldini olish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi;
D. Bosh prokuratura huzurida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha departament;
E. Barcha javoblar to'g'ri.
93. «Paxta ishi», «O'zbeklar ishi» yuzasidan tergov jarayonlari kimlar tomonidan olib borilgan?
A. Andropov. Yanayev;
B. Anshchev, Ogorok;
D. Gdlyan, Ivanov;
E. Chernenko, Satin.
94. 1989- yil respublika rahbarligiga saylangan shaxsni aniqlang
A. R.Nishonov;
B. S.Usmonxo'jayev;
D. A.Ikromov;
E. I.Karimov.
95. O'zbekiston SSR Oliy Kengashi 1990- yilning 24- martida...
A. Ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda prezidentlik lavozimini joriy etdi;
B. O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ni qabul qildi;
D. O'zbekiston mustaqillikka erishganligini e'lon qildi;
E. O'zbekistonning davlat tili haqidagi Qonunni qabul qildi
96. O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning mazmuniga ko'ra...
A. Har millat o'z taqdirini o'zi belgilashi mumkin, lekin "markaz"ning ruxsati bilan;
B. Har millat o'z taqdirini o'zi belgilashi mumkin, bunga deklaratsiya kafolat beradi;
D. Deklaratsiya 12 moddadan iborat bo'lib, undagi qoidalar yakka shaxs ijrosi bilan bog'liq;
E. Hech bir bandda Deklaratsiyaning mazmuni to'g'ri ko'rsatilmagan.
97. O'zbekiston Respublikasining BMT a'zoligiga qabul qilingan sanani aniqlang?
A. 1993- yil fevral;
B. 1994- yil aprel;
D. 1993- yil 2 mart;

E. 1992- yil 2 mart.

98. O'zbekiston Respublikasining Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga (EXHT) a'zo bo'lib kirgan sanani aniqlang

A. 1992- yil aprel;

B. 1993- yil iyun;

D. 1992- yil fevral;

E. 1994- yil avgust.

99. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Xorazm Mamun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida»gi farmoni qachon qabul qilingan?

A. 1997- yil 11-noyabr;

B. 1997- yil 10- noyabr;

D. 1998- yil 11- noyabr;

E. 1999-yil 3-noyabr.

## O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Davlat tili to'g'risida qonunning qabul qilinishi.
2. O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi joriy etilishi.
3. I.A.Karimovning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi.
4. "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi.
5. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berish zarurati bormidi?
6. Mustaqillikning dastlabki kunlarida O'zbekiston oldida qanday yo'llar mavjud edi?
7. Mustaqillik Deklaratsiyasi qanday hujjat, unga izoh bering?
8. 1989-1991 yillar oralig'idagi vaziyatlarda Islom Karimov jasoratiga izoh bering?
9. Mustaqillik tushunchasi.
10. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqillik va siyosiy suvereniteti uchun amaliy harakatlar
11. O'zbekiston siyosiy tizimidagi o'zgarishlar.
12. Mustaqillik tushunchasiga izoh bering?
13. Mustaqillik uchun kurashlarning tarixiy bosqichlarini sanab o'ting?
14. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda revolyutsion yo'l orqali o'sa bo'larmidi?
15. Mustaqillik yillarida Qoraqolpog'iston Respublikasi O'zbekiston tarkibidan chiqib keta oladimi yo'qmi?

16. Muxolifat kuchlar deganda nimani tushunasiz?
17. O'zbekistonning o'ziga xos tarqqiyot yo'lini tanlashi, taraqqiyotning «O'zbek modeli».
18. O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi.
19. Yangi Konstitutsiya qabul qilinishi.
20. O'zbekiston mustaqillik yillarining dastlabki kunlarida qanday yo'llar mavjud edi?
21. Sotsialistik tuzum bilan demokratik tuzum o'rtasida qanday farq bor? Izohlab bering?
22. 2002 yil Oliy Majlisda nutq so'zlagan O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov qanday ustuvor vazifalarni belgilab berdi?
23. 1992 yili qabul qilingan yangi Konstitutsiya oldingi Konstitutsiyalardan qanday farq qiladi?
24. O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi — Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi.
25. O'zbekistonda ikki palatali Parlamentning shakllanishi — qonunchilik palatasi va Senat faoliyati.
26. Siyosiy jarayonlar va ularning faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
27. O'zbekistonda mustaqillik yillarida siyosiy sohada qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
28. Oliy Kengash faoliyati nima uchun tugatilib uning o'rniga Oliy Majlis tashkil etildi?
29. Respublikada unvonlar ta'sis etish va ularni taqdirlash kimni vazifasiga kiradi?
30. O'zbekistonda Senat faoliyati to'g'risida ma'lumot bering?
31. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi boshqaruvdagi yangi usullarni qaror topishi.
32. Mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi o'zgarishlar.
33. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin jamiyat qurish yo'lida qanday yo'llar mavjud edi?
34. Bugungi kunda Respublika tizimidan ketayotgan mamlakatlarning taraqqiyotini izohlab bering?
35. Vazirlar mahkamasi faoliyati haqida qanday ma'lumot bilasiz?
36. "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" konsepsiya tushunchasi haqida qanday ma'lumot bilasiz?
37. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqalpog'iston davlatchiligi taraqqiyoti
38. Mustaqil Qoraqalpog'iston davlatining ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyoti.
39. Xalq ta'limi fan va madaniyat.
40. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyat qurish yo'li.

41.Sud hokimiyati islohotlari. Demokratik saylov tizimini barpo etilishi va uning asosiy tamoyillari.
42.Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining shakllanishi va faoliyati.
43.Jamiyatni demokratlashuvida ommaviy axborot vositalarining roli. Matbuot turlarining ko'payishi.
44.Demokratik yo'l deganda nimani tushunasiz?
45.O'zbekistonda jamiyat va davlat ishlarida fuqarolik pazitsiyasini tushuntirib bering.
46.Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sud huquq tizimidagi islohotlar va ularning natijalari?
47.Siyosiy partiyalarning jamiyatda tutgan o'rni haqida gapirib bering?
48.Jamiyatni demokratlashtirishda OAV vositalarning o'rnini tushuntirib bering?
49.Davlat tili to'g'risida qonunning qabul qilinishi.
50.O'zbekiston bilan Markaz munosabatlarining keskinlashuvi.
51.O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi joriy etilishi.
52.I.A. Karimovning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi.
53.«Mustaqillik Deklaratsiyasi» ning qabul qilinishi.
54.Sud hokimiyati islohotlari.
55.Demokratik saylov tizimini barpo etilishi
56.Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining shakllanishi va faoliyati.
57.Jamiyatni demokratlashuvida ommaviy axborot vositalarining roli.
58.O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqalpog'iston davlatchiligi taraqqiyoti
59.Mustaqil Qoraqalpog'iston davlatining ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyoti.
60.Milliy davlat tizimining barpo qilinishi.
61.Boshqaruvdagi yangi usullarni qaror topishi.
62.Mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi o'zgarishlar.
63.O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlashi.
64.Taraqqiyotning «O'zbek modeli».
65.O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi.
66.Yangi Konstitutsiya qabul qilinishi.
67.O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi — Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi.
68.O'zbekistonda ikki palatali Parlamentning shakllanishi — qonunchilik palatasi va Senat faoliyati.
69.Mustaqillik tushunchasi.
70.O'zbekiston siyosiy tizimidagi o'zgarishlar.

## ADABIYOTLAR

1. Мустакил Ўзбекистон тарихининг дастлабки сахифалари. — Тошкент, 2000.

2. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. — Тошкент: Маънавият, 2011.
3. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. — Тошкент: Шарқ, 2006.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабиров. — Тошкент: Академия, 2013.
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. — Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.
7. Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim! Mualliflar jamoasi. T.: Muharrir. 2018.
8. Бекмуродов М. ва бошқалар. Наракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. Т.: Ғофур Ғулом НМИУ. 2017.
9. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. - Т.: Шарқ, 2003.
10. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. — Т.: Ўзбекистон, 2010.
11. Otamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati. O'quv qo'llanma. Lotin yozuvida. T.: Universitet. 2018. 21 b.t.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

12. Каримов И.А. Асарлар тўплами, 1-23 жилдлар. -Т.: Ўзбекистон, 1996-2016.
13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezident lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq // Sh.M. Mirziyoyev. — Toshkent: "O'zbekiston", 2016. — 56
14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning yeng muhim ustuvor yo'nalishlariga bahishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. — Toshkent: "O'zbekiston", 2017. -104 b.
15. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi// O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 07-12- 2016. -Toshkent: "O'zbekiston", 2017. — 48 b.
16. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga

quramiz. — Toshkent: "O'zbekiston", 2017. — 491 b.
17. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: O'zbekiston, 2021
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni //Xalq so'zi, 2017, 8 fevral.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5185-sonli Farmoni.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., 22 dekabr 2017 yil. Xalq so'zi gazetasining 2017 yil 23 dekabr № 258 (6952)-soni.
21. "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5430-son Farmoni. -T.: 2018 yil 4 may.
22. Азизхўжаев А.А. Мустакиллик: курашлар, изтироблар, кувончлар. — Тошкент: 2001.
23. Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек иши. — Тошкент, 2003.
24. Ахмедов Е. Ўзбекистон шаҳарлари мустакиллик йилларида. — Тошкент: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2002.
25. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизацялаш ва демократик тараккиёт сари. — Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
26. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. — Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
27. Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интегратsiялашуви. – Тошкент: Молия, 2003. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. — Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

**Интернет манбалари**

28. www.пресс-сервисе.uz
29. www.Zivonet.
30. www.google.uz.
31. www.gov.uz.
32. www.XDP.uz
33. www.adolat.uz/
34. www.uzlidep.u/
35. www.millitiklanish.uz/
36. www.mahalla.uz

## MUNDARIJA


| | MAVZULAR NOMLARI | BETLAR |
|---|---|---|
| 1 | "O'zbekistonning eng yangi tarixi" modulining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari | 5-15 |
| 2 | Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo'li | 15-33 |
| 3 | Mustaqillik yillarida O'zbekistonda fan, ta'lim, sport, san'at, adabiyot va sog'liqni saqlash tizimi rivoji | 33-51 |
| 4 | Buyuk Ipak yo'li va hozirgi zamon. O'zbekistonning turizm salohiyati | 51-60 |
| 5 | O'zbekiston tarixida renessans davrlari | 60-76 |
| 6 | O'zbekiston va jahon hamjamiyati | 77-108 |
| 7 | Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uning asosiy mazmun-mohiyati.... | 108-126 |
| 8 | Glossariy | 127-133 |
| 9 | Testlar | 133-150 |
| 10 | Nazorat savollari | 151-153 |
| 11 | Adabiyotlar | 154-155 |

**A.N. Maxmudova,**
**A.A. Raxmonov,**
**SH.M.Usanov,**
**N.X. Choriyev**

**O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI**
**O‘QUV QO‘LLANMA**

**Muharrir: Salomov Sh.**
**Korrektor va dizayner: Abdusalomov A.**

Tasdiqnoma № 140658, 04.10.2023
Bosishga 19.12.2023 da ruxsat berilgan.
Format 60x84/16 Garnitura Times New Roman.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 27

**„WORLDLY KNOWLEDGE“ nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.**
Andijon viloyati , Baliqchi tumani , O’zbekiston ko’chasi 14-uy, , XALQ BANKI ,
Baliqchi bo’limi,MFO:00655, INN:309829226 X/R: 20208000905606733001
Telefon: +998978374147
e-mile: worldlyknowledgeiqro@gmail.com
https://wordlyknowledge.uz/

ISBN: 978-9910-9617-0-0